
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI
Y. G‘ULOMOV NOMIDAGI SAMARQAND ARXEOLOGIYA INSTITUTI



O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYASI

№ 2 (33)

SAMARQAND – 2025

ISSN 2181-032X
№ 2 (33) 2025

O‘ZBEKISTON ARXEOLOGIYASI

Bosh muharrir:
Saidov Muminxon Munir o‘g‘li

Главный редактор:
Саидов Муминхон Мунир угли

Editor-in-Chief:
Saidov Muminkhon

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Pardayev Muxtorqul Hasanovich

Заместитель главного редактора:
Пардаев Мухторкул Хасанович

Deputy Editor-in-Chief:
Pardaev Mukhtorkul

Mas’ul kotib:
Iskanderova Aysulu Djapbarbergenovna
Sandiboyev Alisher Nazarbekovich

Ответственный секретарь:
Искандерова Айсулу Джапбарбергеновна
Сандибоев Алишер Назарбекович

Executive Secretary:
Iskanderova Aysulu
Sandiboev Alisher

Tahririyat kengashi:
T. Sh. Shirinov (Kengash raisi)
A. A. Asqarov
B. A. Baytanayev (Qozog‘iston)
A. S. Sagdullayev
Frans Grene (Fransiya)
K. A. Abdullayev
A. A. Anarbayev
V. A. Alyokshin (Rossiya)
B. Jenito (Italiya)
Van Jianxin (Xitoy)
A. I. Krivoshapkin (Rossiya)
F. A. Maqsudov
A. Naymark (AQSH)
B. H. Matboboyev
S. Mantellini (Italiya)
A. A. Raimqulov
R. Rante (Fransiya)
B. Q. Sayfullayev
C. Shtark (AQSH)
A. G. Sitdikov (Rossiya)
R. X. Sulaymonov
K. Tabaldiyev (Qirg‘iziston)
X. Teramura (Yaponiya)
N. U. Xolmatov
Sh. B. Shaydullayev

Редакционный Совет:
Т. Ш. Ширинов (Председатель)
А. А. Аскаров
Б. А. Байтанаев (Казахстан)
А. С. Сагдуллаев
Франц Грене (Франция)
К. А. Абдуллаев
А. А. Анарбаев
В. А. Алекшин (Россия)
Б. Дженито (Италия)
Ван Жианхин (Китай)
А. И. Кривошапкин (Россия)
Ф. А. Максудов
А. Наймарк (США)
Б. Х. Матбабаев
С. Мантеллини (Италия)
А. А. Раимкулов
Р. Ранте (Франция)
Б. К. Сайфуллаев
С. Старк (США)
А. Г. Ситдиков (Россия)
Р. Х. Сулейманов
К. Табалдыев (Кыргызстан)
Х. Терамура (Япония)
Н. У. Холматов
Ш. Б. Шайдуллаев

Editorial Board:
T. Sh. Shirinov (Chairman)
A. A. Askarov
B. A. Baytanaev (Kazakhstan)
A. S. Sagdullaev
F. Grenet (France)
K. A. Abdullaev
A. A. Anarbaev
V. A. Alekshin (Russia)
B. Genito (Italy)
Wang Zhianhin (China)
A. I. Krivoshapkin (Russia)
F. A. Maksudov
A. Naymark (USA)
B. Kh. Matbabaev
S. Mantellini (Italy)
A. A. Raimkulov
R. Rante (France)
B.K. Sayfullaev
S. Stark(USA)
A. G. Sitdikov (Russia)
R. Kh. Suleymanov
K. Toboldiyev (Qirg‘izistan)
H. Teramura (Japan)
N. U. Kholmatov
Sh. B. Shaydullaev

Tahririyat a’zolari:
A. X. Ataxodjayev
A. E. Berdimurodov
A. X. Begmatov
G. I. Bogomolov
J. K. Mirzaaxmedov
M. A. Reutova
K. A. Rahimov
A. N. Xolmatov

Редакционная коллегия:
А. Х. Атаходжаев
А. Э. Бердимурадов
А. Х. Бегматов
Г. И. Богомолов
Дж. К. Мирзаахмедов
М. А. Реутова
К. А. Рахимов
А. Н. Холматов

Editorial Board:
A. Kh. Atakhodjaev
A. E. Berdimuradov
A. Kh. Begmatov
G. I. Bogomolov
D. K. Mirzaakhmedov
M. A. Reutova
K. A. Rakhimov
A. N. Kholmatov

Tahririyat manzili: 140305. Samarqand sh., V. Abdullayev ko‘chasi, 3-uy
Telefon: (366) 232-27-75,
E-mail: archeologyruz2022@gmail.com http://arxeologiya.uz
Yilda 2 marta chiqadi

© Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti

MUNDARIJA

MAQOLALAR

Amriddin Berdimurodov, Alisher Sandiboyev, Navro‘z Alimov
Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Sug‘d zargarlik buyumlari - taqinchoqlar va bezaklar (Kofirqal’a materiallari asosida)..... 6

Boboyorov G‘aybulla, Shatoxin Anton
Farg‘ona vodiysining VII – VIII asrlarga oid “Jabg‘u Turk-Xoqon” unvonli tangalari..... 22

Filanovich Margarita, Gritsina Aleksey
Toshkentning o‘rta asrlar tarixi bo‘yicha yangi arxeologik ma’lumotlar..... 44

Gennadiy Bogomolov
Janubiy Sug‘d ossuariylaridagi yangi syujetlar haqida..... 54

Musakaeva Alfiya
Antik va ilk o‘rta asrlar Sug‘d va Chochda og‘irlik-o‘lchov tizimlari haqida..... 72

Rashidov Niyoz, Bullion Elissa, Murodaliyev Raxmonali, Frachetti Michael, Maqsudov Farhod
So‘ngak va Toshbuloq yodgorliklari antropologik materiallarida kariyes paleopatologiyasi..... 85

Reutova Marina, Saidov Muminxon, Sharonov Iosif, Avazgeldiyev Bekzod
Samarqandda topilgan o‘rta asr hammomini bezashda ishlatilgan devoriy surat parchalarini rentgenofluoressent tahlili to‘g‘risida..... 100

Sandiboyev Alisher
Ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda Ishtixan shahrining tarixiy topogarfiya va lokalizatsiya masallari..... 119

FAN TARIXI

Maxmudxon Yunusov
V. Vyatkinning Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasidagi arxeologik kolleksiyalari..... 137

BIZNING YUBILYARLAR

Abdurazzoqov Abdugani Abdurazzoqovich..... 148
Ilhomov Sharif Ilhomovich..... 150
Reutova Marina Arkadyevna..... 152
Ahadova Gulnora Radjabovna..... 154

СОДЕРЖАНИЕ

СТАТЬИ

Амриддин Бердимуродов, Алишер Сандибоев, Навруз Алимов
Ювелирные изделия и украшения центрального Согда раннего средневековья (по материалам Кафиркалы)……6

Бабаяров Гайбулла, Шатохин Антон
Доисламское монеты Ферганской долины с титулом “Жабгу Тюрк-Каган”……22

Филанович Маргарита, Грицина Алексей
Новые данные археологии к средневековой истории Ташкента……44

Богомолов Геннадий
О новых сюжетах на оссуариях из южного Согда……54

Мусакаева Альфия
О весовых системах Согда и Чача периода античности и раннего средневековья……72

Рашидов Ниёз, Буллион Элисса, Муродалиев Рахмонали, Фрачетти Майкл, Максудов Фарход
Палеопатология кариеса в антропологических материалах памятников Сонгак и Ташбулак……85

Реутова Марина, Саидов Муминхон, Шаронов Иосиф, Авазгелдиев Бекзод
Об рентгенофлуоресцентном анализе фрагментов росписи из средневековой бани, найденной в Самарканде……100

Сандибоев Алишер
Вопросы исторической топографии и локализации города Иштихон в раннем и развитом средневековье……119

ИСТОРИЯ НАУКИ

Махмудхон Юнусов
Археологические коллекции В. Вяткина в собрании Самаркандского государственного музея-заповедника……137

НАШИ ЮБИЛЯРЫ

Абдураззаков Абдугани Абдураззакович ……148
Шариф Илхамов Илхамович ……150
Реутова Марина Аркадьевна ……152
Ахадова Гулнора Раджабовна ……154

CONTENT

ARTICLES

Amriddin Berdimurodov, Alisher Sandiboyev, Navruz Alimov
Jewelry and ornaments of central Sogd in the early middle ages
(based on the materials from Kafirqala)……6

Babayarov Gaybulla, Shatokhin Anton
Pre-islamic coins of the Ferghana valley with the title
“Jabghu Türk-Qaghan”……22

Filanovich Margarita, Gritsina Alexey
New archaeological intelligence on the medieval history of Tashkent……44

Gennady Bogomolov
About new plots on ossuaries from southern Sogdiana……54

Alfiya Adilevna
On the weight systems of Sogda and Chacha in the antiquity and early
middle ages……72

**Rashidov Niyoz, Bullion Elissa, Murodaliyev Rakhmonali,
Frachetti Michael, Maksudov Farhod**
Caries paleopathology in the anthropological materials of the Songak and
Tashbulak monuments……85

Reutova Marina, Saidov Muminkhon, Sharonov Iosif, Avazgeldiev Bekzod
X-ray fluorescence analysis of fragments of paintings from
a medieval bath found in Samarkand……100

Sandiboev Alisher
Issues of historical topography and localization of the city of Ishtikhon
in the early and developed middle ages……119

HISTORY OF SCIENCE

Makhmudkhon Yunusov
Archaeological collections of V.Vyatkin in the collection of the
Samarkand state museum-reserve……137

ANNIVERSARY HONOREES

Abdurazzoqov Abdugani Abdurazzoqovich ……148
Ilhomov Sharif Ilhomovich ……150
Reutova Marina Arkadyevna ……152
Ahadova Gulnora Radjabovna ……154

MAQOLALAR

СТАТЬИ ARTICLES

ILK O‘RTA ASRLARDA MARKAZIY SUG‘D ZARGARLIK BUYUMLARI - TAQINCHOQLAR VA BEZAKLAR
(Kofirqal’a materiallari asosida)

© 2025. Berdimurodov Amriddin, Sandiboyev Alisher, Alimov Navro‘z
Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti

Kalit so‘zlar: Sug‘d, Kofirqal’a, zargarlik san’ati, metall buyumlar, qadamalar, pektoral, medalon, sirg‘a, uzuk, to‘g‘nog‘ich, bilaguzuk, toj bezaklari, ko‘zgu, qimmatbaho toshlar, kirtimukha, savdo-madaniy aloqalar, etnografiya, hunarmandchilik.

Maqolada ilk o‘rta asrlarda Markaziy Sug‘d hududida taraqqiy etgan zargarlik san’ati, ayniqsa, Samarqand yaqinida joylashgan Kofirqal’a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qayd etilgan topilmalar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot davomida oltin, kumush va bronzadan ishlangan zargarlik buyumlari — qadamalar (podveskalar), medalonlar, sirg‘alar, uzuklar, bilaguzuklar, to‘g‘nog‘ichlar, toj bezaklari, ko‘zgular va qo‘ng‘iroqlar tahlil qilinib, ulardan nafaqat ziynat buyumi, balki himoyaviy, ramziy va marosimiy maqsadda ham foydalanilgani borasida xulosalar qilingan. Shu bilan birga, maqolada Markaziy Sug‘d hunarmandlarining metallga ishlov berish borasidagi yuksak mahorat darajasi, ularning savdo, madaniy aloqalar va diniy qarashlari bilan bog‘liq san’at namunalari orqali ifodalangan. Kofirqal’a yodgorligida aniqlangan zeb-ziynat buyumlari VII - VIII asrlar Markaziy Sug‘d zargarlik san’atini, shuningdek uning qo‘shni hududlar bilan savdo-iqtisodiy va ma’daniy aloqalarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Oltin-kumush taqinchoqlar hunarmandchilikning iqtisodda muhim o‘rin tutganligini ko‘rish bilan birga, Sug‘d hududi o‘rta asrlarda qo‘shni Baqtriya, Vizantiya, Eron, va Hindiston bilan faol madaniy, savdo-iqtisodiy aloqada bo‘lganligi borasida muhim ma’lumotlar beradi.

ЮВЕЛИРНЫЕ ИЗДЕЛИЯ И УКРАШЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОГО СОГДА РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ
(по материалам Кафиркалы)

© 2025. Бердимуродов Амриддин, Сандибоев Алишер, Алимов Навруз
Самаркандский институт археологии имени Я. Гулямова


Ключевые слова: Согд, Кафикала, ювелирное искусство, металлические изделия, бляшки, пектораль, медальон, серьга, перстень, фибула, браслет, украшения для короны, зеркало, драгоценные камни, киртимукха, торгово-культурные связи, этнография, ремесло.

В статье на основе артефактов, зафиксированных в результате археологических исследований, проведенных на памятнике Кафиркала, расположенном близ Самарканда, проанализировано ювелирное искусство, получившее развитие на территории Центрального Согда в раннем средневековье. В ходе исследования были изучены ювелирные изделия из золота, серебра и бронзы — подвески (кадама), медальоны, серьги, кольца, браслеты, застежки (пряжки), украшения для венцов (короны), зеркала и бубенчики. На основании их анализа сделаны выводы о том, что они использовались не только как предметы украшения, но также имели защитную (апотропеическую), символическую и ритуальную функции. Наряду с этим, в статье, через образцы искусства, связанные с торговыми, культурными связями и религиозными воззрениями, отражен высокий уровень мастерства ремесленников Центрального Согда в обработке металла.

Kirish. Ilk o‘rta asrlarda Sug‘dda savdo-sotiq, musiqa madaniyati, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. Ayniqsa, Sug‘d hunarmandchilikning kulolchilik, temirchilik, zargarlik, to‘qimachilik kabi yo‘nalishlari yetakchi sohalardan biri bo‘lib, ular nafaqat mahalliy bozorlarga, balki Ipak yo‘li orqali xorijga ham eksport qilingan. So‘ngi yillarda Sug‘d shaharlarida jumladan, Samarqand yaqinida joylashgan Kofirqal’a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida hunarmandchilikning zargarlik san’ati yo‘nalishi borasida muhim ma’lumotlar qo‘lga kiritilgan.

Samarqand hukmdorlarning shahar tashqarisidagi qarorgohi bo‘lgan Kofirqal’a (Rivdad) yodgorligi ko‘hna Afrosiyobdan 18 km janubda, Darg‘om kanalining chap sohilida joylashgan (Бердимуродов, Индиаминова 2017: 93; Богомолов, Бердимуродов и др. 2024: 63). Yodgorlik ilk o‘rta asrlar davri shaharlariga hos bo‘lgan ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat (Бердимуродов и др. 2007: 73-75; Сандибоев 2021: 22). Yodgorlikning ark qismidagi 15-xonadan oltin va kumushdan yasalgan qimmatbaho zargarlik buyumlari topib o‘rganildi. Ushbu xona ark shimolida joylashgan bo‘lib, tarhi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, g‘arbdan sharqqa qarab cho‘zilgan, o‘lchami 6,35x4,75 m. Xonaga kirish eshigining o‘rni janub tomonda qayd etilib, eni 2,1 m. Xonaning shimoliy devori bo‘ylab uch pog‘onali «T» harfisimon shaklidagi taxt supa joylashgan. Xona ichidan Sug‘d san’atining noyob namunalaridan biri bo‘lgan yog‘och panno bilan birga oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar qayd etilgan (Бердимуродов и др. 2018: 5-7) (1-rasm).

Muhokama. Kofirla’aning oltindan yasalgan qadama(podveska)larini yasalishiga qarab ikki tipga ajratish mumkin. Bunda birinchi tipga oid bo‘lgan uch yaproqli qadama(podveska)ning ikki yuqori yaprog‘iga oltin simdan yasalgan halqalar payvandlangan (halqalar diametri 3 mm, qalinligi 1 mm). Mazkur qadama(podveska)ning o‘lchami 3,2x3,3 sm, qalinligi esa 1 mm.ga teng. Qadama(podveska) markazida diametri 2 mm bo‘lgan oval shaklidagi “chuqurcha” ichida



1-rasm. 15-16- xonada topilgan taqinchoqlar (Kofirqal’a)
Рис. 1. Украшения, найденные в комнатах 15–16 (Кафиркала)
Fig. 1. Ornaments found in rooms 15–16 (Kafir-kala)



2.1-rasm. Oltindan yasalgan yuraksimon shaklli qadama
Рис. 2.1. Золотая подвеска в форме сердца
Fig. 2.1. Gold applique in the shape of a heart



2.2-rasm. Oltindan yasalgan bodom bargisimon shaklli qadama
Рис. 2.2. Золотая подвеска в форме миндального листа
Fig. 2.2. Gold applique in the shape of an almond leaf



2.3-rasm. Oltindan yasalgan doira shaklli taqinchoq
Рис. 2.3. Золотое украшение в форме круга
Fig. 2.3. Gold circular ornament

shaffof yoqut rangidagi almadin toshi joylashgan. Oval shaklidagi silliqlangan almadin toshining o‘lchami 0,8x0,5 sm, qalinligi 2 mm (2,1-rasm). Ma’lumki, qadama(podveska)lar zeb ziynat buyumlari bilan birga ulardan tumor sifatida ham foydalanilgan. Ular qimmatbaho metallardan jumladan, kumush va oltindan tayyorlanib, murakkab va nozik naqshlar bilan bezatilgan (Торгоев и др. 2023: 65). Kofirqal’aning oltindan yasalgan qadama(podveska)lariga o‘xshash taqinchoqlar Baqtriyaning Rabot (Vang Jianxin, Berdimurodov 2020: 70) va Sug‘dning Panjikent yodgorligida (Распопова 1999: рис. 31,1) qayd etilgan.

Bodom bargini eslatuvchi ikkinchi tipga oid bo‘lgan qadama(podveska) yupqa qilib oltindan yasalgan, o‘lchami 2,2x1,5 sm. Uning yuqori qismida osib qo‘yish uchun mo‘ljallangan oval shaklda halqa joylashgan (2,2-rasm). Shuningdek, 15/16 xona polidan o‘lchami kichik bo‘lgan oltin falga bo‘laklari (o‘lchamlari 0,3-0.5 dan 1,5-2 sm, qalinligi 1 mm) ham qayd etilib, ular taqinchoqning qismlari bo‘lganligi ehtimoldan xoli emas.


Kofirqal’ada oltindan yasalgan yumaloq shakldagi kichik hajmdagi taqinchoq ham qayd etilib, uning diametri 1,2 sm, qalinligi esa 1 mm. Yumaloq doiraning bir tomoniga oltin sim kavsharlash natijasida halqa xosil qilingan. Halqaning balandligi 0,4 sm. Ushbu halqaga oltindan yasalgan sim tutashgan bo‘lib, uning uzunligi 0,8 sm (2,3-rasm). Bu turdagi topilma Tojikistonning Xalkajar yodgorligida qayd etilib, u oltindan yasalgan daraxt shoxi va unga mustahkamlangan barglardan iborat. Tillatepa yodgorligidan oltindan yasalgan taqinchoqning yuqori markazida odam, uning

ikki tomonida ajdar tasviri, ularning pastki qismi esa oltin doirachalar bilan bezatilgan taqinchoq topilgan. Shuningdek, yodgorlikdan topilgan oltindan yasalgan toj atrofidagi doirachalar bilan bezatilgan bezaklar Kofirqal’a topilmasiga o‘xshashdir (Сарианиди 1989: 59). Rabot yodgorligida qayd etilgan oltindan yasalgan taqinchoq yuqoridagi taqinchoqlardan farq qilib, unda to‘qqiz bargli gul markazidan o‘tuvchi oltin sim yordamida yuraksimon shakldagi ikki dona yaproq biriktirilgan (Vang Jianxin, Berdimurodov 2020: 70). Kofirqal’aning doira shakldagi oltindan yasalgan taqinchog‘i ehtimol toj yoki tillaqosh bezagi bo‘lib, ular antik va ilk o‘rta asrlarda Baqtriya va Sug‘dda keng tarqalgan.




3-rasm. Bronza sirg’a
Рис. 3. Бронзовая серьга
Fig. 3. Bronze earring
4-rasm. Bronza uzuk
Рис. 4. Бронзовое кольцо
Fig. 4. Bronze ring

Sirg‘a quloqqa taqiladigan taqinchoq bo‘lib, etnografik ma’lumotlarga qaraganda Farg‘ona vodiysida uning kokilli turini isirg‘a, kokilsiz turini boldoq deb atashadi (Иброҳимов 1959: 276). Kofirqal’a yodgorligida sirg‘alarning kumush va bronzadan ishlangan turlari qayd etilgan. Sirg‘a ovalsimon shaklda, diametri 2,1 sm, qalinligi 0.2 sm ga teng. Uning pastki qismida kichik halqa mavjud. Bu halqacha sirg‘aning kokil qismini ilish uchun xizmat qilgan. Yuqori qismida kichik shoxchaga o‘xshash qism bo‘rtib chiqqan bo‘lib, bu shoxchaga marjon shodasi kiydirilgan (3-rasm). Bunga o‘xshash sirg‘alar Panjikent yodgorligining VIII asr qatlamlarida (Распопова 1980: рис. 75, 1-4), shuningdek, Yettisuv va Farg‘ona vodiysining Oq-Beshim ((Кызласов 1958: рис. 6), Qorabuloq (Брыкина 1974: рис. 62, 6, 7), Buxoro vohasining Poykand (Торгоев и др. 2023: рис. 88, 8) yodgorliklarida VII - IX asrlar bilan davrlashtirilgan.



5-rasm. Bronza to’g’nog’ich
Рис. 5 Бронзовая фибула
Fig. 5. Bronze fibula


Uzuk barmoqqa taqish uchun mo‘ljallangan metall (tilla, kumush, bronza, mis) dan tayyorlangan bezak ashyosi bo‘lib, Alisher Navoiy asarlarida uzuk va nigin so‘zlari bilan ifodalangan (Иброҳимов 1959: 371). Etnografik ma’lumotlarga qaraganda uzuklarning afg‘oncha uzuk, rumcha uzuk, ayriband uzuk, shaxonak, quyma uzuk, o‘rama uzuk, hoji uzuk, rajabi uzuk kabi turlarga bo‘linadi (Жабборов 2003: 46). Boylik ramzi hisoblangan uzuk bilan bog‘liq bo‘lgan urf odatlar Markaziy Osiyo xalqlari orasida ham keng tarqalgan bo‘lib, unda har bir xotin-qiz ko‘zli yoki ko‘zsiz uzuk taqishi farz bo‘lgan, busiz uning qo‘li nopok sanalgan va uzuksiz qo‘l bilan pishirilgan ovqati makruh, yuvgan kiri nopok hisoblangan (Абдуллаев 1986: 152). Erkakdagi uzuk esa uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini va moddiy ahvolini ko‘rsatgan (Турганов 2020: 64). Xitoyning “Szin-shu” solnomasiga ko‘ra[Ushbu solnoma Xitoyning Szin sulolasi (265-420-yillar) ga tegishli.] farg‘onaliklar urf-odati bo‘yicha kelin olishdan avval hamjihatlik ramzi sifatida kelinga uzuk yuborilgan (Литвинский 1973: 28, 29). O‘rta Osiyoda dastlabki bronza uzuklar “bronza davri” Sopolli madaniyati yodgorliklarida qayd etilgan (Каттаева 2023: 110). Ilk o‘rta asrlar Sug‘dda uzuklar oltin, kumush, bronzadan tayyorlanib, ularning muhrli uzuk, ko‘zli uzuk, ko‘zsiz uzuk kabi turlari uchraydi (Распопова 1980: 114). Kofirqal’a yodgorligidan bir dona bronzadan yasalgan uzuk qayd etilgan bo‘lib, bronzadan ishlangan, ovalsimon halqali, diametri 2,2 sm. Uzukning yuqori qismida



6.1-rasm. Bronza bilakuzuklar.
Рис. 6.1. Бронзовые браслеты
Fig. 6.1. Bronze bracelets



6.2-rasm. Bronza simli taqinchoq
6.2. Бронзовое украшение из проволки
Fig. 6.2. Bronze wire ornament



7-rasm. Bronza simli taqinchoq
Рис. 7. Бронзовое украшение из проволки
Fig. 7. Bronze wire ornament

saqlanib qolgan ko‘zxona aylana shaklda, diametri 0,4 sm. Uning ko‘zi (rangli tosh) saqlanib qolmagan (4-rasm). Bu toifadagi uzuklar Sug‘dning Afrosiyob (Ахунбабаев 1999: табл. XLII, 20), Panjikent (Распопова 1980: рис. 77, 3-9; Распопова 1999: 29, 17-22), Aultepa (Кабанов 1981: рис. 38, 1-2), Varaxsha (Торгоев и др. 2023: рис. 86, 87), Farg‘onaning Axsikent (Анарбоев 2013: рис. 148, 2, 3), Xorazm vohasining Jigarband (Вишневская 2001: рис. 41, 8, 9), Kuyuk-qal’a (Турганов 2020: 1,18-расм) yodgorliklarida uchraydi.

To‘g‘nog‘ich - bu sochga qadaladigan moslama bo‘lib, u sochlarni to‘g‘nab (birlashtirib, jamlab) turish uchun ishlatiladi. Odatda, to‘g‘nog‘ich metall, yog‘och va suyakdan tayyorlanadi va ayniqsa, xotin-qizlar soch turmaklarini mustahkamlash uchun ishlatadi. O‘rta Osiyoda bronza to‘g‘nog‘ichlarning bronza davri Togolok 21 va Sopolli madaniyatlari yodgorligida uchraydi (Сарианиди 1990: 236; Каттаева 2022: 72). Kofirqal’aning VII – VIII asr qatlamlaridan aniqlangan soch to‘g‘nog‘ichlar bronzadan yasalgan, ko‘rinishi mix shaklida, uzunligi 8 sm. To‘g‘nog‘ichning bosh tomonga qarab kengayib, uchi tomon ingichkalashib boradi. Uning bosh qismi kub shaklida bo‘lib, tomonlari bir xil, o‘lchami 0,7 sm ga teng (5-rasm). Bunday kub shaklidagi taqinchoqlar Surxondaryoning Rabod yodgorligida ham uchraydi (Vang Jianxin, Berdimurodov 2020: 45).

Qadimgi Sharq xalqlarida olti tomonli kub shakli barqarorlikning ramzi hisoblangan (Баешко 2007: 276). Shu bilan birga kub kvadrat shaklida ham ifodalanib dunyoning to‘rt tomonini ifodalaydi (Бидерманн 1996: 112).

Bilaguzuk – bu qo‘lga taqiladigan ziynat buyumi bo‘lib, ular turli materiallardan – oltin, kumush, shisha, mato va boshqalardan tayyorlanishi mumkin. Bilaguzuk qadimdan hozirgi kungacha xotin-qizlar (ba’zan erkaklar) tomonidan ziynat, maqom, madaniy yoki marosimiy maqsadlarda taqib kelinadi. Etnografik ma’lumotlarga qaraganda uning ilonboshli, qo‘chqorboshli, baqaboshli, tugmali, bodomcha (Жабборов 2003: 46, 47), tuzilishiga ko‘ra ochiq (uchlari ochiq qolib bir-biriga tutashmagan) va berk (yaxlit) kabi turlari mavjud. Kafirqal’a yodgorligining VIII asr qatlamlarida qayd etilgan bilak uzuklar bronzadan ishlangan bo‘lib, ularni quyidagi tiplarga ajratish mumkin.

Birinchi tipdagi bronzadan yasalgan bilakuzuk halqa shaklida bo‘lib, uchlari to‘mtoq, diametri 7,6x5,7 sm, tanasining qalinligi 0,4x0,5 sm (6,1-rasm). Bu turdagi bilaguzuklar O‘rta Osiyoda bronza davrida keng tarqalgan (Рузанов 2013: рис. 128, 1, 2). Shuningdek, bilaguzuklar

Markaziy Sug‘dning Panjikent (Распопова 1980: рис. 74, 9, 10; Распопова 1999: 4-7, 13), Jartepa ibodatxonasi (Бердимуродов, Самибоев 1999: рис. 89, 1), Qoratepa (Манылов 1984: 20), Yuqori Zarafshon vodiysining Gardoni Hisor (Якубов 1979: рис. 47, 1) yodgorliklarining ilk o‘rta asrlar qatlamlarida uchraydi.


Ikkinchi tipdagi bilakuzuk ham bronzadan yasalgan, faqat uning tanasi burama (spiralsimon) shaklda, to‘liq saqlanmagan, qalinligi 0,5 sm. ga teng (6,2-rasm). Burama shakldagi bilaguzuklar O‘rta Osiyoda bronza davridan boshlab qayd etilgan (Асқаров 1973: 97). Shuningdek, burma shaklli bilakuzuklar Markaziy Sug‘dning Afrosiyob (Ахунбабаев 1999: табл. XLIII, 14), Panjikent (Распопова 1999: рис. 28, 14), Farg‘ona vodiysining Qorabuloq (Брыкина 1974: рис. 62, 9) yodgorliklarining VII – VIII asr qatlamlarida; Buxoro vohasi Poykend (Торгоев и др.2023: рис. 88, 2-6) yodgorligining X – XI asr qatlamlarida uchraydi.

Shu bilan birga ko‘krak qismida taqiladigan bronza simdan yasalgan bezakli taqinchoq ham qayd etilib, uning bir tomonida aylana halqa hosil qilingan, qarama-qarshi tomoniga esa uzum novdasi kokilasini eslatuvchi spiralsimon naqshlar yasalgan (7-rasm). Bu turdagi topilma Panjikent yodgorligining VIII asr qatlamida uchraydi. Tadqiqotchilar ulardan ko‘krak bezagi sifatida foydalanganligini qayd etadi (Распопова 1999: 30; Распопова 1980: рис. 87; Распопова 1999: рис. 32, 1, 2).



8.1-rasm. Kumush piktoral
Рис. 8.1. Серебряный пекторaль
Fig. 8.1. Silver pectoral

Kofirqal’ada kumushdan yasalgan ko‘krakka taqiladigan pektoral [Pektoral — pektus, lotincha “ko‘krak”] taqinchog‘i ham qayd etilib, u alohida payvandlangan plastinalardan tashkil topgan (7-rasm). Pektoralning umumiy uzunligi 15,8 sm, kengligi 2,7-3,6 sm, qalinligi 0,3-0,4 sm. Taqinchoq 5 ta to‘rtburchak shakldagi va 2 ta trapesiya shaklidagi plastinalardan iborat bo‘lib, ular bir-biriga payvandlangan va yarim doira hosil qilgan. Old yuzasi markazida yupqa lenta payvandlangan (to‘g‘ri simli kumush lenta, u tik holda o‘rnatilgan) va katta aylana qolip hosil qilingan, uning diametri 3,6 sm. Ehtimol u qimmatbaho tosh turushi uchun mo‘ljallangan. Markaziy elementning o‘ng tomoniga joylashgan plastinalarda shunday lentadan egilgan, markazdan biroz chetga burilgan shox (gul, yoki o‘simlik shoxiga o‘xshash) hosil qilingan. Uning atrofida uch dona lentadan qilingan qoliplar joylashgan. Ehtimol, bu qoliplar kichik shaklli barglar tasvirini berib, rangli qimmatbaho toshlar uchun joy bo‘lgan. Bu plastinaga uch dona ko‘rishidan shar shaklini eslatuvchi bo‘rtma element tushirilgan. Uning o‘ng tomoniga yana bir plastina qo‘shilgan bo‘lib, unda bir-biriga vertikal tarzda joylashgan uchta ovalsimon



8.2-rasm. Sosoniylar piktorali (Muhammad Rizo muzeyi, Eron)
Рис. 8.2. Сасанидский пекторaль (Музей Мухаммада Ризы, Иран)
Fig. 8.2. Sasanian pectoral (Muhammad Riza Museum, Iran)

shakldagi qoliplar joylashtirilgan. Qoliplar tashqi tomondan to‘rtburchak hoshiyaga olingan. Qoliplarga rangli toshlar o‘rnatilgan. Toshlardan bir donasi saqlanib qolgan bo‘lib, u yoqut rangli ovalsimon tosh (almadin?) ekanligi ma’lum bo‘ldi. Keyingi plastina ham to‘rtburchak shaklida bo‘lib, gorizontal ravishda cho‘zilgan. Yuzasi yettita uzun chiziq shaklidagi valiklar va kanalchilar bilan bezatilgan. Bezakning chap tomoni yaxshi saqlanmagan, lekin uning bezaklari to‘liq o‘ng tomonga mos kelgan. Plastinaning o‘ng chetida xuddi oldingi plastinadagi kabi uch dona sharsimon element bir-biriga vertikal tarzda o‘rnatilgan. Pektoral markazidan chap tomoni ham o‘ng tomoni bilan bir xil qilib bezatilgan. Pektoralning yuqori va pastki chetlari hamda uning orqa tomoni uzun ingichka kumush lentalar bilan mustahkamlangan. Pektoralning old tomoniga to‘liq oltin suvi yugurtirilgan.

Pektorallar Qadimgi Misrda Yangi podshohlik davridan ma’lum bo‘lib, bu taqinchoqdan misrliklar hayotlari davomida foydalanmasdan faqat vafot etganda egasining qabriga birgalikda qo‘yish maqsadida yasalgan. Ushbu taqinchoqda xudolar tasviri va muqaddas matnlarni joylashtirish uchun bo‘sh joy mavjud bo‘lgan (Савельева 2022: 94). Sarmatlarda esa zodagon erkaklarining peshonasiga oltin bilan bezatilgan bog‘ichlar (peshonabog‘), oltin pektorallar va uzun uchli etiklari bo‘lgan (Яценко 2006: 163). Sosoniylar hukmronligi davrida shohning vakili rasmiy qabullar vaqtida marvarid va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan quyma oltin kamar, quloqlariga sirg‘a taqishi va yelkalariga sumkalarni ilishi bilan birga maxsus oltin yasalgan pektorallarni ham taqishi kerak bo‘lgan (Егише 1971: 122–124; Яценко 2006: 163). Kofirqal’a pektorali Eron sosoniylari davriga oid bo‘lgan pektoralga o‘xshash bo‘lib, bu pektorallar birining markazida odam (ehtimol shoh) tasviri, uning ikki yonidagi aylana ichida sher tasviri tushirilgan. Ikkinchi piktoralning markazida yirik aylana qimmatbaho tosh joylashtirilgan. Markazdagi yirik toshga uyg‘un ravishda, yuqori va pastida ikki donadan ovalsimon tosh o‘rnatilgan. Markazning o‘ng tomonida to‘rtta va chap tomonida to‘rtta tomchi ko‘rinishidagi kichik toshlar vertikal tarzda joylashtirilgan (8,2-rasm). Kofirqal’a pektoraliga e’tibor beradigan bo‘lsak, uning o‘ng tomonida kichik qolip ichida bir dona ovalsimon tosh (almadin?) saqlanib qolgan va yana beshta shunday ovalsimon qolip mavjud. Qoliplar, unda saqlanib qolgan bir dona tosh, yuqoridagi sosoniylarning ikkinchi pektoralidan kelib chiqib xulosa qilinsa, ehtimol, Kofirqal’a piktoralining old tomoni to‘liq rangli (almadin?) toshlar bilan bezatilgan. Umuman pektoral asilzoda va amaldorlar



9.1-rasm. Kumush medalyon
Рис. 9.1. Серебряный медальон
Fig. 9.1. Silver medallion

taqadigan taqinchoq bo‘lib, bizning fikrimizcha, Kofirqal’a pektoralidan zodagon yoki amaldorlar shoh qabuli paytida foydalangan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.


Kofirqal’a medaloni (kirtimukha boshi tasvirli) doira shaklda bo‘lib, diametri 4,7 sm. Uning yuziga bo‘rtma tarzda afsonaviy mavjudotning tasviri tushurilgan (9-rasm). Diskning chetlari to‘g‘ri burchak ostida bukilgan va qirra hosil qilingan. Disk chetining ikki yon tomoniga bir-biriga qarama-qarshi tarzda ikki kichik halqa payvandlangan. O‘lchami 0,4x0,3 sm. Ehtimol, ushbu halqalar medalonni biror asosga mustahkamlashga xizmat qilgan. Old yuzasi to‘liq mifologik mavjudot boshining tasviri tushirilgan. Uning yuzi aylana, katta, keng, peshonasi kichik va yung bilan qoplangan. Burni keng, burun teshiklari katta, burnining usti ikki qovoq orasida aylana shakldagi belgi bor (hindlarning peshonaga suradigan sinduri kabi). Qovoqlari uyilgan va yirik, ko‘zning bir qismini yopib qolgan. Ko‘zlari aylana shaklda va jahldor ko‘rsatish uchun katta-katta tasvirlangan. Yuzning ikki chetida ko‘zlarga parallel ravishda quloqlar tasvirlangan. Og‘zi ikki chakkasiga tomon cho‘zilgan xudiki tabassumga moyildek. Pastki jag‘dan ikki dona o‘tkir qoziq tish chiqqan holatda tasvirlangan. Yuqoridagi labning tepasida ikki yonga gorizontal yo‘nalgan to‘lqinsimon chiziqlar mavjud bo‘lib, ehtimol mo‘ylov tasvirlangan. Tilining uch qismi chiqib, pastki labiga tekkizilgan. Og‘izdan pastda bo‘yinga to‘g‘ri keladigan qismda vertikal yo‘nalgan chiziqlar mavjud, u ko‘rinishidan sherning bo‘ynidagi yunglarni eslatadi. Diskning old yuzasiga to‘liq oltin suvi yugurtirilgan. Bunga o‘xshash medalon taqqan personajlar haykaltaroshlik namunalarida uchraydi. Xususan Qorashar vohasida loydan ishlangan sug‘diy jangchi haykalchalarining ko‘krak qismida aylana shaklli, (ehtimol odam surati tushirilgan) medalon tasvirlangan (Олъденбург 1914: рис. 60; Дъяканов 1954; рис. 28). Bundan tashqari Panjikentning 47-ob’ektidan ikki dona yog‘ochdan ishlangan raqqosa ayollarning ko‘kraklarida aylana shakldagi, relefli taqinchoq tasviri mavjud bo‘lib, unda hayvon (sher?) tasviri mavjud (Беленицкий 1959: 80). Shuningdek, kiyimni bezash uchun oltindan ishlangan medalon Qrimdagi Skiflar Neapoli yodgorligidan ham topilgan va u mil.avv. II va milodiy asr boshlari bilan davrlashtirilgan (Шульц 1953: 74). Panjikentdan ham Kofirqal’a topilmasiga o‘xshash medalon aniqlangan bo‘lib, u aylana shaklda, relefli qilib kirtimukha tasviri tushirilgan. Kumushdan ishlangan medalonning old tomoniga oltin suvi yugurtirilgan. A. M. Beleniskiy, I. B. Bentovich, O. G. Bolshakovlarning qayd etishicha, mazkur medalondan haykallarni bezashda foydalanilgan (Беленицкий и др. 1973: 84). V.I. Raspopova esa uni kumush idishning markaziy bezagi sifatida foydalanilganligini zikr etgan (Распопова 1980: 122).

Umuman, medalondagi tasvirning kelib chiqishi va talqini borasida olimlar o‘rtasida yakdil fikr mavjud emas. Jumladan, Y.A. Monchadskaya fikriga ko‘ra, jin yuzli tasviring eng qadimgi shakli Amudaryo xazinasida uchraydi va ular inson va oila homiysi bo‘lgan Misr xudosining timsoli bo‘lib, antik davrda keng tarqalgan (Мончадская 1960: 127). Ushbu tasvirlar VI-XI asrlarda Sug‘d, Choch Farg‘ona vodiysida ham keng tarqalgan (Богомолов 2019: 158). Sug‘dliklar xudolar va jinlarning ko‘rinishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishmaganligi bois ham boshqa mintaqalarda allaqachon mavjud bo‘lgan tasvirlarni savdo va madaniy aloqalar natijasida o‘zlashtirganligi borasidagi qarashlar mavjud (Маршак 1971: 58-59). Ba’zi tadqiqotchilar ularni Hindiston san’ati va diniy qarashlari bilan bog‘lab, uni Kirtimukha deb tariflaydi (Мончадская 1960:125). Kirtimukha tasviri shivaizm va vishnuizmda sher boshli iblis ko‘rinishida tasvirlangan. Ularning e’tiqodicha kirtimukha tartibni himoya qiluvchi va qo‘riqchi sifatida xizmat qilgan (Тюляев 1988: 308). Sug‘d san’atiga Hindistonning tasiri buddizm va shivaizm bilan bog‘liq bo‘lib, kirtimukha tasviri shivaizm bilan kirib kelganligi ehtimoldan holi emas (Маршак 1999: 180-181).


G.A. Pugachenkova va L.I. Rempelning fikriga ko‘ra, yunon obrazlari O‘rta Osiyo hududida keng tarqalganligini qayd etib, silenlarning obrazi mahalliy xudolarning ma’lum bir xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan va rivojlanishning qaysidir bosqichlarida Kirtimukha obraziga



9.2-rasm. Kumush kosa (Ermetaj muzeyi, Rossiya)
Рис. 9.2. Серебряная чаша (Эрмитаж, Россия)
Fig. 9.2. Silver bowl (Hermitage Museum, Russia)



10.1-rasm. Bronza ko’zgu
Рис. 10.1. Бронзовое зеркало
Fig. 10.1. Bronze mirror



10.2-rasm. Bronza ko’zgu
Рис. 10.2. Бронзовое зеркало
Fig. 10.2. Bronze mirror

birlashgan (Пугаченкова, Рempель 1965: 159). G.I. Bogomolov ham Panjikent ibodatxonasidan topilgan haykalcha Kirtimukha emas balki yunon xudosi Dionis bilan hamroh bo‘lib yurgan hayvon (pantera, yoki sher) bo‘lishi mumkinligini zikr etgan (Богомолов 2019: 158). Shuningdek, Davlat Ermitaji muzeyida saqlanayotgan kumush kosaning chetiga sug‘d yozuvida “ushbu kosa Xun o‘g‘li Narakka tegishli” degan yozuv mavjud bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan kosa Sug‘d yoki Toharistonda yasalgan degan qarashlar bor (Schulz 2016: 122). Kosa markazida Kirtimukha uning atrofida aydana bo‘ylab joylashgan tasvirlar orasida yunon hudosi Geraklni ko‘rish mumkin. Ya’ni, Kirtimukha yunon xudosi Gerakl bilan birga tasvirlangan. Markazda joylashgan Kirtimukha tasviri Kofirqal’a topilmasiga o‘hshash bo‘lib, aylana shakldagi boshi, badjahl ko‘zlari, burni, quloqlari mavjud (9.2-rasm). Afrosiyob devoriy suratlari g‘arbiy elchilarni kutib olish sahnasida shunday tasvirli «qalqonlar» mavjud (Альбаум 1975: 74-75, рис. 22). Umuman Kirtimukhaning turli xil ko‘rinishdagi tasviri O‘rta Osiyoda keng tarqalgan bo‘lib, ular devoriy suratlarda, ossuariylar, sopol idishlar, qurilish dekorlari va taqinchoqlar yuzida saqlanib qolgan. Bu tasvirlar hind, yunon va mahalliy aholi diniy dunyoqarashlarning uyg‘unlashuvi natijasida paydo bo‘lgan. Kirtimukha tasviri din, va diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lib, ehtimol kirtimukha tasvirli buyum (taqinchoq, sopol, yoki metall idish va shunga o‘xshash narsalar) o‘z egasini turli balo-qazolardan, yovuz ruhlarda asraydi deb ishonilgan.


Bronza ko‘zgular ilk o‘rta asrlarda O‘rta Osiyo, xususan Sug‘d hududida keng tarqalgan bo‘lib, ulardan asosan pardoz-andoz buyumi sifatida keng foydalanib kelishgan. Kofirqal’a yodgorligidan ham ikki dona bronza ko‘zgu qayd etilib, ularning yuzi silliq qilib yasalgan, qo‘shimcha bezaklarsiz ishlangan. Bunda birinchi ko‘zgu bo‘lagining diametri 7,6 sm, qalinligi 1,5-2 mm. (10,1-rasm). Ikkinchi ko‘zgu bo‘lagi ham yumaloq shaklda dastali qilib yasalgan, aylanasi 4,5 sm. Tutqichining saqlanib qolgan uzunligi 1,5 sm, qalinligi 0,2 sm.ga teng (10,2-rasm). Naqshsiz bronza ko‘zgular Sopollitepa yodgorligida qayd etilgan (Асқаров: 1973). Shuningdek, bu toifadagi ko‘zgular Markaziy Sug‘dning Panjikent yodgorligi va Jartepa ibodatxonasining VII – VIII asrlar qatlamlarida hamda Xorazm vohasining Kuyukqal’a nekropolida VI – VIII asrlar, Jigarband yodgorligida esa XI asr bilan davrlashtirilgan (Распопова 1999: рис. 36, 37, 38; Беленицкий и др. 1973: рис. 53; Бердимурадов, Самибоев 1999: рис. 87, 5, 6; Турганов 2024: 58).

Kofirqaladan bir dona bronzadan yasalgan ko‘zgu tutqichi qayd etilgan bo‘lib, uning old qismiga relefli tarzda tasvir tushirilgan, orqa tomoni tekis qilib ishlangan (11,1-rasm). Saqlanib

qolgan uzunligi 6,3 sm, qalinligi 0,3-0,5 sm, eni 0,8-2,4 sm. Ko‘zgu dastasining old tomoniga bo‘rtma tarzda ayol kishining tasviri tushirilgan bo‘lib, uning ikki qo‘li qisman bukilgan va boshidan yuqoriga ko‘tarilgan holatda, qo‘l uchi yarim oy shaklda tasvirlanib, unda naqshlar bilan bezatilgan qandaydir buyum (ehtimol gulchanbar)ni ushlab turibdi. Gulchambar personajdan yuqorida joylashgan. Gulchambarning yuqori qismi singan, ehtimol shu yerda ko‘zgu joylashgan bo‘lgan. Personaj ovalsimon yuzli, bodomsimon ko‘zli, uning burni va og‘zilari tasvirlangan. Boshida ikki shohni eslatuvchi to‘lqinsimon burmali bosh kiyim kiygan holda tasvirlangan. Bosh kiyimning markazida vertikal yo‘nalishda ovalsimon qolip joylashgan bo‘lib, ehtimol bu yerda rangdor tosh mavjud bo‘lgan. Ko‘krak va qorin qismlari bo‘rtma tarzda ishlangan. Oyoqning tizzadan pastki qismi saqlanmagan. Oyna qadimda suvning timsoli bo‘lib, Markaziy Osiyoning ibodatxona, mozor qo‘rg‘onlarida topib o‘rganilgan. Hatto qo‘llarida oyna ushlab turgan iloha tasviri tushirilgan terrakota haykallar ham uchraydi (Сулеймонов, 2004: 266-267). Jumladan, oyna ko‘targan ayol tasviri tushurilgan haykalchalar mil. avv. III-II asrlarda Gaurqal’ada yodgorligida, milodiy II-III asrlarda Afrosiyobda, III-IV asrlarda Yerqo‘rg‘onda uchraydi (Schmidt 1908: 55; Хазанов 1964: 93; Сулейманов 2000: рис.151, 2). Janubiy Tojikistonning Saksonoxur



11.1-rasm. Bronza ko’zgu dastasi
Рис. 11.1. Ручка бронзового зеркала
Fig. 11.1. Handle of a bronze mirror



11.2-rasm. Bronza ko’zgu (Masjidi Sulaymon, Eron)
Рис. 11.2. Бронзовое зеркало (Масджид-и Сулайман, Иран)
Fig. 11.2. Bronze mirror (Masjid-i Sulayman, Iran)



12-rasm. Oy shaklli toj taqinchog’i
Рис. 12. Украшение для диадемы в форме луны
Fig. 12. Moon-shaped diadem ornament

yodgorligida ham qo‘lida oyna tutgan ayol haykalchalar topilgan (Мухитдинов 1973: 99). Ayol beldan pastga qarab kengayib boruvchi karnaysimon ko‘ylak kiygan holatda, belidan yuqori ko‘krak qismi yalang‘och, ikki qo‘li bilan oyna dastasini ushlab turgan holatda tasvirlangan. X. M. Muhitdinov oyna quyoshning ramzi ekanligi, O‘rta Osiyo xalqlari ko‘proq quyoshga sig‘inganligi va Saksonoxurdan topilgan haykalchalar Mitra bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladi. Mitrani esa erkak qiyofali xudo emas, balki androgin (erkak va ayol xususiyatlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan) xudoligini asoslashga harakat qilgan (Мухитдинов 1973: 106, 107).

Kofirqal’aning bronzadan yasalgan ko‘zgu dastasiga o‘xshash topilma Eronning Masjidi Sulaymon yodgorligida qayd etilib, unda ayol tasvirli haykalcha qo‘llarini baland ko‘tarib ko‘zgu ushlab turgani tasvirlangan (11,2-rasm). Masjidi Sulaymon ko‘zgusi kabi Kofirqal’a ko‘zgu dastasidagi ayol oyoqlarining pastki qismida uning tik qilib qo‘yish uchun tagdoni bo‘lganligi ehtimoldan holi emas. R. M. Girshmanning qayd etishicha bu tasvirlar ma’buda Anoxita va Mitraga bag‘ishlangan (Ghirshman 1976; Литвинский 1978: 111). Kofirqal’ada qayd etilgan oyna dastasidagi ayol ma’budasining kiyimlari (burmali yubkasi va bosh kiyimi) hind elementlari ko‘zga tashlanadi. Ehtimol bu tasvir Hindistondagi quyosh xudosi Surya bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Surya ham quyosh xudosi sifatida oynadan foydalangan (Литвинский 1978: 112). Farg‘ona vodiysi Chuntepa yodgorligidan bronzadan ishlangan boshida konussimon qalpoq kiygan tasvir tushurilgan oyna dastasi qayd etilgan bo‘lib, uning qo‘llari yelka darajasida ko‘tarilgan va qo‘lida gulchambar tutib turgan holatda tasvirlangan (Иванов 1991: 81). Gulchanbarning yuqori qismi saqlanmagan. G. I. Bogomolovning qayd etishicha ushbu persanaj buddizm bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (Богомолов 2019: 348). Ko‘zgu azaldan ayollar bilan bog‘liq bo‘lib, xosildorlik va unumdorlik ilohasi Anaxita hamda quyosh xudosi Mitra bilan uyg‘un holda talqin qilingan. U faqat ayollarning pardoz vositasi bo‘libgina qolmasdan, diniy ma’no va ramzlarga ham ega bo‘lgan. Ayniqsa, ibodat va turli diniy marosimlarda ko‘zgudan foydalanish keng tarqalgan.

Zamonaviy etnografik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘zbek va tojik xalqlari orasida nikoh marosimida kelin va kuyovning chimildiqda o‘z aksini ko‘zguda ko‘rishi shart hisoblangan. Xorazmda esa “oyna ko‘rish” deb ataluvchi udum mavjud bo‘lib, unda yangi turmush qurganlar nikoh kechasi birgalikda ko‘zguga qarashgan. Bu odatga ko‘ra, kelin va kuyov kelajak hayotlari ko‘zgudek yorug‘ va pok bo‘lishini niyat qilishgan (Турганов, 2024: 66). Shu bilan birga, ko‘zgu chimildiqni yovuz ruhlar va ins-jinslardan himoya qiladigan ashyo sifatida qaralgan. Eski tasavvurlarga ko‘ra, singan ko‘zgu baxtsizlik, hatto yaqin insonning vafotiga ishora deb hisoblangan. Ko‘zgu qadimdan ilohiy, sehrli va irim-sirimlarga boy ma’nolarni o‘z ichiga olgan ashyo hisoblangan.

Kofirqal’a arkining 13 xonasidan bronza plastinkadan yupqa qilib yasalgan yarim oy shaklidagi tojning old tomonini bezashda ishlatiladigan taqinchoq qayd etilgan. Yarim oylar o‘ng tomonda ikkita, chap tomonda esa bir dona saqlangan bo‘lib, plastinkaning diametri 9 sm, eni 1,4 sm, qalinligi 0,2 sm. Yarim oy markazida yetti qirrali yulduzni eslatuvchi plastin joylashgan. (12-rasm.). Ushbu bronza plastinkadan toj hamda peshona bezagi sifatida foydalangan. Kofirqal’a topilmasiga o‘xshash ammo yog‘ochdan yasalgan toj bezagi Kuhi Surxdan topilgan. Shuningdek, Toharistonning VI-VII asrlarga oid bo‘lgan devoriy suratlarida ayollar boshlarida yarim oy shakldida toj kiygan holatda tasvirlangan. Undan tashqari erkaklar ham sochlarini kalta turmaklab, boshlariga oy, yoki quyosh tasviri tushirilgan bezaklar taqib yurishgan (Майтдинова 2003: 208). Yarim oy bu yorug‘lik, nur, yangilanish, hukmronlik ramzi sifatida qabul qilingan. Yetti qirrali yulduz sharq xalqlarida qudrat, mukammallik ramzi hisoblangan. Shunga o‘xshash ko‘pqirrali yulduz shaklidagi bronza bezak Shimoliy Tojikistonning VI – VIII asr mozorqo‘rg‘onlarida ham qayd etilgan (Литвинский 1973: табл. 6, 1).

Xulosa. VII – VIII asrlarda Kofirqal’a yodgorligining metalldan ishlangan taqinchoq va bezaklarini o‘rganish va tadqiq etish jarayonida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, taqinchoqlar kumush, bronza hamda kumush ustiga oltin suvi yuritilib yasalgan hamda qimmatboho toshlar bilan bezatilgan. Bu esa Markaziy Sug‘d hunarmandlari metallga ishlov berishni yuksak san’at darajasiga ko‘tarishgan. Bu hududda ishlab chiqarilgan taqinchoq va bezaklar o‘zining nafisligi, jozibadorligi bilan alohida ajralib turgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Абдуллаев Т., Фахретдинова Д., Хакимов А. Песнь в металле. Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1986. 252 с.

Альбаум Л. И. Живопись Афрасиаба. Ташкент: ФАН, 1975. 160 с.

Анарбаев А. Ахсикет - столица древней Ферганы. Ташкент: TAFAKKUR, 2013. 536 с.

Аскаров А. Сапаллитепа. Ташкент: ФАН, 1973. 172 с.

Ахунбабаев Х. Г. Дворец ихшидов Согда на Афрасиабе. Самарканд: SARATON XAMAR, 1999. 179 с.

Баешко А. С., Гордиенко А. Н., Гордиенко А. Н. Энциклопедия символов. М.: ЭКСМО, 2007. 304 с.

Беленицкий Л. М. Скульптура и живопись древнего Пенджикента // Новые памятники искусства древнего Пенджикента: Опыт иконографического истолкования. М.: Академия наук СССР, 1959. 191 с.

Беленицкий А. М., Бентович И. Б., Большаков О. Г. Средневековый город Средней Азии. Л.: НАУКА, 1973. 393 с.

Бердимурадов А. Э., Самибоев М. К. Храм Джартепа. Тошкент: Издательство народного наследия имени Абдуллы Кадыри, 1999. 72 с.

Бердимуродов А. Э., Мантеллини С., Матбабаев Б. Х. Кафыркала загородная резиденция самаркандских правителей / Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития. Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летнему юбилею города Самарканда / Отв. ред. Т. Ш. Ширинов, Ш. Р. Пидаев. Ташкент–Самарканд: ФАН АН РУз., 2007. С. 17–19.

Бердимуродов А. Э., Индиаминова Ш. А. Буюк Ипак йўли: қитъалар ва асрлар оша. Самарқанд: O‘ZBEKISTON, 2017. 384 б.

Бердимуродов А. Э., Богомолов Г., Такао У. Кофирқалъа тилга кирмоқда // Фан ва турмуш. 1-2 сон. Тошкент, 2018. 3–5 б.

Бердимурадов А.Э., Богомолов Г.И., Сандибоев А Н. Археологическое изучение городища Кафыркала: отчет за 2023 год: Самарканд, 2024. // Архив Института археологии АН РУз. Ф.4, Оп. 1. Д. 356. 108 с.

Бидерманн Г. Энциклопедия символов. М.: РЕСПУБЛИКА, 1996. 335 с.

Богомолов Г. И. К вопросу о «киртимукхе» с Афрасиаба // История и археология Турана. № 4. Самарканд, 2019. С. 158–171.

Богомолов Г. И. Буддизм в истории Узбекистана // Религии Центральной Азии и Азербайджана. Том III. Буддизм. Самарканд: МИЦАИ, 2019. С. 240–351.

Брыкина Г. А. Карабулак. М.: НАУКА, 1974. 139 с.

Вишневская Н. Ю. Ремесленные изделия Джигербента (IV в. до н.э. - начало XIII в. н.э.). М.: ВОСТОЧНАЯ ЛИТЕРАТУРА, 2001. 175 с.

Дъяканов М. М. Росписи Пянджикента и живописъ Средней Азии // Живописъ древнево Пянжиканта. М.: Академия наук СССР, 1954. 83–158 с.

Егише О. Вардане и войне армянской / Перевод с древнеармянского акад. И. А. Орбели. Ереван: Издательство АН Армянской ССР, 1971. 192 с.

Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти (этнотарихий лавҳалар). Тошкент: “ЎҚИТУВЧИ”, 2003. 208 б.

Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. II-III жилд. Тошкент: ФАН, 1959. 456 б.

Иванов Г. П. Подвеска // Культура и искусство древнего Узбекистана. Каталог выставки. Книга 2. – М.: ВНЕШТОРГИЗДАТ, 1991. 220 с.

Кабанов С. К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. По материалам исследований в зоне Чимкурганского водохранилища. Ташкент: ФАН, 1981. 128 с.

Каттаева Г. Ч. Сополли маданиятининг заргарлик буюмлари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Термиз, 2022. 184 б.

Курбанов Ш. Ф., Дородных С. А., Шульц Р. Раскопки объекта XXVI в 2014 г. // Материалы Пенджикентской археологической экспедиции. Выпуск XVIII. / Под. редакцией П. Б. Лурье. Санкт-Петербург, 2015. 270 с.

Кызласов Л. Р. Остатки замки VI – VII вв. на городише Ак-Бешим // Советская археология. № 3. М.: Академия наук СССР, 1958. 152–161 с.

Литвинский Б. А. Украшения из могильников западной Ферганы. М.: НАУКА, 1973. 230 с.

Литвинскии Б. А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы (Археологические и этнографические материалы по истории культуры и религии Средней Азии). М.: НАУКА, 1978. 255 с.

Манылов Ю. П., Ростовцев О. М. Отчёт о проведенних археологичиских науно-исследовательских работ по зоне реконструкций канала Нарпай Пахтачийского района Самаркандской области // Научный архив ИА АН РУз. Ф.4. О.1. Д. 156. Самарканд, 1984. 75 с.

Маршак Б. И. Согдийское серебро. Очерки по восточной торевтике. М.: НАУКА, 1971. 191 с.

Маршак Б. И Согд V-VIII вв. Идеология по памятникам искусства // Археология. Средняя Азия в раннем средневековье. М.: НАУКА, 1999. С. 175–191.

Майтдинова Г. М. История таджикского костюма. Том 1. Душанбе: Издательско-Полиграфический Центр ООО НПЦ ОГРТ, 2003. 280 с.

Мончадская Е. А. Глиняный налеп с пенджикентского оссуария. (К вопросу об оберегах в Средней Азии) // Труды Академии наук Таджикской ССР. Т. CXX. Душанбе, 1960. 162 с.

Мухитдинов Х. М. Статуэтки женского божества с зеркалом из Саксонхура // Советская этнография. № 5. М.: НАУКА, 1973. 99–107 с.

Ольденбург С. Ф. Первая Русская Туркестанская экспедиция 1909-1910 гг. Санкт-Петербург, 1914. 88 с.

Пугаченкова Г. А. Коропластика Мерва // Труды ЮТАКЭ. Том. XI. Ашхабад: АН Туркменской ССР, 1962. 422 с.

Распопова В. И. Металлические изделия раннесредневекового Согда. Л.: НАУКА, 1980. 140 с.

Распопова В. И. Металлические изделия из Пенджикента. Санкт-Петербург: ФОРМИКА, 1999. 104 с.

Рузанов В. Д. Металлообработка на юге Средней Азии в эпоху бронзы. Самарканд, 2013. 347 с.

Сандибоев А. Н. Маймурғ илк ўрта асрларда. Тошкент: ZAMIN NASHR, 2021. 208 б.

Сариниди В. И. Древности страны Маргуш. Ашхабад: ЫЛЫМ, 1990. 316 с.

Сариниди В. И. Храм и некрополь Тиллятепе. М.: НАУКА, 1989. 240 с.

Савельева А. И. Погребальные пекторали эпохи нового царства и поздних периодов Россия. Исторический формат № 3–4. 2022. 93 с.

Сулейманов Р. Х. Древний Нахшеб. Проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н.э. – VII в. н.э. Самарканд–Ташкент: ФАН, 2000. 332 с.

Торгоев А. И., Мирзаахмедов Д. К., Курбанов Б. Г. Художественный металл Бухары и Бухарского оазиса VIII–XIV вв. Самарканд: МИЦАИ, 2023. 278 с.

Турганов Б. Қ. Хоразмнинг ўрта аср узуклари // Ўзбекистон археологияси. №1 (20). Самарқанд, 2020. Б. 63–72.

Турганов Б. Хоразмнинг ўрта аср бронза кўзгулари // Ўзбекистон археологияси. № 1. Самарқанд, 2024. Б. 57–68.

Тюляев С. И. Искусство Индии. III тыс. до н.э. – VII в. н.э. М.: ИСКУССТВО, 1988. 344 с.

Шульц П. Мавзолей Неаполя Скифского. М.: ИСКУССТВО, 1953. 124 с.

Хазанов А. М. Религиозно-магическое понимание зеркал у сарматов // Советская этнография. № 3. М.: НАУКА, 1964. С. 89–96.

Якубов Ю. Паргар в VII – VIII вв. н. э. Душанбе: ДОНИШ, 1979. 219 с.

Яценко С. А. Костюм древней Евразии (ираноязычные народы). М.: Восточная литература, 2006. 662 с.

Vang Jianxin, Berdimurodov A. O‘zbekiston va Xitoy hamkorligidagi arxeologik tadqiqot natijalarining ko‘rgazmasi. 2020. 83 b.

Ghirshman R. Terrasses sacrees Barde Nechandeh et Masjidi Solaiman. L›iran du Sud Ouest du VSh e s.av.n.ere au V e s.de n ere. Vol. I. Paris, 1976. 103 c.

Schulz Robert. The “Stroganov bowl” in the state hermitage a localized interpretation // Материалы Пенджикентской археологической экспедитсии. Вып. XX. Санкт-Петербург, 2016. С. 120–124.

Schmidt N. Archaeological excavations in Anau and Old Merv // Exploration in Turkestan, Expedition of 1904. Washington, 1908. P. 83–120.

REFERENCES:

Abdullaev, T., Fakhretdinova, D., Khakimov, A. 1986. Pesn’v metalle (Song in Metal). Tashkent: Gafur Guliam Literature and Art Publ., 252. (In Russian)

Al’baum, L. I. 1975. Zhivopis’ Afrasiaba (Painting of Afrasiab). Tashkent: FAN Publ., 160. (In Russian).

Anarbaev, A. 2013. Akhsyket – stolitsa drevney Fergany (Akhsiket – Capital of Ancient Ferghana). Tashkent: TAFAKKUR Publ., 536. (In Russian).

Askarov, A. A. 1973. Sapallitepe (Sapallitepe). Tashkent: FAN Publ., 172. (In Russian).

Akhunbabaev, H. G. 1999. Dvorets ikhshidov Sogda na Afrasiabe (The Palace of the Ikhshids of Sogdiana in Afrasiab). Samarkand: SARATON XAMAR Publ., 179. (In Russian).

Baeshko, A. S., Gordienko, A. N., Gordienko, A. N. 2007. Entsiklopediya simvolov (Encyclopedia of Symbols). Moscow: EKSMO Publ., 304. (In Russian).

Belenitsky, L. M. 1959. Skulptura i zhivopis’ drevnego Penzhikenta (Sculpture and Painting of Ancient Penjikent). In Novye pamiatniki iskusstva drevnego Penjikenta: Opyt ikonograficheskogo istolkovaniya. Moscow: Academy of Sciences of the USSR Publ., 191. (In Russian).

Belenitsky, A. M., Bentovich, I. B., Bolshakov, O. G. 1973. Srednevekovy gorod Sredney Azii (Medieval City of Central Asia). Leningrad: Nauka Publ., 393. (In Russian).

Berdimuradov, A. E., Samiboev, M. K. 1999. Kkhram Djartepa (Jartepa Temple). Tashkent: Abdulla Qadiri Heritage Publ., 72. (In Russian).

Berdimuradov, A. E., Mantellini, S., Matbabaev, B. Kh. 2007. In Shirinov, T. Sh., Pidaev, Sh. R. (eds.). Kafyrkala zagorodnaya rezidentsiya samarkandskikh praviteley (Kafyrkala: The Suburban Residence of Samarkand Rulers). In Rol’ goroda Samarkanda v istorii mirovogo kul’turnogo razvitiya. Materialy Mezhdunarodnogo nauchnogo simpoziuma, posvyashhennogo 2750-letnemu yubileyu goroda Samarkanda. Tashkent–Samarkand: FAN Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Publ., 17–19. (In Russian).

Berdimuradov, A. E., Indiaminova, Sh. A. 2017. Buyuk Ipak yo’li: qit’alar va asrlar osha (The Great Silk Road: Across Continents and Centuries). Samarkand: O’ZBEKISTON Publ., 384. (In Uzbek).

Berdimuradov, A. E., Bogomolov, G., Takao, U. 2018. Kofyrkala tilga kirmoqda (Kafyrkala Enters the Discourse). Fan va Turmush Publ., 3–5. (In Russian).

Berdimuradov, A. E., Bogomolov, G. I., Sandiboev, A. N. 2024. Arheologicheskoe izuchenie gorodishcha Kafyrkala: otchet za 2023 god (Archaeological Study of Kafyrkala Site: 2023 Report). Samarkand. Archive of the Institute of Archaeology of the Academy of Sciences of Uzbekistan, F.4, Op.1. D. 356. 108. (In Russian).

Biedermann, G. 1996. Entsiklopediya simvolov (Encyclopedia of Symbols). Moscow: Respublika Publ., 335. (In Russian).

Bogomolov, G. I. 2019. K voprosu o “kirtimukhe” s Afrasiaba (On the Question of “Kirtimukha” from Afrasiab). Istoriya i Arheologiya Turana. Vol. 4. 158–171. (In Russian)

Bogomolov, G. I. 2019. Buddizm v istorii Uzbekistana (Buddhism in the History of Uzbekistan). In Religii Tsentral’noy Azii i Azerbaydzhana. Vol. III. Buddizm. Samarkand: MICAI, 240–351. (In Russian).

Brykina, G. A. 1974. Karabulak (Karabulak). Moscow: Nauka Publ., 139. (In Russian)

Vishnevskaya, N. Yu. 2001. Remeslennye izdeliya Djigerbenta (IV v. do n. e.–nachalo XIII v. n. e.) (Craft Products of Djigerbent (4th century BCE – early 13th century CE). Moscow: Vostochnaya Literatura Publ., 175. (In Russian).

D’yakanov, M. M. 1954. Rospisi Pyanjikenta i zhivopis’ Sredney Azii (Paintings of Penjikent and Central Asian Art). Moscow: Academy of Sciences of the USSR Publ., 83–158. (In Russian)

Egishe, O. 1971. Vardane i voine armyanskoy (Vardane and the Armenian War). Yerevan: Armenian SSR Academy of Sciences Publ., 192. (In Russian).

Jabborov, I. 2003. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati (Ethno-historical Portraits of the Uzbeks). Tashkent: O‘QITUVCHI Publ., 208. (In Uzbek).

Ibrohimov, S. 1959. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi (The Professional Vocabulary of Fergana Dialects). Vol. II–III. Tashkent: FAN Publ., 456. (In Uzbek).

Ivanov, G. P. 1991. Podveska (Pendant). In Kultura i iskusstvo drevnego Uzbekistana: Katalog vystavki. Book 2. Moscow: Vneshtorgizdat Publ., 220. (In Russian).

Kabanov, S. K. 1981. Kultura sel’skikh poseleniy Yuzhnogo Sogda III–VI vv. (The Culture of Rural Settlements of Southern Sogdiana, 3rd–6th centuries). Tashkent: FAN Publ., 128. (In Russian).

Kattaeva, G. Ch. 2022. Sopolli madaniyatining zargarlik buyumlari (Jewelry Items of the Sopolli Culture): Thesis of the candidate of historical sciences (PhD). Termez, 184. (In Uzbek).

Kurbanov, Sh. F., Dorodnykh, S. A., Shultz, R. 2015. In P. B. Lurie (ed.). Raskopki ob’ekta XXVI v 2014 g. (Excavations of Object XXVI in 2014). In Materialy Pendzhikentskoy arkheologicheskoy ekspeditsii. Vol. XVIII. Saint Petersburg, 270. (In Russian).

Kyzlasov, L. R. 1958. Ostatki zamki VI–VII vv. na gorodishe Ak-Beshim (Remains of the Fortress of the 6th–7th Centuries at the Ak-Beshim Site) In Sovetskaya arkheologiya. No. 3, Moscow: Academy of Sciences of the USSR Publ., 152–161. (In Russian).

Litvinsky, B. A. 1973. Ukrasheniya iz mogil’nikov zapadnoy Fergany (Juvelers from the Burial Grounds of Western Fergana). Moscow: NAUKA Publ., 230. (In Russian)

Litvinsky, B. A. 1978. Orudiya truda i utvar’ iz mogil’nikov Zapadnoy Fergany (Tools and Utensils from the Burial Grounds of Western Fergana). Moscow: NAUKA Publ., 255. (In Russian).

Manylov, Yu. P., Rostovtsev, O. M. 1984. Otchet o provedennih arkheologicheskikh nauchno-issledovatelskikh rabot po zone rekonstruktsii kanala Narpay Pakhtachiytskogo r-na Samarkandskoy oblasti (Report on Archaeological Research in the Narpay Canal Reconstruction Zone, Samarkand Region). Nauchnyy arkhiv IA AN RUz, F.4. O.1. D.156. Samarkand, 75. (In Russian).

Marshak, B. I. 1971. Sogdiyskoye serebro: Ocherki po vostochnoy torevtike (Sogdian Silver: Essays on Eastern Toreutics). Moscow: NAUKA Publ., 191. (In Russian).

Marshak, B. I. 1999. Sogd V–VIII vv. Ideologiya po pamiatnikam iskusstva (Sogd, 5th–8th Centuries: Ideology Based on Art Monuments). In Arkheologiya. Srednyaya Aziya v rannem srednevekov’e, Moscow: NAUKA Publ., 175–191. (In Russian).

Maitdinova, G. M. 2003. Istoriya tadzhikskogo kostyuma. (History of Tajik Costume). Vol. 1 Dushanbe: Poligraficheskiy Tsentr LLC NPC OGRT Publ., 280. (In Russian).

Monchadskaya, E. A. 1960. Glinyanyy nalep s Pendzhikentskogo ossuariya (Clay Relief from the Penjikent Ossuary) In Trudy Akademii nauk Tadzhikskoy SSR. Vol. CXX. Dushanbe, 162. (In Russian).

Mukhitdinov, Kh. M. 1973. Statuetki zhenskogo bozhestva s zerkalom iz Saksonkhura (Female Deity Statuettes with Mirror from Saksonkhur) In Sovetskaya etnografiya, No. 5, Moscow: NAUKA Publ., 99–107. (In Russian).

Oldenburg, S. F. 1914. Russkaya Turkistanskaya ekspeditsiya 1909–1910 gg. (Russian Turkistan Expedition 1909–1910). Saint Petersburg, 88. (In Russian).

Pugachenkova, G. A. 1962. Koroplastika Merva (Clay Figures of Merv). In Trudy YUTAKE. Vol. XI. Ashgabat: Academy of Sciences of Turkmen SSR Publ., 422. (In Russian)

Raspopova, V. I. 1980. Metallicheskiye izdelia rannesrednevkovogo Sogda (Metal Objects of Early Medieval Sogdiana). Leningrad: NAUKA Publ., 140. (In Russian).

Raspopova, V. I. 1999. Metallicheskiye izdelia iz Pendzhikenta (Metal Objects from Penjikent). Saint Petersburg: FORMICA Publ., 104. (In Russian).

Ruzanov, V. D. 2013. Metalloobrabotka na yuge Sredney Azii v epokhu bronzy (Metalworking in Southern Central Asia during the Bronze Age). Samarkand, 347. (In Russian)

Sandiboev, A. N. 2021. Maymurg ilk o‘rta asrlarda (Maymurg in the Early Medieval Period). Tashkent: ZAMIN NASHR Publ., 208. (In Uzbek).

Sarianidi, V. I. 1990. Drevnosti strany Margush (Antiquities of Margush). Ashgabat: YLYM Publ., 316. (In Russian).

Sarianidi, V. I. 1989. Kkhram i nekropol’ Tillyatepe (Temple and Necropolis of Tillyatepe). Moscow: NAUKA Publ., 240. (In Russian).

Savelyeva, A. I. 2022. Pogrebal’nye pectorali epokhi novogo tsarstva i pozdnikh periodov Rossii (Funerary Pectorals of the New Kingdom and Later Periods in Russia). Istoricheskiy format. No. 3–4. 93. (In Russian).

Suleymanov, R. Kh. 2000. Drevniy Nakhshab. Problemy tsivilizatsii Uzbekistana VII v. do n.e.–VII v. n.e. (Ancient Nakhshab. Problems of Civilization in Uzbekistan, 7th c. BCE – 7th c. CE). Samarkand–Tashkent: FAN Publ., 332. (In Russian).

Torgoev, A. I., Mirzaakhmedov, D. K., Kurbanov, B. G. 2023. Kudozhestvennyy metall Bukhary i Bukharskogo oazisa VIII–XIV vv. (Art Metal of Bukhara and the Bukhara Oasis, 8th–14th c.). Samarkand: MICAI, 278. (In Russian).

Turganov, B. Q. 2020. Khorazmning o‘rta asr uzuklari (Medieval Rings of Khorezm). O‘zbekiston arkheologiyasi. No. 1(20). Samarkand, 63–72. (In Uzbek)

Turganov, B. 2024. Khorazmning o‘rta asr bronza ko‘zgulari (Medieval Bronze Mirrors of Khorezm). O‘zbekiston arkheologiyasi. No. 1. Samarkand, 57–68. (In Uzbek).

Tyulyaev, S. I. 1988. Iskusstvo Indii. III tysyacheletie do n.e.–VII v. n.e. (Art of India, 3rd millennium BCE – 7th c. CE). Moscow: ISKUSSTVO Publ., 344. (In Russian).

Shultz, P. 1953. Mavzoley Neapolya Skifskogo (Mausoleum of Scythian Neapolis). Moscow: ISKUSSTVO Publ., 124. (In Russian).

Khazanov, A. M. 1964. Religiozno-magicheskoye ponimaniye zerkal u sarmatov (Religious-Magical Understanding of Mirrors among the Sarmatians). In Sovetskaya etnografiya. No. 3. Moscow: NAUKA Publ., 89–96. (In Russian).

Yakubov, Yu. 1979. Pargar v VII–VIII vv. n.e. (Pargar in the 7th–8th c. CE). Dushanbe: DONISH Publ., 219. (In Russian).

Yatsenko, S. A. 2006. Kostyum drevney Evrazii (Iranoyazichnye narody) (Costume of Ancient Eurasia, Iranian-speaking Peoples). Moscow: Vostochnaya literatura Publ., 662. (In Russian)

Vang, J., Berdimurodov, A. 2020. O‘zbekiston va Xitoy hamkorligidagi arxeologik tadqiqot natijalarining ko‘rgazmasi (Exhibition of Archaeological Research Results in Cooperation between Uzbekistan and China). 83 (In Uzbek).

Ghirshman, R. Terrasses sacrees Barde Nechandeh et Masjidi Solaiman. L›iran du Sud Ouest du VSh e s.av.n.ere au V e s.de n ere. Vol. I. Paris, 1976. 103.

Schulz, R. 2016. The “Stroganov bowl” in the state hermitage a localized interpretation. In Materials of the Penjikent archaeological expedition. Issue XX. St. Petersburg, pp. 120-124.

Schmidt, N. 1908. Archaeological excavations in Anau and Old Merv. In Exploration in Turkestan. Expedition of 1904. Washington, 83-120.

JEWELRY AND ORNAMENTS OF CENTRAL SOGD IN THE EARLY MIDDLE AGES (BASED ON THE MATERIALS FROM KAFIRQALA)

© 2025. Berdimurodov Amriddin, Sandiboev Alisher, Alimov Navruz
Samarkand Institute of Archaeology named after Y. Gulyamov

Key words: Sogd, Kafirqala, jewelry art, metal items, plaques, pectoral, medallion, earring, ring, fibula, bracelet, crown ornaments, mirror, precious stones, kirtimukha, trade and cultural relations, ethnography, craftsmanship.

The article analyzes the jewelry art that developed in the early Middle Ages in the territory of Central Sogdia, especially on the basis of the findings recorded as a result of archaeological research carried out at the Kafirqala site located near Samarkand. During the study, jewelry items made of gold, silver, and bronze — pendants, medallions, earrings, rings, bracelets, fibulae, crown ornaments, mirrors, and bells — were examined, and conclusions were drawn that they were used not only as adornments, but also for protective, symbolic, and ritual purposes. At the same time, the article reflects the high level of mastery of Central Sogdian craftsmen in metalworking, expressed through works of art connected with trade, cultural relations, and religious views. The jewelry items discovered at the Kafirqala site are of great importance for studying the jewelry art of Central Sogdia of the 7th–8th centuries, as well as its trade-economic and cultural relations with neighboring regions. Through these gold and silver ornaments, one can observe the economic power of the region and see that craftsmanship occupied an important place in the economy. In addition, during the Middle Ages the Sogdian territory maintained active cultural and trade-economic relations with neighboring Bactria, Byzantium, Iran, and India.

FARG‘ONA VODIYSINING VII – VIII ASRLARGA OID “JABG‘U TURK-XOQON” UNVONLI TANGALARI

©2025. Boboyorov G‘aybulla[1], Shatoxin Anton[2]
[1]O‘zR FA Milliy arxeologiya markazi
[2]Qozog‘iston Tamg‘ali muzey-qo‘riqxonasi

Kalit so‘zlar: G‘arbiy Turk xoqonligi, Choch, Farg‘ona, Quva, tanga, unvon, jabg‘u turk-xoqon, Ashina, tamg‘a.

Islomdan oldin O‘rta Osiyo tarixiy-geografik o‘lkalaridan biri bo’lgan, Choch atamasi ostida tanilgan Toshkent vohasidan topilgan hukmdor tasvirli tangalarda sug‘diy yozuvda pny ’krt twrk x’γ’n “Turk-xoqon (zarb) qildirgan tanga”, otliq tasvirli tangalarda esa nyβwr twrk x’γ’n “Nivur? Turk-xoqon” kabi atama va unvonlarning o‘qib chiqilishi ushbu xoqonlik tomonidan tangalar chiqarilgani masalasida shubhaga o‘rin qoldirmadi. Yaqin yillarda islomdan oldingi Farg‘ona vodiysi tangalarida ham shunga o‘xshash atamalar borligi aniqlandi va xoqonlik tarixi bilan bog‘liq bir qator masalalarni qayta ko‘rib chiqish kerakligini borasida xulosalar qilindi.

ДОИСЛАМСКОЕ МОНЕТЫ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ С ТИТУЛОМ “ЖАБГУ ТЮРК-КАГАН”

©2025. Бабаяров Гайбулла[1], Шатохин Антон[2]
[1]Национальный центр археологии АН РУз
[2]Музей-заповедник Тамгалы, Казахстан

Ключевые слова: Западно-Тюркский каганат, Чач, Фергана, Кува, монета, титул, жабгу тюрк-каган, Ашина, тамга.

Монеты с изображением правителей, найденные в Ташкентском оазисе, который в доисламский период был известен как Чач, подтверждают их чеканку именно Западно-Тюркским каганатом. В частности, на этих монетах присутствуют согдийские надписи *pny ’krt twrk x’γ’n* «монета, отчеканенная тюркским каганом» и *nyβwr twrk x’γ’n* «Нивур? Тюрк-каган» на монетах с изображением всадника. Чтение этих титулов не оставляет сомнений в их принадлежности к каганату. В последние годы установлено, что схожие термины встречаются и на монетах Ферганской долины, что ставит на повестку дня необходимость пересмотра ряда вопросов, связанных с историей каганата.

Keyingi o‘nyilliklarda O‘rta Osiyoning o‘nlab shahar qoldiqlarida, ayniqsa, Toshkent, Farg‘ona va Samarqand kabi qadimiy viloyatlardagi arxeologik yodgorliklarda yuzlab mis tangalar topilishi va ularda Turk xoqonligi (552–744) unvonlar tizimiga tegishli unvon va epitetlar o‘rin olganining aniqlanishi bilan fanda “Turk xoqonligi tanga-pullari”, to‘g‘rirog‘i, “G‘arbiy Turk xoqonligi tangalari” degan tushuncha o‘rtaga chiqdi. Bungacha tangashunoslar tomonidan islomdan oldingi O‘rta Osiyo tangalarining sezilarli bir qismi “Eski turk tangalari guruhi” deb atalib, tangalarning Turk xoqonligiga tegishli yoki tegishli emasligi masalasi ko‘tarilmagan edi.

Islomdan oldin O‘rta Osiyo tarixiy-geografik o‘lkalaridan biri o‘laroq bilinib, Choch atamasi ostida tanilgan Toshkent vohasidan topilayogan hukmdor tasvirli tangalarda sug‘diy yozuvda pny ’krt twrk x’γ’n “Turk-xoqon (zarb) qildirgan tanga”, otliq tasvirli tangalarda esa nyβwr twrk

x’γ’n “Nivur? Turk-xoqon” kabi atama va unvonlarning aniqlanishi ushbu xoqonlik tomonidan tangalar chiqarilgani masalasida shubhaga o‘rin qoldirmadi (Бабаяров 2023: 57–74). Yaqin yillarda Farg‘ona vodiysi tangalarida ham shunga o‘xshash atamalar borligi aniqlanishi xoqonlik tarixi bilan bog‘liq bir qator masalalarni qayta ko‘rib chiqish kerakligini ko‘ndalang qo‘ymoqda.

Farg‘ona tangalariga to‘laqonliroq to‘xtalishdan oldin Turk xoqonligi tomonidan O‘rta Osiyoning Choch, Farg‘ona, Sug‘d va To‘xoriston kabi tarixiy-geografik o‘lkalarida bostirilgan tangalar bilan tanishib chiqsak. Ushbu tarixiy o‘lkalar tangalaridan bir turkumini xoqonlik bilan, aniqrog‘i, G‘arbiy Turk xoqonligi bilan bog‘lash uchun quyidagicha omillarga tayaniladi:

1) VI – VIII asrlar orasida Chochda bostirilgan tangalarda sug‘diy yozuvda “jabg‘u”, “jabg‘u-xoqon”, “xoqon” unvonlari bilan birga “Tardu xoqon”, “Tun jabg‘u-xoqon”, “Elbi Ishbara Sir jabg‘u-xoqon”, “Tun xoqon” kabi G‘arbiy turk xoqonlarining oti va xoqonlikning etnosiyosiy nomi o‘laroq “Turk-xoqon” atamasi uchraydi (2014; Babajarov, Kubatin 2013: 47-58)).

2) VII – VIII asrlarda Farg‘ona vodiysida chiqarilgan tangalarda “xoqon”, “jabg‘u” unvonlari o‘rin olgan.

3) VI – VIII asrlarda Sug‘d (Samarqand) tangalarida “Tardu xoqon”, “Turon hukmdori xoqon” kabi boshqaruvchilar oti va “xoqon” unvoni uchraydi (Бабаяров 2018: 3–15).

4) VII – VIII asrlarda To‘xoriston (Janubiy O‘zbekiston – Janubiy Tojikiston – Shimoliy Afg‘oniston)da bostirilgan tangalarda “xoqon”, “yabg‘u”, “tegin” unvonlari o‘rin olgan (Бабаяров, Лившиц 2002: 21–26; Harmatta, Litvinsky 1996: 367–401).

Ushbu tangalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri G‘arbiy Turk xoqonligi bilan bog‘lash uchun birgina tangalardagi boshqaruvchi ismi yoki unvoni emas, balki tangalar ikonografiyasi va turli ramziy belgilar ularning xoqonlikka tegishli ekanini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, xoqonlik boshqaruvi chog‘ida O‘rta Osiyoning bir necha o‘lkalarida “eltabar”, “tudun”, “tutuq”, “cho‘r”, “tarxon” kabi eski turk boshqaruv tizimiga tegishli unvonlar o‘rin olgan tangalar bostirilgan bo‘lib, ulardagi tamg‘alar yuqorida keltirib o‘tilgan “xoqon”, “jabg‘u xoqon” va “xoqon” unvonli tangalardan butunlay farq qiladi (Смирнова 1981: 389; Бабаяров 2007: 42, 52–55).

1.1. Farg‘ona vodiysi tangalarining paleografiyasi. Farg‘ona vodiysining islomdan oldingi tangalari orasida Ashina sulolasiga tegishli deb qaralayotgan tangalarni 2 ta turkumga ajratamiz. Ularning birinchi turkumida old yuzasida to‘g‘riga yuzlangan uzun sochli, qisiq ko‘zli, dumaloq yuzli hukmdor boshi, uning o‘ng va so‘l tomonida eski turk-run yozuvi?, tanganing orqa yuzasida esa o‘rtada  ko‘rinishidagi tamg‘a va uning tegrasida sug‘diy yozuvda … x’γ’nc pny “... xoqonning tangasi” degan so‘zlar uchrashi aniqlangan edi (Бабаяров 2004: 30–32; Babayar 2008: 135–146). Farg‘ona tangalarining ikkinchi turkumi esa xitoy tangalariga taqlid qilib, o‘rtasi to‘rtburchak teshikli, old yuzasida sug‘diy yozuvda “xoqon” unvoni va tamg‘a o‘rin olgan tangalar bo‘lib, ushbu tangalar bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan (Смирнова 1981: 338–339; Баратова 1998: 41–43).


Birinchi turkumga tegishli 2 ta tanga Farg‘ona vodiysidagi Quva shahar qoldig‘ining islomdan oldingi madaniy qatlamidan topilib, ular ilk bor 2000- yillarning ilk o‘n yilligida L.S. Baratova, G‘. Boboyorovlar tomonidan ilm olamiga tanitilgan edi. L.S. Baratova har ikkala tangani ularning ikonografik tomonlariga tayangan holda “Eski turkiy tangalar turkumi”ga kiritgan bo‘lsa (Баратова 2007: 43–50), G‘. Boboyorov bu tangalardagi yozuvlarni “xoqon”, “xoqonning tangasi” deb o‘qib, ular G‘arbiy Turk xoqonligi tangalari turkumiga tegishli deb qaragan, shuningdek, ularni xoqonlikning VII asr 30–40 yillarida Farg‘ona vodiysida o‘z sulolasini qurgan Farg‘ona Ashina sulolasi tomonidan bostirilgan tangalar deb ochiqlagan edi (Бабаяров 2019: 5–13). Shuningdek, ushbu tangalarga ulardagi tamg‘alar ( – ), ikonografiya va unvonlardan kelib chiqib, VII asrning ilk yarmida bostirilgan deb qaralib, ular Choch vohasida o‘zining xos tangalarini chiqargan G‘arbiy Turk xoqonligi tangalariga har tomonlama yaqin

o‘xshashligiga urg‘u berilgan edi. Farg‘ona vodiysidagi Ashina sulolasi tomonidan bostirilgan ikkinchi turkum tangalar esa o‘tgan asrning 40- yillarida aniqlangan bo‘lib, Farg‘ona vodiysining ko‘plab qadimiy shahar qoldiqlaridan topilgan bu turdagi tangalar yaqin yillargacha “Eski turk tangalari turkumi”ga kiritilgan yoki Turgash xoqonligi tangalari bilan bir davrda bostirilgan deb qaralib kelingan edi. Yuqorida keltirib o‘tilgan 2 dona Quva tangasining topilishi natijasida xitoy taqlidi tangalar xoqonlikning Farg‘ona tarmog‘i tomonidan chiqarilgan ikkinchi bosqich tangalar turkumiga kiritildi (Бабаяров 2019: 5–13). Shu yo‘sinda 650- yillar so‘nggida Tan Xitoyi G‘arbiy Turk xoqonligi ustidan, shu jumladan, Farg‘ona vodiysi ustidan ustunlik o‘rnatishi natijasida bu turdagi tangalar chiqarila boshlagan deb qaraldi. Quyida ularni keltirib o‘tamiz (1-rasm):



1-rasm. Quva tangtalari
Рис. 1. Монеты Кувы
Fig. 1. Coins of Quva

Har ikkala tanganing old yuzasida hukmdorning o‘ng va so‘l tomonida yozuv o‘rin olgan bo‘lib, G‘. Boboyorov tomonidan eski turk-run yozuvi deb qaralgan va so‘roq belgisi ostida k2ŋ1m – q(a)ng(ï)m “otam” va qğ1n1 – q(a)ğ(a)n “xoqon” deb o‘qilgan, bu o‘qish bir qator turkologlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan edi (Babayarov 2004: 30–32; Babayar 2008: 135–146). Turkolog E. Asanov ushbu tanga yozuvining so‘l tomonidagisini k2n1m (q(a)n(ï) m) ko‘rinishida o‘qib, “qan” so‘zi eski turkchada “hukmdor” ma’nosini berishini yozgan, shu yo‘sinda u bu yozuvni “xukmdorim xoqon” deb ochiqlash kerakligiga urg‘u bergan edi. Bu ochiqlama G‘. Boboyorov tomonidan to‘g‘ri deb topilgan edi (Бабаяров 2019: 5–8). Quyida ko‘riladiganidek, bir qarashda ushbu yozuv eski turk-run yozuvini eslatgani uchun izlanuvchilar bunday to‘xtamga kelgan bo‘lsalar-da, ayrim harf belgilarining yaxshi saqlanmagani uchun ular bu borada ikkilanib, o‘z o‘qishlarini so‘roq belgisi ostida keltirib o‘tgan edilar (2-rasm).



2- rasm. Quva tangalarining chizmasi
Рис. 2. Прорисовка монет Кувы
Fig. 2. Line drawings of the Quva coins

Izlanuvchilarga ko‘ra, ushbu tanga yozuvlarining o‘ng tomondagi 3 ta harf belgisining birinchisi eski turk-run yozuvidagi , k^2, ikkinchisi , n^1, uchinchisi esa , m grafemalarini eslatib, ularni k^2n^1m (q(a)n(ï)m) “hukmdorim” deb o‘qish bir qarashda o‘zini oqlaydigandek ko‘rinadi. Biroq birinchi harf belgisi eski turk-run yozuvi qoidalariga ko‘ra qattiq q grafemida yozilishi kerak edi. Izlanuvchilar bu holatni ayrim o‘rinlarda qattiq undoshlar yumshoq undoshlar bilan yozilgan hollar uchrashi bilan ochiqlagan edilar. Hukmdor boshi tasvirining o‘ng tomonidagi yozuv esa , ko‘rinishlarida bo‘lib, birinchisiga (q), ikkinchisiga , (ğ), uchinchisiga esa , (n) deb qaralib, ularni $qğ^1n^1$ – q(a)ğ(a)n “xoqon” deb o‘qish ayrim savollarni tug‘dirib kelayotgan edi. Birinchidan, 2-3 harf belgilari bir-biriga yopishib qolgan deb qaralgan bo‘lib, eski turk-run yozuvida bunday holatlar deyarli kuzatilmagani uchun bu ko‘zqarash o‘zini yetarlicha oqlamayotgandi.

Yaqinda bu turdagi tangalarning 15 ga yaqin nusxasi topilishi esa ushbu tanga yozuvlari bo‘yicha shu choqqacha bildirib kelinayotgan qarashlarni butunlay o‘zgartirib yubordi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, Qirg‘izistonning Farg‘ona viloyatiga janubdan yaqin chegara hududidan topilgan tangalar ham ikonografiyasi, ham paleografik tomonlariga ko‘ra Quva tangalari bilan bitta turkumga tegishliligi aniq ko‘ringani uchun biz bu tangalarni “Farg‘ona tangalari turkumi”ga kiritdik. Ushbu tangalarning old va orqa yuzalaridagi yozuvlar Quva tangalaridagiga qaraganda to‘liq saqlanib qolgan bo‘lib, bu esa Farg‘ona tangalari bo‘yicha chuqurroq izlanishlar olib borishni talab qildi. Quyidagi tangalardan ko‘rinib turganidek, 3- tanganing old yuzasidagi uzun sochli hukmdor tasvirining o‘ng tomonida harf belgilarining oldida yana bitta ko‘rinishidagi harf belgisi borilig aniqlandi. Ko‘rinishidan bu harf eski turk-run yozuvidagi harf belgilariga o‘xshamaydi: .



Ushbu tanga yozuvining bu va u bilan ketma-ketlikdagi , kabi harf belgilarining eski turk-run yozuvlariga unchalik o‘xshamasligi Farg‘ona tangalarining old yuzasidagi yozuvlar butunlay boshqa bir yozuv tizimiga tegishli emasmi degan savolni keltirib chiqardi. Bu tangalardagi ikonografik o‘ziga xosliklar va tamg‘a ko‘rinishi, shuningdek, tangalarning orqa yuzasidagi sug‘diy yozuvning G‘arbiy Turk xoqonligi tomonidan Farg‘onaga qo‘shni o‘lkada – Chochda bostirilgan tangalardagi yozuvlar bilan yaqin o‘xshashlikka egaligi ularni xoqonlikka tegishli tangalar deb qarashga turtki bo‘ldi. Ya’ni tangalarning orqa yuzasida o‘rin olgan ko‘rinishidagi tamg‘a tegrasidagi sug‘diy yozuv pny cpγw twrk x’γ’n “Jabg‘u turk-xoqonning tangasi” deb o‘qilishi, shu kabi so‘zlar Chochda bostirilgan G‘arbiy Turk xoqonligi tangalarida pny ’krt twrk x’γ’n “Turk-xoqon (zarb) qildirgan tanga” ko‘rinishida uchrashi diqqatni o‘ziga tortdi (3-rasm).




3- rasm. Choch vohasi (1.3) va Farg‘ona vodiysida (1.4) bostirilgan g‘arbiy Turk xoqonligi tangalari
Рис. 3. Монеты Западнотюркского каганата, чеканенные в Чачском оазисе (1.3) и в Ферганской долине (1.4)
Fig. 3. Coins of the Western Turkic Khaganate minted in the Chach oasis (1.3) and in the Fergana Valley (1.4)

Bu esa bizni “demak, ushbu Farg‘ona tangalari xoqonlikka tegishli ekan, unda tangadagi yozuv ham xoqonlik tomonidan qo‘llanilgan yozuv turlaridan birida yozilgan bo‘lsa kerak” deb qarashga undadi. Turk xoqonligi ish yuritish va yozishmalarda sug‘diy va eski turk-run yozuvlarini ishlatganligi yaxshi bilinadi. Yaqin yillarda esa xoqonlikning ilk yozma yodgorliklari sug‘diy yozuvi bilan bir qatorda brahmiy yozuvli protomongolcha (?) tilda yozilgani aniqlandi. Xoqonlikning 581-yilga tegishli deb sanaladigan Bug‘ut (Mo‘g‘uliston) bitiktoshining sug‘diy tilda yozilgani, ushbu bitiktoshning ko‘p yillardan beri o‘qilmay kelayotgan qismi esa brahmi yozuvida protomongolcha ekani aniqlandi (Vovin 2019:162–197; Ölmez 2018: 125–127). Shuningdek, 603-yilga tegishli deb qaraladigan Xovs-tolgoy bitiktoshi ham Turk xoqonligi bilan bog‘liq shunday yozma yodgorliklardan biri ekanining aniqlanishi Farg‘ona tangalaridagi yozuvni shu negizda o‘qishga yetakladi. Bundan tashqari, ushbu tangalar xoqonlikning birmuncha erta davriga to‘g‘ri kelishi ham bu qarashimizni qo‘llab-quvvatladi.


1.2. Farg‘ona tangalaridagi brahmiy yozuvlarining paleografiyasi. Ham Quva topilmalari, ham vodiyga yaqin Qirg‘iziston chegarasi topilmalaridagi tangalarda brahmiy yozuvlari, ayrim istisnolarni aytmaganda, to‘laqonli saqlanmagan. Quva tangalari yozuvlarining chizmasi esa quyidagicha:


1)  ; 2) .



Qo‘shni respublika chegara hududi tangalarining ayrimlaridan olingan chizmalar esa quyidagicha:

1)  //...; 2) ; 3) .

Quva tangalarining old yuzasidagi harf belgilari ikkita so‘zdan iboratligi, o‘ng tomondagi yozuv 3 ta, so‘l tomondagisi ham 3 ta harf belgisini o‘z ichiga olgani ko‘rinib turibdi. O‘ng tomondagi yozuv quyidagicha harf belgilaridan ibort bo‘lib, ular shu yo‘sindadir:

 = + + . Ushbu harf belgilarini Turk xoqonligiga tegishli Xovs-tolgoy bitiktoshida uchraydigan quyidagi harf belgilari bilan solishtirish mumkin:

1)  = ;  = ;  = . Quyida keltirilib o‘tiladiganidek, Xovs-tolgoy bitiktoshida eski turkcha qağan “xoqon” unvoni  kagan ko‘rinishida yozilgan bo‘lib, bitiktoshda bu atama 9 kez uchraydi. Ulardan ayrim o‘rnaklar keltirib o‘tamiz (qar. Qurčabaγatur 2019: 2, 11):

1)  2)  5)  - kagan ...




1-satr.  - biti-ŋar kagan ...



2-satr.  - kagan buda kaganu ...

5- satr.  - ...niri kagan türüg kagan.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, Xovs-tolgoy bitiktoshidagi “xoqon” so‘zining birinchi harfi brahmiy yozuvlari bilimdoni D. Mayer tomonidan  ka, ikkinchi harfi  ga, uchinchi harfi esa  n deb o‘qilgan (Maue 2018: 129–139; Vovin 2019: 162–197). Aslida ushbu harflar kutilganidek, hind brahmiy alifbosida  (ka),  (ga),  (n) ko‘rinishida yozilishi kerak edi. Biroq miloddan oldingi 4-3 asrlarda yuzaga kelib, milod boshlaridayoq buddaviy inonch tizimi Hind o‘lkasidan qo‘shni o‘lkalarga tarqala boshlagan kezlarda Tibet, Sharqiy Turkiston

kabi Osiyoning o‘rta va shimoli-sharqiy tuproqlariga yoyilar ekan, bir necha tarmoqlarga bo‘lingan edi. Shu yo‘sinda ushbu yozuv tizimining o‘nlab tarmoq yozuvlari o‘rtaga chiqqani bilinadi. Ayniqsa, ilk o‘rta asrlarda Sharqiy Turkistondagi to‘xorlar va turkiy ellar tomonidan o‘zlashtirilgan brahmiy yozuvining bir necha turlari qo‘llanila boshlangani ma‘lum. Turk xoqonligi tomonidan VI asrning so‘nggi o‘nyilliklari – VII asrning boshlarida yozilgan Bug‘ut va Xovs-tolgoy bitiktoshlarida qo‘llanilgan alifbo ham standart brahmiy alifbodan birmuncha farqli bo‘lgani ko‘zga tashlanadi. Chamasi, Farg‘ona tangalaridagi yozuv O‘rxun vodiysi (Mo‘g‘uliston) va Hind o‘lkasidagi brahmiy alifbolaridan birmuncha farqli oraliq alifbodan birida yozilgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, tanga yozuvi ushbu alifboning Hind o‘lkasida qo‘llanilgan turida yozilganda edi, shu ko‘rinishda yozilgan bo‘lardi: .

Farg‘ona tangalaridagi  ko‘rinishidagi yozuvni brahmiy yozuvi negizida “kan” deb o‘qish va uni eski turkcha qan (xon) unvoni bilan tenglashtirish uchun asoslar bor. Bug‘ut va Xovs-tolgoy bitiktoshlarida bu unvon oz uchrasa-da (Vovin 2019: 179), eski turk-run yozuvli Tunyuquq, Taryat, Shine-usu bitiktoshlarida qan (xon) atamasi ko‘p uchrab, ayrim o‘rinlarda bu atama “xoqon” bilan teng anglamda qo‘llanilgani anglashiladi (User 2009: 264–265). Xoqonlikka tegishli brahmiy yozuvli bitiktoshlarda bu so‘z  ko‘rinishda yozilgan bo‘lsa-da, Farg‘ona tangalarinikidan uncha ko‘p farqli yozilomagani ko‘rinadi. Solishtiramiz:  = . Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, bitiktoshlardagi brahmiy harf belgilarining har biri bittadan tishi ortiqchaligi ko‘zga bilan birmuncha ajralib turadi.

G‘arbiy Turk xoqonligi tomonidan Farg‘ona vodiysida bostirilgan tangalardagi (, ,) kabi harflarni qamrab olgan ikkinchi so‘z o‘qilmasdan qolmoqda, bu bo‘yicha izlanishlarni kelgusiga qoldirgan holda ularning quyidagi ko‘rinishda yozilgan bo‘lishi ham mumkinligini aytib o‘tish kerak bo‘ladi:  (, , ). Qizig‘i shundaki, tangalardagi birinchi harf belgisi  brahmiy yozuvining birorta turida uchramay, eski turk-run yozuvidagi k[2] ni eslatadi. Qolgan 2 ta harf belgisi ham boshqa yozuv tizimlaridan ko‘ra ko‘proq eski turk-run harflariga yaqinligi kuzatiladi.

1.3. Farg‘ona tangalaridagi sug‘diy yozuv paleografiyasi. Bu tanga turining shu choqqacha aniqlangan 14 ta nusxasida sug‘diy yozuvning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari borligi ko‘zga tashlanib, ularni 2 ta turkumga ajratish mumkin:

1) Soat mili yo‘nalishida yozilib, cpγw (t)wrk x’γ’n (pny) “Jabg‘u turk-xoqonning tangasi” so‘zlari yozilgan tangalar (4,1-rasm):

2) Soat mili yo‘nalishiga teskari yozilgan cpγw twrk x’γ’nc pny “Jabg‘u turk-xoqonning tangasi” so‘zlari o‘rin olgan tangalar (4,2-4,6-rasm).

Ushbu tangalarning barchasida sug‘dcha yozuv turli-tuman ko‘rinishlarda yozilgan bo‘lib, bu esa tangalarning turli vaqtlarda bostirilganini ko‘rsatadi. Paleografik o‘ziga xosliklariga ko‘ra Farg‘ona tangalari sug‘diy yozuvning harf belgilari o‘zaro ayri-ayri yozilgan yarim italik turiga tegishlidir. Bu esa ushbu tangalar O‘rta Osiyoning islomdan oldingi sug‘diy yozuvli tangalarining VI asr oxiri – VII asr boshlariga tegishli turida yozilgan, deb qarashga undaydi. Bunga o‘xshash holat G‘arbiy Turk xoqonligining Choch vohasida bostirilgan ilk tangalarida ham kuzatilsa-da, Farg‘ona tangalaridan farqli o‘laroq ular birmuncha yopishgan holatda yozilgani ko‘zga tashlanadi (qar. 3- rasm. 1.3, 5 – 6 rasmlar). Choch vohasining “jabg‘u” unvonli tangalari bu jihatdan Farg‘ona



1.



2.




3. *4.*



5. *6.*

4- rasm. “Jabg‘u turk-xoqon” unvonli Farg‘ona tangalaridan o‘rnaklar
Рис. 4. Ферганские монеты с титулом «джабгу тюрк-хакан»
Fig. 4. Fergana coins bearing the title “Jabghu Turk-Khagan”


tangalariga birmuncha o‘xshashlik ko‘rsatsa-da, vohaning “Turk-xoqon” unvonli tangalarida harf belgilari o‘zaro bir-biriga ulanib ketgani anglashiladi. Bu esa Farg‘ona tangalari Choch tangalariga qaraganda biroz oldinroq bostirilgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq O‘rta Osiyo voha hukmdorliklarining deyarli har birida sug‘diy yozuv o‘zaro farqli yo‘nalishlarda rivojlanganidan kelib chiqilsa, ushbu turkumdagi Farg‘ona va Choch tangalarining qay biri oldinroq, qay biri esa birmuncha keyinroq bostirilgani bo‘yicha aniq to‘xtamga kelishni qiyinlashtiradi. Bu holatni yanada qulayroq tushunish uchun quyida har ikkala hudud tangalaridan olingan ayrim chizmalarni keltirib o‘tamiz (5-7-rasmlar):



5-rasm. “Jabg‘u turk-xoqon” unvonli Farg‘ona tangalari chizmalari
Рис. 5. Прорисовки ферганских монет с титулом «джабгу тюрк-хакан»
Fig. 5. Line drawings of the Fergana coins bearing the title “Jabghu Turk-Khagan”





6- расм. ““Turk-xoqon”” unvonli Choch tangalari chizmalari
Рис. 6. Прорисовки чачских монет с титулом «тюрк-хакан»
Fig. 6. Line drawings of the Chach coins bearing the title “Turk-Khagan”



7- расм. ““Jabg‘u” unvonli Choch tangalarichizmlari
Рис. 7. Прорисовки чачских монет с титулом «джабгу»
Fig. 7. Line drawings of the Chach coins bearing the title “Jabghu”

Farg‘ona tangalaridagi ikkinchi so‘z – “turk” o‘laroq yozilib, bu so‘z paleografik tomondan Choch tangalaridagi  (twrk “turk”) so‘zining yozilishi bilan bir xil yozilgan bo‘lsa-da, sug‘diy yozuv qoidasiga ko‘ra Choch tangasinikidan birmuncha aniq yozilgani ko‘zga tashlanadi. Ya’ni


Farg‘ona tangalarida o‘rin olgan 4 ta so‘z ham yuqorida aytib o‘tilganidek, yozuv bichimiga ko‘ra O‘rta Osiyoning boshqa o‘lkalarida bostirilgan tangalardagi yozuvlar bilan yalpi o‘xshashlikka ega. Birinchi so‘z cpγw “jabg‘u” atamasi  () ko‘rinishida yozilgan bo‘lib, shu tomondan u G‘arbiy Turk xoqonligining Chochda bostirilgan “Tun jabg‘u-xoqon” va “Jabg‘u-xoqon” unvonli tangalaridagi kabi yozilgani anglashiladi: , (cpγw “jabg‘u”). Hoqonlikning “Jabg‘ulik chog‘i” Choch tangalarida bu so‘z ,  (ẓpγw “jabg‘u” (sirg‘aluvchi “j” bilan)) ko‘rinishlarida yozilib, bu holat sug‘diylar o‘zlari uchun yot bo‘lgan turkiy “jabg‘u” so‘zini ayrim o‘rinlarda ẓpγw, ayrim o‘rinlarda cpγw o‘laroq yozganliklari bilan ochiqlanadi.

standart sug‘diy yozuvda birinchisi birmuncha qisqa, ikkinchisi esa biroz uzun yozilgan -r (resh) -k (kaf) harf belgilarini eslatib, har ikkala harf Choch tangalarida deyarli bir xil yozilgan. Farg‘ona tangalarida esa ushbu harflarning yozilishi bir-biridan butunlay ajralib turadi (qar. =).

Farg‘ona tangalaridagi uchinchi so‘z – “xoqon” so‘zi x’γ’n “xoqon” va x’γ’nc (“xoqonning”, “xoqonga tegishli”) ko‘rinishlarida yozilib, bu tomondan u O‘rta Osiyoning islomdan oldingi sug‘diy yozuvli tangalaridagi bilan deyarli birdey yozilgani ko‘zga tashlanadi. “Xoqon tangasi” iborasi o‘rin olgan O‘rta Osiyo sug‘diy yozuvli tangalarining deyarli barchasida bu ibora x’γ’n pny / pny x’γ’n o‘laroq yozilgani, Farg‘ona tangalarida esa x’γ’n so‘ziga tegishlilik bildiruvchi -c qo‘shimchasi qo‘shib yozilgani diqqatni o‘ziga tortadi (4- rasm. 1.3.2 – 1.3.4).

Farg‘ona tangalaridagi so‘nggi so‘z – pny (pani “tanga, pul”) O‘rta Osiyo sug‘diy yozuvli tangalaridagi bilan bir xil yozilgan. Shu yo‘sinda bu so‘z Chochning “turk-xoqon” unvonli tangalarinikidan ko‘ra aniqroq yozilgani ko‘zga tashlanadi. Choch tangasidagi (بنج) ko‘rinishida yozilgan so‘zni “pani” deb o‘qishdan ko‘ra “panch” deb o‘qish to‘g‘riroq bo‘lsa-da, sug‘diy yozuvda bunday holatlar kuzatilishi, ya’ni tashqi ko‘rinishidan o‘zaro o‘xshash bo‘lgan harf belgilari orasida bu kabi chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan hollar uchrashini aytib o‘tish kerak.


Farg‘ona vodiysining xitoy tangalariga o‘xshatib chiqarilgan, o‘rtasi teshik tangalarning paleografiyasi “Jabg‘u turk-xoqon” unvonli tangalardan birmuncha farqlansa-da, yozilishiga ko‘ra yalpi o‘xshashlik borligi kuzatiladi. Ushbu tangalarning old yuzasida sug‘diy yozuvda x’γ’n “xoqon” unvoni, orqa yuzasida esa βrγ’n “Farg‘ona” toponimi o‘rin olib, quyida ko‘riladiganidek, ulardagi harf belgilari sug‘diy yozuvning yugurik (kursiv) turida yozilgani ko‘zga tashlanadi (8-rasm):



8- rasm. Xitoy tangalari ta’sirida chiqarilgan Fargona tangalari
Рис. 8. Ферганские монеты, выпущенные под влиянием китайских монет
Fig. 8. Fergana coins issued under the influence of Chinese coins

Ushbu tangalar Farg‘onada Xitoy ustunligi kuchaygan VII yuzyillikning ikkinchi yarmidan boshlab yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa kerak. “Sin Tan-shu” yilnomasida “Syan-sin davrining boshlanishida (656-y.) Ebochji elchi yuborib, sovg‘alar tortiq qildi. (Imperator) Gao-szun unga ko‘p iltifot ko‘rsatdi. (Ushbu davrning) 3- yili (658-y.)da Gyesay (Koson) shahri “Syushyun viloyati” deb ataldi va unga bosh harbiy amaldor Alyaotsan hokim (si-shi) qilib tayinlandi” degan bilgilar uchrashidan kelib chiqilsa, 650- yillar so‘nggida Farg‘onaning turkiy boshqaruvchilari Xitoy ustunligini tan olgan edilar (Бичурин 1950, II: 319; Малявкин 1989: 188–189; Xo‘jayev 2013: 27–28). Qisqasi, ushbu tangalarni Farg‘onada Ashina sulolasining ikkinchi bosqich tangalaridir deya olamiz (Бабаяров 2019: 124–134).

2. Unvonlar. Islomdan oldingi Farg‘ona tangalari ilk bor ilm olamiga tanitilar ekan, ko‘pchilik tangashunos izlanuvchilar xitoy taqlidi o‘rtasi to‘rtburchak teshikli tangalarda sug‘diy yozuvda x’γ’n “xoqon” unvoni uchrashi, shu yo‘sinda ularni “Eski turk tangalari” turkumiga kiritish mumkinligi to‘g‘risida bir to‘xtamga kelgan edilar. Biroq bu turdagi Farg‘ona tangalarini Turgash xoqonligi bilan bog‘lash o‘zini yetarlicha oqlamasdan kelayotgan edi. Ushbu tangalardan farqli o‘laroq Xitoy ta’siri sezilmaydigan hukmdor tasviri tushirilgan Quva tangalarining orqa yuzasida esa sug‘diy yozuvda “xoqon” unvoni o‘rin olganining aniqlanishi, shuningdek, bu turdagi tangalarning ikonografiyasi va tamg‘asiga tayangan izlanuvchilar har ikkala turdagi tangalarni G‘arbiy Turk xoqonligi, aniqrog‘i, ushbu xoqonlikning Farg‘onadagi tarmog‘iga tegishli tangalar deb ochiqlagan edilar. Shu o‘rinda Quva tangalari ilm olamiga tanitilgandayoq “xoqon” unvonidan tashqari “jabg‘u” unvoni ham borligi ilgari surilgan edi (Babayar 2008: 135–146). Biroq har ikkala Quva tangasidagi sug‘diy yozuvlar to‘liq saqlanmasdan, quyida chizmasi keltirib o‘tilganidek, birinchisida 7 ta harf, ikkinchisida esa 4 ta harf saqlanib qolgani, qolgan harflar esa o‘chib ketgani uchun ulardan birida ... (x’)γ’nc pny ... “... xoqonning tangasi ...”, boshqasida esa so‘roq belgisi ostida ... (cp)γw x’(γ)(’n) ... “... jabg‘u-xoqon ...” unvonlari o‘rin olganiga urg‘u berilgan edi:






Shu yo‘sinda har ikkala tanga yozuviga tayanilgan holda Farg‘ona tangalarining bu turkumida “xoqon” unvoni borligiga to‘liq ishonch bilan qaralgan, “jabg‘u” unvoni esa so‘roq ostida qolgan edi. G‘. Boboyorovning izlanishlarida “jabg‘u” yoki “jabg‘u-xoqon” unvonli G‘arbiy Turk xoqonligi tangalari Choch vohasida bostirilgani, “jabg‘u” unvonli tangalar ushbu xoqonlikning ilk bosqich – “Jabg‘ulik davri” (VI asrning so‘nggi choragi – VII asrning boshlari), “jabg‘u-xoqon” unvonlilari esa xoqonlikning ikkinchi bosqich – “Jabg‘u-xoqonlik davri” (VII asrning ilk choragi – shu asrning 30- yillari) tangalari deb qaralgan edi. Har ikkala bosqich tangalari tamg‘asidagi qo‘shimcha belgilarga ko‘ra farqlanadi: “jabg‘u” unvonli tangalar  ko‘rinishdagi tamg‘alar bilan, “jabg‘u-xoqon” unvonli tangalar esa  ko‘rinishidagi tamg‘alar bilan bostirilgan. Farg‘ona tangalaridagi tamg‘alar  ko‘rinishida bo‘lib, shu tomondan ular Choch vohasi G‘arbiy Turk xoqonligi tangalarining “Jabg‘ulik bosqichi”ga to‘g‘ri keishi anglaniladi. Farg‘ona vodiysida to‘g‘ridan-to‘g‘ri Ashina sulolasi boshqaruvi o‘rnatilgani, ya’ni Farg‘onaning mahalliy boshqaruvchisi 630- yillarda o‘ldirilishi va uning o‘rnini G‘arbiy xoqonlik vakili Ashina Sheni

egallashiga tayangan izlanuvchilar ushbu tangalarning chiqarila boshlashini shu yillar bilan bog‘lagan edilar. Bu esa bir qator qarama-qarshi ko‘zqarashlarni keltirib chiqargan edi.

Qirg‘izistonning Farg‘ona viloyatiga yaqin chegara hududi topilmalari Quva topilmalaridagi kemtiklikni to‘ldirdi. 12 dona tanganing ko‘pchiligida orqa yuzidagi sug‘diy yozuv yaxshi saqlanib qolgan bo‘lib, ularga tayanib, Farg‘ona tangalarining bu turida “Jabg‘u turk-xoqon” unvoni uchrashi aniqlandi. Qizig‘i shundaki, yuqorida aytib o‘tilganidek, G‘arbiy Turk xoqonligining Sug‘d o‘lkasida bostirgan tangalaridan farqli o‘laroq ham Choch tangalarida, ham Farg‘ona tangalarida “turk-xoqon” atamasining uchrashi, xoqonlikning boshqa tangalariga qaraganda ikonografiya va tamg‘a ko‘rinishida yaqin o‘xshashlik kuzatilishi diqqatni o‘ziga tortdi. Ular orasidagi farqlilik Choch tangalaridagi unvon “turk-xoqon”, Farg‘onanikida esa “Jabg‘u turk-xoqon” ekanidadir. Shu o‘ridaqator izlanishlarimizda “turk-xoqon” unvonli G‘arbiy Turk xoqonligi tangalari ushbu xoqonlikning ilk bosqich – “Jabg‘ulik chog‘i”da bostirilganiga urg‘u berilgan edi. Shuningdek, ko‘pchilik tangalarini “jabg‘u” unvoni bilan bostirgan ushbu xoqonlik boshqaruvchilaridan ayrimlari o‘z tangalarida “jabg‘u” o‘rniga “turk-xoqon” unvoniga o‘rin bergani ham aytib o‘tilgan edi. Shu bilan birga, xoqonlik boshqaruvchilari bu atama orqali o‘zlari ega bo‘lgan unvonga emas, davlatning etnosiyosiy oti – Turk xoqonligi nomidan kelib chiqib, o‘z tangalarida “turk-xoqon” atamasiga o‘rin bergan bo‘lsak kerak deb ochiqlangan edi. Turgash xoqonligi (699–756) tangalarida sug‘diy yozuvda twrkyš x’γ’n “turgash xoqon”, Uyg‘ur xoqonligi (745–840) tangalarida ’wyγr x’γ’n “uyg‘ur xoqon”, Qarluq yabg‘uligi / xoqonligi (IX – X asrlar) tangalarida x’rlwx x’γ’n “qarluq xoqon” atamalari Turk xoqonligi boshqaruvchilari ham o‘z etnik nomini tangalarda aks ettirishga uringan degan qarashga yetaklaydi. (Бернштам 1949: 105–101; Thierry 2002: 751–762; Лure 2010: 279–284). Demak, eski turk siyosiy uyushmalarida boshqaruvchilar o‘zlari kelib chiqqan urug‘ oti – etnonimga ayricha urg‘u bergan bo‘lib, bu holat Turk xoqonligi boshqaruv tizimida ham o‘z ko‘rinishini topgan. Turk xoqonligining turli tillardagi yozma yodgorliklarida – sug‘diy (Bug‘ut), brahmiy (Bug‘ut, Xovs-tolgoy), eski turk-run (Kul tegin, Bilga xoqon) bitiktoshlarida “turk-xoqon” atamasining uchrashi bu qarashni kuchaytiradi (Kljaštornyj, Livšic 1972: 69–102; Tekin 2003: 56; Vovin 2019:162–197; Ölmez 2018: 125–127).

Boshqa tomondan Choch va Farg‘ona tangalarida o‘rin olgan “turk-xoqon”, “jabg‘u turk-xoqon” unvonlari turk xoqonlaridan birortasining oti va unvoni bo‘lmaganmikan degan savolni keltirib chiqaradi. Xitoy yilnomalarida 630-650-yillarda G‘arbiy turk xoqonligini boshqargan bir nechasining “Ibi Dulu kexan” unvoni bilan tilga olinganiga duch kelamiz. Ayrim izlanuvchilar “Dulu kexan”ni “Turk-xoqon” o‘laroq tiklaydilar, biroq bu qarash yetarlicha o‘z tasdig‘ini topmagan.

Farg‘ona va Choch tangalarida uchraydigan twrk atamasini “turk” etnonimining sug‘diy yozuvda berilgan ilk o‘rnaklaridan biri deyish mumkin. Uning aniq bir etnik atama ekanini sug‘diy tilli boshqa yozma manbalar ham qo‘llab-quvvatlaydi: Mo‘g‘ulistondagi I. Sharqiy Turk xoqonligi (552–630) tomonidan o‘rnatilgan sug‘diy tilli Bug‘ut bitiktoshida tr’wkt “turklar” va Uyg‘ur xoqonligi (745–840) boshqaruvchilari tomonidan yozdirilgan Qora-balg‘asun bitiktoshida esa twrkc’ny “turkcha” ko‘rinishlariga duch kelinadi (Kljaštorniy, Livšic 1972: 87). Shuningdek, Sharqiy Turkistondan topilgan 639-yilga tegishli Chinanchkand (Gaochan / Turfon)da tuzilgan sug‘diy tilli hujjatda “turk” etnik atamasi aniq bir etnotoponim o‘laroq twrkyst’n “Turkiston” so‘zi o‘rnagida ko‘rinadi (Исҳоқов 1993: 1, 5; Vaissière 2005: 169). Yaqin yillarda esa Xo‘tan (Sharqiy Turkiston)da aniqlangan VIII asrga tegishli sug‘diy tilli bir hujjatda 13- va 15-qatorlarida “Turkiston” atamasi  twrkystn ko‘rinishlarida yozilgani aniqlandi (Sims-Williams 2015: 262–266). Ushbu hujjat yuzasidan izlanishlar olib borgan eroniy tillar, ayniqsa sug‘diy til bo‘yicha yirik mutaxassis o‘laroq tanilgan ingliz olimi N. Sims-Villyams hujjatdagi Turkiston so‘zini O‘rta Osiyodagi tarixiy o‘lkalardan birining nomi

o‘laroq ochiqladi. Unga ko‘ra, o‘sha chog‘larda bu atama shimoldagi yerlar, ayniqsa Sirdaryo daryosidan Mo‘g‘ulistongacha cho‘zilgan o‘lkalar uchun qo‘llanilgan (Bo, Sims-Williams 2015: 268). Qisqasi, “turk” etnik atamasining ilk o‘rta asrlarda sug‘diycha yozilishi tr’wk va twrk ko‘rinishlarida turlicha yozilgani anglashiladi.

Ilk o‘rta asrlarga tegishli “Bey-shi”, “Suy-shu” va “Tan-shu” kabi xitoy yilnomalarida “shexu” (yabg‘u), “shexu-kexan” (yabg‘u-xoqon) G‘arbiy turk boshqaruvchilarining unvonlari ekaniga urg‘u beriladi (Бичурин 1950, I: 284–289, 342). Yunon (Vizantiya) va arman manbalarida esa “Shimol xoqoni”iga bo‘ysungan “Jebu-xoqon” to‘g‘risida so‘z boradi (Chavannes 1903: 226–228; Moravcsik 1958: 130–131, 290). Ulardan anglashilicha, “Shimol xoqoni” – oliy hukmdor maqomidagi Sharqiy turk xoqonlari G‘arbiy turk boshqaruvchilari – “Jebu-xoqon”lardan ustun bo‘lishgan. “Jebu-xoqon” eski turkcha “yabg‘u-xoqon” yoki “jabg‘u-xoqon” unvonlarining fonetik ko‘rinishlaridan biridir. Turk xoqonligini tuzgan og‘a-ini Bumin va Istami izdoshlari xoqonlikni ikki qanotga bo‘lib, Bumin avlodlari Sharqiy Turk xoqonligi - bosh xoqonlik maqomidagi Sharqiy qanotni “xoqon” unvoni bilan boshqargan bo‘lsalar, Istamining avlodlari ushbu qanotga bo‘ysunuvchi G‘arbiy qanot sifatida “yabg‘u” yoki “yabg‘u-xoqon” unvonini meros qilib olgan edilar. Buni Istami avlodlari xitoy yilnomalarida “G‘arbiy turklar”, “Yabg‘u turklari” kabi iboralar bilan eslatilishidan tashqari ushbu qanot boshqaruvchilaridan ko‘pchiligi “yabg‘u-xoqon” unvonida tilga olinishi ham ko‘rsatib turibdi (Chavannes 1903: 219; Кляшторний 1985: 165–168).

Bumin avlodlarining boshqaruv markazi O‘rxun vodiysi (Mo‘g‘uliston) o‘laroq Janubiy Sibir, Oltoy va Shimoliy Xitoy Sharqiy Turk xoqonligiga merosiy ulus qilib berilgan bo‘lsa, Istami avlodlari boshqargan G‘arbiy Turk xoqonligi markazi Oltin-tog‘ (Yulduz vodiysi – Sharqiy Turkiston), Suyab (Yettisuv)da o‘laroq Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i, Xuroson, Shimoliy Hindiston, Volgabo‘yi, Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo‘ylarini egallagan edi. Har ikkala qanot orasidagi chegara Oltoy tog‘larining janubi-g‘arbiy etaklari bo‘lgan.

Bu holat eski turk davlatchiligida Sharqiy qanot G‘arbiy qanotga qaraganda ustun deb bilinib, shu yo‘sinda hokimiyat qonuniyligi – legitimliligi saqlanganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, ayrim G‘arbiy turk boshqaruvchilarining bu tartibni buzib, o‘zini “xoqon” deb e’lon qilgani va Sharqiy qanot boshqaruviga ko‘z olaytirgani haqida ma‘lumotlarga duch kelinadi. Xitoy yilnomalarida Istami yabg‘uning o‘g‘li Tardu (576–583; 600–603) o‘zini “xoqon” deb e’lon qilgani va Sharqiy Turk xoqonligi tuproqlarida harbiy yurishlar uyushtirgani eslatib o‘tiladi (Бичурин 1950, I: 242). Toshkent (eski Choch) o‘lkasida topilayotgan tangalarning bitta turida sug‘diy yozuvda trδw x’γ’n “Tardu xoqon”, Samarqand (eski Sug‘d) va Jizzax (eski Ustrushona) oralig‘idan topilayotgan tangalarda ham sug‘diy yozuvda trδw “Tardu” ismining uchrashi – bularning barchasi ayrim yabg‘ularning “xoqon” unvonini egallashga uringanini ko‘rsatadi (Бабаяров 2021: 12–24). Biroq eski turk davlatchilik qonunlari – “to‘ru-tuzuklar”iga tayangan jamiyat tomonidan bu kabi holatlar yaxshi qabul qilinmagan. Tarduning bu intilishlarini ko‘pchilik, ayniqsa, yetakchi qo‘mondonlar qo‘llab-quvvatlamagani va ko‘p o‘tmay u boshqaruvdan chetlashtirilgani yilnomalarda aytib o‘tiladi (Бичурин 1950, I: 242).

618–630 yoki 618–628 yillar oralig‘ida G‘arbiy Turk xoqonligi boshqaruvida bo‘lgan Tun yabg‘u-xoqon, undan keyin ketma-ket G‘arbiy xoqonlikni boshqargan o‘g‘li Sir jabg‘u-xoqon tangalarida sug‘diy yozuvda twn cpγw x’γ’n “Tun jabg‘u-xoqon”, ’rpy ’šp’r’ syr (?) cpγw x’γ’n “Elbi Ishbara Sir jabg‘u-xoqon” kabi ism va unvonlarning uchrashi G‘arbiy qanot boshqaruvchilarining boshlang‘ichda Bumin va Istami avlodlari o‘zaro kelishuvga ko‘ra ish yuritganliklarini ko‘rsatadi. G‘arbiy Turk xoqonligining “Jabg‘u-xoqonlik chog‘i”da bostirilgan ushbu tangalarda  ko‘rinishidagi tamg‘a o‘rin olgan bo‘lib, shunday tamg‘ali tangalarning yana bir turida “Jabg‘u-xoqon” unvoni uchrashi ham tanga zarbida eski turk davlatchilik an’analari

– “to‘ru-tuzuk”lar yetakchilik qilganini ko‘rsatadi.

Farg‘ona vodiysi tangalari 𐰴 ko‘rinishdagi tamg‘a bilan emas, 𐰴 ko‘rinishidagi tamg‘a bilan bostirilgani ushbu tangalar ham G‘arbiy Turk xoqonligining Choch vohasida bostirgan 𐰴 ko‘rinishdagi tamg‘ali tangalari bilan bir davrda – xoqonlikning “Jabg‘ulik chog‘i”da yoki shunga yaqin yillarda chiqarilgan bo‘lsa kerak deb qarashga undaydi. Farg‘ona tangalarida o‘rin olgan “jabg‘u” unvoni ham, “turk-xoqon” iborasi (etnosiyosiy atama yoki qo‘shaloq unvon) ham bu tangalarning xoqonlik “Jabg‘ulik bosqichi”da – VI asrning so‘nggi choragi – VII asrning boshlarida, yo bo‘lmasa, undan birmuncha keyin chiqarilgani to‘g‘risidagi qarashlarimizni qo‘llab-quvvatlaydi. Aslida Farg‘ona vodiysi Choch, Ustrushona, Sug‘d, Buxoro kabi voha hukmdorliklari singari VI asrning 60- yillarida Turk xoqonligi qo‘l ostiga o‘tgan bo‘lib, xoqonlik boshlang‘ichda ularning o‘z boshqaruvini saqlab qoladi, keyinchalik – VI asrning 90- yillarida Sug‘dda, VII asrning boshlarida Choch va To‘xoristonda kelib chiqishi G‘arbiy Turk xoqonligiga borib taqaladigan sulolalar boshqaruvi o‘rnatiladi. “Tan-shu” yilnomasida keltirilishicha, Tardu xoqon Kan (Sug‘d)ga “tegin” unvonli xoqonlik vakilini yuborgan bo‘lsa, G‘arbiy turk boshqaruvchilaridan Sheguy 605-yilda Shi “Tosh”kent hukmdori Shi Nyeni o‘ldirib, uning o‘rniga xoqonlik vakili Tegin Tyanjini tayinlaydi (Бичурин 1950, II: 313; Chavannes, 1903: 141). 620- yillarda G‘arbiy turk hukmdori Tun yabg‘u-xoqon (618–630) Tuxolo (To‘xoriston)ga o‘g‘li Tardu-shadni yuboradi va shu yo‘sinda bu yerda To‘xoriston Yabg‘ulari sulolasi boshqaruvi o‘rnatiladi (Бичурин II: 321–322; Chavannes 1903: 155–158; Harmatta, 1996: 373).

Farg‘ona boshqaruvida ham shunga o‘xshash o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lib, bu yerdagi sulola yuqorida keltirib o‘tilgan voha hukmdorliklardan birmuncha kechroq almashgani xitoy yilnomalaridagi bilgi – ma’lumotlar orqali o‘z tasdig‘iga ega. Boshqa tomondan esa Farg‘onada Ashina sulolasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruvi Chochda bo‘lganidek, VII asr boshlarida yuz bergan, xitoy yilnomalarida keltirilgan quyidagi bilgilar esa vodiyda navbatdagi siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin degan qarashlarga yetaklaydi.

*“Tan-shu” yilnomasida “G‘arbiy turk hukmdori Kan Moxedu (*To‘n Bahodur) (Farg‘ona) hukmdori Kibini o‘ldirdi, Ashina Shuni (𪜈 𪜔) uning shahrini qo‘lga kiritdi ... uning (Ashina Shunining) o‘g‘li Ebochji (marhum) Kibining ukasiga hukmdor unvonini berib Xumin (Quva?) shahrida boshqaruvga tayinladi, Ebochji Gyesay (Koson) shahrida boshqaruvga o‘tirdi. Syan-sin davrining boshlanishida (656-y.) Ebochji (Xitoyga) elchi yuborib, sovg‘alar tortiq qildi” degan bilgilar uchrab (Бичурин 1950, II: 319; Малявкин 1989: 188–189), bu esa Farg‘ona kuchlarining birlashtirilishida Ashina sulolasining o‘rni bo‘lakcha bo‘lganini ko‘rsatadi.*

Bu kabi o‘zgarishlar “Tan-shu”da “Chjen-guan davrida (627-649-yillarda)” bo‘lib o‘tgani aytilsa-da, ayrim ma’lumotlarga tayanilsa, boshqaruvdagi almashinuv 630–640-yillar oralig‘ida yuz bergan ko‘rinadi. Chamasi, 630- yillar boshida Tun Yabg‘u-xoqonni (618–628/630) o‘ldirib, xoqonlik taxtini egallagan amakisi Moxedu (*Bahodur; 628/630–631) xoqon bilan Farg‘onaning yerli boshqaruvchisini o‘ldirgan G‘arbiy turk hukmdori Kan / Dun Moxedu (*To‘n Bahodur) bir kishi edi (qar. Бичурин 1950, I: 284; II: 319).

Qisqasi, bu holat Choch tangalarida yetakchilik qilib, Farg‘ona tangalari bugungacha yetarli o‘rganilmagani uchun bu borada aniq bir to‘xtamga kelish qiyin. Biroq G‘arbiy turk boshqaruvchilari, ya’ni G‘arbiy xoqonlikning Farg‘ona tarmog‘i Farg‘onada tanga bostirish ishini yo‘lga qo‘yar ekan, Chochda bo‘lgani kabi bu yerda eski turk davlatchilik an’analari bo‘yicha ish tutganliklari ko‘zga tashlanadi.

3. Farg‘ona tangalarining ikonografiyasi. Choch va Farg‘onaning ushbu tangalarida “xoqon” unvoni uchrashi va Chochda o‘z tangasini bostirgan G‘arbiy turk xoqonlari bilan Farg‘ona Ashina sulolasi orasida yaqin qarindoshlik bo‘lganini ko‘rsatishini birgina o‘xshash unvon va tamg‘alarda emas, tasvirlardagi o‘zaro o‘xshashliklarda ham ko‘rsa bo‘ladi. Har ikkala tarixiy

o‘lka tangalarining old yuzasidagi tasvirlar deyarli birday: uzun sochli, qisiq ko‘zli, soqolsiz, yumaloq yuzli hukmdor bosh tasviri. Shunga o‘xshash tashqi ko‘rinish va tamg‘a bichimlari (/) Choch Teginlari (605–750) tangalarida ham o‘rin olgan (9-10-rasmlar) (Бабаяров 2019: 338, 355–358).

Qizig‘i shundaki, xoqonlik chog‘i Choch, Farg‘ona va Sug‘d tangalaridagi boshqaruvchi tasvirlari eski turklarni eslatib (yelkaga tushgan uzun soch, soqolsiz, keng yumaloq yuz, biroz qisiq ko‘z), bu tomondan bunday o‘ziga xosliklar eski turkiylarning tashqi ko‘rinishi to‘g‘risida yozma manbalarda tilga olingan bilgi – ma’lumotlarga uyg‘un keladi (Tugusheva 1991: 5–6). Bundan tashqari, VII – VIII yuzyilliklarda chizilgan O‘rta Osiyo devoriy rasmlari – Afrosiyob (Samarqand), Tavka-qal’a, Panjikent, Ajinatepa yodgorliklaridagi turkiylarning tashqi ko‘rinishi, soch turmagi va boshqalar Farg‘ona, Choch va Sug‘dning turkiy tangalaridagi tasvirlar bilan yaqin o‘xshashlikka ega (Arzhantseva, Inevatkina 2006: 185–211; Mode 2006: 107–128).

As-Sam’oniy hamda An-Nasafiylarning qayd etishicha, Ishtixanga qarashli Binkat, Bardod, Xaydashtar yoki Xandashtar, Zar, Zovar, Kabuz, Muzan yoki Muznova, Rastag‘far, G‘urajk, Sog‘arj, Faran, Farankat yoki Afrankad, Naukazak va Maban kabi qishloqlari bo‘lgan (Ас-Самьани 2018: 188–189; Камолиддин 2014: 72).

Temuriy davri yozma manbalarida jumladan, Hofizi Abro‘ o‘zining “Geografiya” asarida Samarqandga qarashli bo‘lgan tumanlar orasida Ishtixan nomi ham tilga olingan va “*ba’zi kitoblarda Nurni ham Ishtixanga kiritmishlar*” deb zikr etadi (Бўриев 1997: 81). Shayboniylar davridan boshlab Samarqandning shimoli-g‘arbida joylashgan “Sug‘di Kalon” (Katta Sug‘d) va “Sug‘di Xurd” (Kichik Sug‘d) deb atalgan tumanlarning nomi o‘zgarib, Ofarinkent, deb atala boshlangan (Вяткин 1902 14; Каттаев 2020: 54). Shuningdek, o‘rta asrlar davri yozma manbalarida Ofarinkent tumani joylashgan Oqdaryo va Qoradaryo oralig‘idagi hududi Miyonkol deb ham atalgan (Заҳириддин Муҳаммад Бобур 2008: 79; Ҳофиз Таниш ал-Бухорий 1999. 7–8, 61). Mang‘itlar sulolasi davrida Miyonkol viloyati hududida Ofarinkent, Payshanba, Yangiqo‘rg‘on kabi tumanlar faoliyat ko‘rsatgan (Пардаев 2014: 42–43).

Fransuz kartografi J. Delil (1675-1726)ning 1724 yildagi “Map of Persia” xaritasida Kushoniya va Ishtixan shaharlari daryoning o‘ng tomonida, Dabusiya, Arbinjon esa daryoning chap tomonida joylashgan (De L’Isle’s 1724; Иневаткина, Сучилин 2016: 80, рис.4).

E. fon Sambauraning ma’lumotiga ko‘ra, Qoraxoniylar davrida 34 zarbxona faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ular orasida Sug‘dning Samarqand, Dabusiya, Kushoniya, Ishtixan, Kesh, Karmana va Buxoro nomlari uchraydi va ularda tangalar 413–431/1022–40 h. yillarda zarb etilgan (Кочнев 2005: 44, 49, 176; Lurje 2014: available at http://www.iranicaonline.org/articles/koshaniyeh).

Yozma manbalarda qayd etilgan Ishtixanning markaziy shahrini B.A. Turg‘unov Oqdaryoning o‘ng tomonida joylashgan Arktepa (Sog‘ishtepa) yodgorligi bilan (Тургунов 1963: 55), G.A. Pugachenkova esa Ishtixan shahri markazida joylashgan shu nom bilan ataluvchi tepa bilan lokalizatsiya qilgan (2-rasm). Ishtixantepada yodgorligi o‘rta asrlar davri shaharlariga xos bo‘lgan ark, shahriston va rabad qismlaridan iborat. Uning shahriston qismining o‘lchami 500x600 m. Ushbu yodgorlikda 1979 yilda olib borilgan qazuv tadqiqotlari natijasida, shahar VI-VII asrlarda shakllangan, Somoniylar davriga kelib yanada rivojlangani ammo mo‘g‘ullar bosqini natijasida shahar vayron bo‘lgan va unda hayot to‘xtagan (Пугаченкова 1989: 156–162, 189).

Shu o‘rinda mahalliy aholi orasida Ishtixan nomi kelib chiqishiga oid qiziq rivoyat mavjud. Rivoyatga ko‘ra, ilgari Ishtixandan Samarqandgacha quvur orqali qimiz yetkazib keltirilgan va uni xon tatib ko‘rgach, “ichdi xon” degan va undan “Ishtixan” nomi kelib chiqqanligi haqida so‘z yuradi (Қораев 2005: 114). Biroq Ishtixan nomi xonlar davri bilan emas, balki undan oldingi davrlarga oiddir (Ғойибов 2015: 180).

“Ishtixan” toponimi sug‘dcha *’šty* va *x’n* so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “*sakkiz buloq*” ma’nosini anglatadi (Лурье, 2004: 72, 145). Ishtixan hamda Oqdaryo tumanlari Zarafshon vodiysining o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, hudud gidrogeologik jihatdan sersuv hisoblanadi. Bu yerdagi asosiy sug‘orish manbalari Zarafshon daryosi, undan bosh olgan kanallar, soylar, buloqlar hamda yer osti suvlaridan iborat. Tadqiqotchilar ma’lumotlariga ko‘ra, yer osti suvlarining sathi o‘rtacha 3–8 metr chuqurlikda joylashgan, ayrim pastqam nuqtalarda esa bu ko‘rsatkich 1,5–2 metrgacha yaqinlashadi. Bu holat hududdagi suv resurslarining serobligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan, “Ishtixan” atamasining “sakkiz buloq” ma’nosini anglatishi hududning tabiiy gidrografik sharoiti bilan bog‘liq holda shakllangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

As-Sam’oniy va An-Nasafiy asarlarida Ishtixan shahriga qarashli bo‘lgan bir qator qishloqlarn ing nomlari keltirib o‘tilgan. Bunda Sog‘arj Samarqanddan 5 farsax uzoqlikda joylashganligini qayd etgan (ас-Самъоний 2017: 120). An-Nasafiyning “Qandiya” asarida “*Shayx Burhoniddin Sog‘arjiy xalifa Umar ibn al-Xattob naslidandir. Ul kishining Sog‘arjiy deb nomlanishining sababi, (VIII asr) islom lashkarlari Samarqandga yetib kelganlarida, Sog‘arj qal’asi Samarqand va Buxorodan keyingi eng katta qal’a bo‘lganligi uchun ham u tomonga qarab yurish boshlashadi hamda qal’ani qamal qilishadi. Biroz vaqtdan so‘ng uni egallaydilar va qal’ani boshqarishni Hazrat Shayx Sog‘arjiyning o‘sha zamondoshdagi ajdodlariga topshiradi*” (ан-Насафий 2016: 40). Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” nomli asarida “*Sog‘arch – Samarqandning to‘rt yig‘ochida bir kentdur*” (Алишер Навоий, 2001: 423), deb ta’kidlagan. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temurning uzoq harbiy yurishlardan so‘ng Sog‘arjda bir necha marta bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi (Шарафуддин Али Йаздий 1997: 54). Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” (Ҳофиз Таниш ал-Бухорий 1999: 106, 236) va Abu Tohirxo‘janing “Samariya” (Абу Тоҳирхўжа 1991: 35) asarlarida Sog‘arj tuman shaklida, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asarida (Ashtarxoniylar davrida) Sog‘arj viloyat tarzda tilga olingan (Пардаев 2017: 95).

Yozma manbalarda qayd etilgan Sog‘arjning joylashuv o‘rnini V.L. Vyatkin Yangiqo‘rg‘ondan 4 chaqirim g‘arbda joylashganini qayd etadi (Вяткин 1902: 62). B. Valixo‘jaev esa Yangiqo‘rg‘on yaqinida Sug‘oncha nomli qishloq borligini va bu qishloqning nomi Sog‘arjga yaqin bo‘lsada, keyingi ilmiy izlanishlar natijasida bu masalaga oydinlik kiritilish lozimligini zikr etgan (Валихожаев 1994: 54). Qadimgi Sog‘arj shahrining o‘rni Payariq tumaniga qarashli bo‘lgan Qoraxoni va Ko‘rmulla qishloqlarining orasida joylashgan Sog‘ishtepa (Arktepa) yodgorligi lokalizatsiya qilingan (3-rasm). Sog‘ishtepa (Arktepa) yodgorligining maydoni 100 gektardan ortiq bo‘lib, arki shahristonning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan, tarhi 150x100 m, balandligi 15 m



2-rasm. Fransuz kartografi J. Delil tomonidan 1724 yilda tuzilgan Carte de Perse xaritasi. Kushoniya va Ishtixan shaharlari daryoning chap tomonida aks ettirilgan

Рис. 2. Carte de Perse (1724) французского картографа Ж. Делиль, на которой показаны города Кушония и Иштихан на левом берегу реки

Fig. 2. Carte de Perse (1724) by French cartographer J. Delille, showing Kushania and Ishtikhan cities on the left bank of the river

atrofida. Hozirgi kunda arkning usti to‘laligicha qabriston bilan qoplangan. Shahriston tarhi ham to‘g‘ri-to‘rtburchak shaklda bo‘lib, tomonlari 400x500 m. (Буряков, Вафаев 1990: 43–48; Раимкулов 2017: 85–87).

Abu Tohirxo‘janing “Samariya” asarida Burhoniddin Sog‘arjiyni Sog‘arj tumanidan ekanligi va shu asarda Hazrat Muhlisxon mozorini Ofarinkent tumanidagi Sug‘onchi degan joyda joylashganligini (Абу Тоҳирхўжа 1991: 35, 58) hisobga olsak, o‘rta asrlarda Sug‘onchi qishlog‘i Ofarinkent tumaniga qaraganligi yanada oydinlashadi. Ya’ni, Sog‘arj Oqdaryoning o‘ng tomonida joylashgan tuman. Shu o‘rinda, Ibn Havqal Ishtixan hududi Sog‘arj tog‘laridagi Yag‘on orqasidan boshlanishini qayd etib o‘tgan. Markaziy Davlat Arxivi fondida saqlanayotgan 1902 yilga Kattaqo‘rg‘on uezdi xartasida (Карта Катта-Курганского уезда... 1902) O‘rta To‘sin yaqinida Juvan Tayoq nomli qishloq qayd etilgan. (4-rasm). Shuningdek, 1926 yili O‘zbekiston SSR aholisini ro‘yxatida Metan tumaniga qarashli bo‘lgan To‘sinsoyda Yo‘g‘on-Tayoq nomli qishloq bo‘lgan (Материалы всесоюзной переписи... 1927: 109). Ushbu qishloq hozir ham mavjud bo‘lib, Nurotaning janubiy tizmasiga kiruvchi Qoraqchitog‘da joylashgan.

1902 yilda tuzilgan tarixiy xaritada Kattaqo‘rg‘onga qarashli hududlar tarkibida Oqdaryoning shimol tomonida joylashgan Yarboshi, Oqtepa, To‘sin va Metan volostlari nomi qayd etilgan. Ushbu xaritaga ko‘ra, Metan volosti tarkibiga kirgan Farhod yavu, Qirqaychi, Karimxoja, shuningdek, To‘sin volostiga qarashli bo‘lgan G‘aray va Qur Safar qishloqlari Samarqand uezdi bilan chegaradosh bo‘lgan. Shuningdek, To‘sin volostiga qarashli Kulto‘sin, Achi Gilli, Oqtepa hududidagi Xachcha, Baki, Zarbant, Andakqo‘rg‘on hamda Yarboshi volostining Burganli va Tasmachi qishloqlari Buxoro bilan chegarada joylashgani qayd etilgan (5-rasm).

Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi fondida saqlanayotgan 1923 yilga oid Samarqand viloyati xaritasida ham mazkur chegaralar saqlanib qolganligi kuzatiladi. Yozma va kartogarfik manbalarning ilmiy tahliliga ko‘ra, Oqdaryoning shimoliy hududlari – Yarboshi, Oqtepa, To‘sin va Metan volostlari o‘rta asrlarda Sog‘arj viloyati tarkibiga kirgan. Shu sababli yozma manbalarda



3-rasm. Sog‘ishtepa (Arktepa) yodgorligining umumiy ko‘rinishi
Рис. 3. Общий вид археологического памятника Согиштепа (Арктепа)
Fig. 3. General view of the Soghis-tepa (Arktepa) archaeological site

Sog‘arj ham viloyat, ham tuman sifatida tilga olinadi. Sog‘arj tog‘lari deyilganda ehtimol, hozirgi Qoraqchitog‘ va qisman unga tutashgan Oqtog‘ tizmalari nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin.

Qorachatog‘da joylashgan Yo‘g‘on qishlog‘i esa hozirgi vaqtda “Yo‘g‘on-Tayoq” nomi bilan ma’lum. Qo‘shrabot tumani tarkibidagi Jo‘sh qishlog‘i o‘rta asr yozma manbalarda “Zush” yoki “Xazar-Jo‘sh” shaklida qayd etilgan. As-Sam’oniyning “Kitob al-ansob” asarida ham Buxoro viloyatidagi Nur yonida “Sijor (yoki Jijor)” va “Zush” nomli qishloqlar mavjudligi haqida ma’lumot beriladi (Ас-Самъоний, 2018: 145, 160). Toponimik tahlilga ko‘ra, “Sijor–Jijor” qishlog‘i hozirgi Nurota tumanidagi Jadir qishlog‘i bilan, “Zush” qishlog‘i esa Jo‘sh qishlog‘i bilan lokalizatsiya qilish mumkin. Hadis ilmi namoyondalaridan biri Abu Bakr Muhammad ibn Abdusayyid as-Surmoriy az-Zushiy an-Nuriy ham aynan shu qishloqdan chiqqanligi ma’lum (Ас-Самъоний, 2017: 38–39).

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan o‘rta asrlarda Buxoro Sug‘di bilan Samarqand o‘rtasidagi tabiiy chegara Sog‘arj (Sog‘orch) tog‘i bo‘lgan (1–9-rasmlar).


As-Sam’oniyning qayd etishicha, Farankat yoki Afrankad Ishtixanga qarashli bo‘lib, Samarqanddan 5 farsax uzoqlikda joylashgan (Ас-Самьани 2018: 212). Abu Muhammad Bakr ibn Mas’ud al-Farankadiy as-Sug‘diy shu qishloqdan bo‘lib, Abdulloh ibn Hammod al-Omuliy, Abdusamad ibn Fazl al-Balxiy, Abu Hafs Umar ibn Hafs al-Bohiliy va Sa’d ibn Xushnom as-Samarqandiydan ta’lim olganlar.



4-rasm. 1902 yilgi Kattaqo‘rg‘on uezdi xaritasi.
Рис. 4. Карта Каттакурганского уезда 1902 года
Fig. 4. 1902 map of the Kattaqorgon district

Ahmad ibn Abdulvohid ibn Mansur al-Afrankadiy faqih, fozil, mudarris bo‘lib, u Farankad qishlog‘ining muftiysi ham bo‘lgan. U hijriy 527 (milodiy 1134) yilning sha’bon oyida vafot etganlar (ac-Самъоний 2017: 129). Noma’lum muallif tomonidan yozilgan “Hudud ul-olam (Movarounnahr tasnifi)” asarida Afrankad Farnkas shaklda qayd etilib, u (Zarafshon) daryo bilan Ishtixan oralig‘ida joylashgan (Ҳудуд ул–олам 2008: 12). XIX asrda faoliyat yuritgan fransuz kartografi Fransua-Adolf Garne 1861 yilda nashr etilgan “Osiyo Turkiyasi, Arabiston, Fors va Turkiston” (Asie Occidentale. Turquie d’Asie, Arabie, Perse, Turkestan) nomli xartasida (Garnier 1861) (6-rasm) Ofarinkat nomi qayd etilgan. Markaziy Davlat Arxivi fondida saqlanayotgan 1892-1901 yillarda Y. Vasilev, V. Mixaylov va R. Murashko tomonidan tuzilgan Samarqand uezdi xaritasida Karqaliga qarashli bo‘lgan Prinkent nomi uchraydi (Карта Самаркандского уезда... 1901) (7-rasm) Yozma manbalarda qayd etilgan Farankat yoki Afrankad o‘rni Oqdaryo tumani Primkent qishlog‘i hududida joylashgan O‘g‘il va Qiztepa deb nomlangan Qo‘shtepa arxeologik yodgorligi bilan lokalizatsiya qilingan (8-rasm). Yodgorlikning umumiy maydoni 14 gektarga yaqin. Yodgorlikda G. Grigorev boshchiligida 1936-1937 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu yerdan 163^2 m maydondan 200 dan ortiq bo‘lgan ichiga suyak solingan xumlar ochib o‘rganilgan (Григорьев 1939: 144–150). Shuningdek, ilk o‘rta asrlarda oid bo‘lgan Sug‘d tangalari orasida Prinkent tangalari ham uchraydi. Bunda tanganing avers tomonida hukmdor tasviri, reversi markazida tamg‘a va uning atrofida sug‘dcha *prnktyk xwβ* ya’ni “*Farnkat hukmdori*” deb yozilgan (Бегматов, Бобоёров, Гойибов, Кулиш, Лурье, Наймарк 2024: 160) .

As-Sam’oniyning qayd etishicha, **Zar** Ishtixan qishloqlaridan biri bo‘lib, Yahyo ibn Xuzayma az-Zariy al-Ishtixaniy shu qishloqdan bo‘lgan (Ac-Самъоний 2017: 118). XIX asrda Chalpanchi nomli ariq Dahbed shahri yaqinida Oqdaryodan bosh olib, Zar qishloq hududida yana Oqdaryoga quyilgan (Соболев 1873: 239). Ushbu qishloq Kumushkent mahallasi hududida joylashgan bo‘lib, Jar qishloq deb nomlanadi (7-rasm). Shu o‘rinda, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”asarida sug‘d oylaridagi hayitlar haqida ma’lumot berar ekan bunda “*Majido — oyning uchinchi kuni kashmin hayitidir. Shu kun Sug‘dning Kumujkat qishlog‘ida bozor*



5-rasm. Ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda Ishtixan
Рис.5. Иштихан в раннем и развитом средневековье
Fig. 5. Ishtikhan in the early and high medieval periods

bo‘ladi” deb ma’lumot beradi (Бируни 1957: 254). G.A. Pugachenkova yozma manbada qayd etilgan Kumujkatni Oqdaryo tumanida joylashgan Kumushkent bilan lokalizatsiya qilgan. Kumushkent nomi Sharafuddin Ali Yazdiy asarida (Шарафуддин Али Яздий 1997: 47) va Abu Tohirxo‘janing “Samariya” (Абу Тоҳирхўжа 1991: 57; Каттаев 2020: 34), Nosiriddin Husayn Buxoriyning “Tuhfatuz zoyirin” (Каттаев 2017: 234) asarlarida ham uchraydi. V.I. Raspopova G.V. Shishkinalar yozma manbadara qayd etilgan Bardodni Kumushkent yodgorligi bilan lokalizatsiya qilgan (Распопова, Шишкина 1999: 53). Kumushkent nomi 1902 yilgi haritadagi Samarqand viloyati xaritasida ham uchraydi. Demak yozma manbalarda qayd etilgan Bardod-Kumujkat-Kumushkent ham Ishtixan qishloqlaridan biri bo‘lib, uning nomi hozirda ham Kumushkent deb nomlanadi. Kumushkent qishlog‘ida “Kumushkent” nomi bilan ataluvchi tepalik saqlanib qolgan bo‘lib, o‘lchami 120x75 m, balandligi 25 m, miloddan avvalgi III-II asrdan XVIII-XIX asrlarga faoliyat ko‘rsatgan (Пугаченкова 1989: 65).

As-Sam’oniy Ishtixanga qarashli bo‘lgan Muzan nomli qishloq ham bo‘lganligini qayd etib o‘tgan. XV-XVI asrlarga oid bo‘lgan vaqf hujjatlarida Miyonkolda Muzan nomli qishloq va ariqning nomi tilga olingan (Чехович 1974: 72–79; Ас-Самьани 2018: 210). 1892–1901 yillarda Samarqand uezdi xaritasida Muzan qishlog‘i Loyish yaqinida qayd etilgan (9-rasm). Ushbu qish-



6-rasm. Fransua-Adolf Garne tomonidan 1861 yilda tuzilgan Asie Occidentale. Turquie d’Asie, Arabie, Perse, Turkestan nomli xarita
Рис.6. Asie Occidentale. Turquie d’Asie, Arabie, Perse, Turkestan (1861) Франсуа-Адольфа Гарнье
Fig. 6. Asie Occidentale. Turquie d’Asie, Arabie, Perse, Turkestan (1861) by François-Adolphe Garnier

loq hozirda ham Muzan deb nomlanib Oqdaryo tumanidagi Yangiobod mahallasida joylashgan. Muzan qishlog‘ining janubi-sharqida Muzantepa II yodgorligi lokalizatsiya qilish mumkin. Yodgorlik tarhi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, uzunligi 242 m, eni 212 m, balandligi esa 9 m.ga teng. Yodgorlik III-IV, V-VIII, X-XII asrlar bilan davrlashtirilgan. Ya’ni ushbu yodgorlik o‘rta asrlar yozma manbalarda qayd etilgan Muzanning markaziy shahri bo‘lgan.


Ташкентъ
Ходжентъ
Ура-Тюбе
Ленгеръ
Ходжа-Кульянъ
Ташкентъ
Ханыкинъ
Ханыкинъ
Ханыкин



8-rasm. Primkent markazi bo‘lgan O‘g‘il va Qiztepa arxeologik yodgorligining umumiy ko‘rinishi
Рис. 8. Общий вид археологических памятников Угиль и Кизтепа, с центром в Примкенте
Fig. 8. General view of the archaeological sites of Ugil and Kiz-tepa, centered on Primkent

Rastag‘far ham Ishtixan qishloqlaridan biri bo‘lgan (ас-Самъоний 2017: 115). Imom Abul Hasan Ali ibn Said ar-Rastug‘foniy Ishtixanga qarashli bo‘lgan Rastag‘far qishlog‘ida tug‘ilgan va 350/961 yilda vafot etgan. U mashhur hadisshunos, hanafiy mazhabidagi fiqhshunosi bo‘lgan (Kattaev 2017: 228). Imom Abul Hasan Ali ibn Said ar-Rastug‘foniyga ta’luqli bo‘lgan qabr toshi hozirda Mansur Moturidiy majmuasida saqlanmoqda. Qabr toshida *ushbu qabr buyuk, taqvodor shayx ul-imom Abu-l-Hasan Ali ibni Sa‘id ar-Rustug‘faniyning qabrlaridur. U kishiga Allohning rahmati bo‘lsin* deb yozilgan (Амиров 2020: 305).

V.L. Vyatkin Rastag‘far qishlog‘ini Ishtixanga qarashli bo‘lgan Boyliota qishlog‘i o‘rida bo‘lganligini qayd etadi (Вяткин 1902: 49; Бартольд 1963: 181). Boyliota mahallasida joylashgan yodgorlik uning markazi bo‘lib, yodgorlik mahalliy aholi tomonidan turar joy qurilishi natijasida buzilib ketgan. Uning rabad qismida Imom Abul Hasan Ali ibn Said ar-Rastug‘foniy dafn etilgan va hozirgi vaqtda qabristonga aylantirilgan.

Ishtixanning Rastag‘far (Boyliota), Muzan (Muzan), Bardod (Kumushkent), Zar (Jar), Farankat yoki Afrankad (Primkent) kabi shahar va qishloqlari Oqdaryo va Qoradaryo oralig‘ida, shuningdek, unga qarashli bo‘lgan Sog‘arj (Sog‘ishtepa – Arktepa) rustoqi esa Oqdaryoning o‘ng tomonida joylashgan.

Xulosa. Ishtixan hukmdorligi tarixi va uning joylashuv o‘rni Markaziy Sug‘dning siyosiy-geografik tizimida muhim o‘rin tutadi. Zarafshon vohasining o‘rta qismida joylashgan bu



9-rasm. 1892–1901 yillarda Y. Vasilev, V. Mixaylov va R. Murashko tomonidan tuzilgan Samarqand uezdi xaritasi

Рис.9. Карта Самаркандского уезда, составленная в 1892–1901 гг. Е. Васильевым, В. Михайловым и Р. Мурашко

Fig. 9. Map of the Samarkand district, compiled in 1892–1901 by E. Vasiliev, V. Mikhailov, and R. Murashko

hudud ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda nafaqat iqtisodiy, balki diniy markaz sifatida ham katta ahamiyat kasb etgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hukmdorlikning siyosiy chegarasi vazifasini tabiiy geografik omillar – suv manbalari, irrigatsiya tizimlari va tog‘lar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Xitoy, arab va fors manbalarining ilmiy tahliliga ko‘ra, Ishtixan Kushoniya bilan chegaradosh hudud sifatida tilga olinadi. Manbalarda qayd etilgan Rastag‘far (Boyliota), Muzan (Muzan), Bardod (Kumushkent), Zar (Jar), Farankat yoki Afrankad (Primkent) kabi shahar va qishloqlar hukmdorlik tarkibiga kirgan bo‘lib, ular hozirgi Oqdaryo va Qoradaryo oralig‘ida, ya’ni Dahbetdan Ishtixanning Azamat qishlog‘igcha bo‘lgan hududlarni qamrab olgan. Unga qarashli bo‘lgan Sog‘arj (Sog‘ishtepa – Arktepa) rustoqi esa Oqdaryoning o‘ng tomonida joylashgan. Sog‘arj tog‘lari deyilganda ehtimol, hozirgi Qoraqchitog‘ va qisman unga tutashgan Oqtog‘ tizmalari nazarda tutilib, Ishtixan ushbu tog‘lar orqali shimol va shimoli – g‘arbda Buxoro viloyatidagi Nuri qishloqlaridan bo‘lgan Cho‘sh (Jo‘sh) bilan chegaradosh bo‘lgan.

Ishtixan hududi Samarqanddan keyingi ikkinchi yirik siyosiy markaz bo‘lib, u Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan Samarqand va Buxoro orasidagi savdo, hunarmandchilik va madaniy markazdir.

FOYDALANILGAN ADABIYATLAR RO‘YXATI:

Абу Рейхон Бируний. Памятники минувших поколений / Пер. М. А. Салье. Избранные произведения. Т. 1. Ташкент: АН УзССР, 1957. 488 с.

Ан-Насафий. Қандия / Форс тилидан таржима, тадқиқот, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифи К. Каттаев. Самарқанд: Сугдиён, 2016. 72 б.

Абу Тоҳирхўжа. Самария / Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Хуршид Даврон. (Мерос туркуми). Тошкент: Камалак, 1991.

Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат / Арабча ва форсча матнларни таржима қилиб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир С. Рафиддинов. Тошкент: Фан, 2001. 534 б.

Ал-Балозурий. Футуҳ ал-булдон. Хуросоннинг фатҳ этилиши / Сўзбоши, араб тилидан таржима, шарҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. Тошкент: Extremum-press, 2017. 440 б.

Ас-Самъаний. Китаб ал-ансаб. Важный источник по истории и культуре Средней Азии / Шамсиддин Камолиддин. Saarbrücken: LAP Lambert Academic Publishing, 2018. 389 б.

Ас-Самъаний. Насабнома (ал-Ансоб). VIII–XII асрларда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳақида / Араб тилидан таржима А. Бухорий ва К. Раҳимовлар. Тошкент: Hilol-nashr, 2017. 336 б.

Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена / Ред., текст и коммент. А. Н. Бернштама и Н. В. Кюнера. Т. II. М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1950. 336 с.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Ўзбек тилига таржима В. Раҳмонов ва К. Муллахўжаева. Тошкент: Ўқитувчи, 2008. 288 б.

Истахрий. Китаб ал-масолик вал-мамалик (Йўллар ва ўлкалар китоби) / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. Тошкент: Фан, 2019.

Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011. 400 б.

Малявкин А. Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: тексты и исследования. Новосибирск: Наука, Сибирское отделение, 1989. 432 с.

Сюань Цзан. Записки о Западных странах (эпохи Великой Тан) (Да Тан си юй цзи) / Введение, перевод с китайского и комментарий Н. В. Александровой. М.: Восточная литература, 2012. 463 с.

Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома (Шарафномайи шоҳий). Биринчи китоб / Форс тилидан таржима С. Мирзаев, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. Тошкент: Шарқ, 1999. 416 б.

Ҳудуд ул-олам (Моваруннаҳр тавсифи) / Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. Тошкент: O‘zbekiston, 2008. 64 б.

Чехович О. Д. Самаркандские документы XV–XVI вв. О владениях Ходжи Ахрара в Средней Азии и Афганистане / Факсимиле, критический текст, перевод, введение, примечания и указатели О. Д. Чехович. М.: Наука, 1974. 631 с.

Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома / Сўзбоши, таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар А. Аҳмедов ва Ҳ. Бобобеков. Тошкент: Шарқ, 1997. 384 б.

Idrisi, Abou Abdallah Mohammed. Géographie d’Edrisi. Tome II. Traduite de l’arabe en français, avec notes et éclaircissements, par P.-Amédée Jaubert. Paris: Imprimerie Royale, 1836. 504 p.

Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. СПб.: Императорская академия наук, 1903. С. 380.

ADABIYOTLAR:

Амиров У. Чокардиза қабристонидаги қабртошлар хусусида // Ўзбекистонда исломшунослик ютуқ ва истиқболлари мавзусидаги халқаро семинар мақолалари тўплами / Масъул муҳаррир Ҳ. Эрен, А. Муминов. Istambul, 2020. 267–319 б.

Ахунбабаев Х.Г. Древний Кабуданжакет (к вопросу локализации, генезиса и этапов развития раннефеодальных владений и средневековых рустаков Самаркандского Согда) // Археология Средней Азии. Тезисы докладов. Ташкент: Издательство САГУ, 1990. С. 26–28.

Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. I. М.: Восточная литература, 1963. 761 с.

Бегматов А.Х., Бобоёров Г.Б., Гоибов Б.С., Кулиш А.В., Лурье П.Б., Наймарк А.И. Каталог согдийских монетных легенд и надчеканов Центральной Азии / Отр. ред. А. Фейзулаев. Самарканд: МИЦАИ, 2024. 496 с.

Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиё (тарихий географик лавҳалар). Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 186 б.

Буряков Ю.Ф., Вафаев Г.А. Археологические материалы к истории древнего и средневекового Сагарджа // ОНУ. №11. Ташкент: Фан, 1990. С. 43–48.

Валихожаев Б. Хўжа Аҳрор тарихи (Самарқанд ва самарқандликлар). Тошкент: Ёзувчи, 1994. 96 б.

Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самарканского вилаета // Справочная книжка Самаркандской области. Вып. 7. Самарканд: “Товарищества”, 1902.

Григорьев Г. Зороастрийское костехранилище в кишлаке Фринкент под г. Самаркандом // ВДИ. №2. М., 1939. С. 144–150.

Иневаткина, О.Н., Сучилин, А.А. Транспортные пути самаркандских земель (по картографическим и археологическим источникам) // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. T, V. M,: Собрание, 2016. 76–108 с.

Камолиддин Ш. Новый источник по исторической географии Средней Азии. Новейшие исследования сочинения «ал-Канд фи зикр ‘улама’ Самарканд» Абу Хафса ‘Умара ибн Мухаммада ан-Насафи. Saarbrücken: LAP, 2014. 364 с.

Каттаев К. Самарқанднома (Шоҳизинда мажмуаси тарихи, Самарқанд мадрасалари ва илм-фан ривожи, Самарқанднинг буюк алломалари). 4 тўплам. Тошкент: MASHHUR-PRESS, 2017. 308 б.

Каттаев К. Юртимизнинг ўта буюк алломалари (Имоми Али Сўғдий ва Кумушкентдаги тариқат пирлари тарихи). Тошкент: Наврўз, 2020. 72 б.

Кочнев Б.Д. Нумизматическая история Караханидского каганата (991–1209 гг.). Ч.1. Источниковедческое исследование. М., 2005. 314 с.

Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. 240 б.

Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии. Дисс. ... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2004. 305 с.

Материалы всесоюзной переписи населения 1926 г. в Узбекской ССР. Вып. 1. Самарканд, 1927. 109 с.

Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент: ART-FLEX, 2010. 220 б.

Пардаев К. XVI–XVII асрларда Миёнкол. Тошкент: Turon Zamin Ziyo, 2014. 280 б.

Пугаченкова Г.А. Древности Мианкаля (из работ Узбекистанской искусствоведческой экспедиции). Ташкент: Фан, 1989. 204 с.

Раимқулов А. А. Катта Суғд – Сугдиёна. Тошкент: Iqtisod moliyachi, 2017. 208 б.

Распопова В.И., Шишкина Г.В. «Согд» // Средняя Азия в раннем средневековье. М.: Наука, 1999. С. 50–77.

Соболев Л.Н. Подобное описание арыков Зерафшанского округа // Туркестанский сборник. Т. 90. СПб., 1873. С. 239.

Тургунов Б.А. О местоположении средневекового города Иштихан // ОНУ, №11. Ташке

нт: АН УзССР, 1963. С. 55–57.

Ўзбекистон тарихи (Хрестоматия). 2-жилд. 1-китоб. V–XI асрлар. Тошкент, 2014. Б. 32–33.

Хўжаев А. Марказий Осиё халқлари тарихига оид маълумотлар (Қадимий ҳамда илк ўрта аср хитой манбаларидан таржималар ва тадқиқотлар). Тошкент: Наврўз, 2015. 332 б.

Ғойибов Б. Суғд конфедерацияси: шаклланиши, тараққиёти ва таназзули. Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2015. 276 б.

Lurje P. “KOŠĀNIYA” // Encyclopædia Iranica, online edition, 2014. Available at: http://www.iranicaonline.org/articles/koshaniyeh (accessed 30 December 2014).

G‘oyibov B. S. Sug‘d konfederasiyasining Kabudon hukmdorligi tarixiga doir // SamDU ilmiy axborotnomasi. 2-son. Samarqand, 2018. B. 26–29.

KARTOGRAFIK MANBALAR:

Карта Самаркандского уезда, составленная Е. Васильевым, В Михайловым и Р. Мурашко в 1892-1901 гг., ЦГА УзССР. Ф. 277. Оп 1. Д. 3561.

Карта Катта-Курганского уезда, сост. Ф. М. Леонтьевым в 1902 г. ЦГА УзССР. Ф. 277. Д. 3805.

Delisle G. Map of Persia (Iran, Iraq, Afghanistan) - Geographicus - Persia-delisle, 1724. https://commons.wikimedia.org/wiki/File:1724_De_L%27Isle_Map_of_Persia_(Iran,_Iraq,_Afghanistan)_-_Geographicus_-_Persia-delisle-1724.jpg

Garnier F. A. Asie Occidentale. Turquie d’Asie, Arabie, Perse, Turkestan. Paris, 1861.https://www.swaen.com/listing/asie-occidentale-turquiearabie-perse-turkestan/2704

REFERENCES:

Abu Rayhan Biruni. In Sal’e, M. A. (transl.). Pamyatniki minuvshikh pokolenij. Monuments of Past Generations. Vol. 1. Tashkent: Academy of Sciences of the Uzbek SSR Publ., 488. (In Russian).

An-Nasafiy, 2016. In Kattaev, K, (transl.). Qandiya. Sugdiyon Publ., 72. (In Uzbek).

Abu Tohirkhoja, 1991. In Davron, Kh (ed). Samariya. Tashkent: Kamalak Publ. (In Uzbek).

Alisher Navoi, 2001. In Rafiddinov, S. K (transl.). Nasoyim ul-muhabbat. Tashkent: Fan Publ., 534. (In Uzbek).

Al-Baladhuri, 2017. In Kamoliddin, Sh. S. K (transl.). Futuh al-buldan. Khurasanning fath etilishi (The Conquest of the Lands: The Conquest of Khurasan). Tashkent: Extremum-press Publ.,
440. (In Uzbek).

As-Sam’anij. In. Kamoliddin, Sh. S. (transl.). Kitab al-ansab. Vazhnyj istochnik po istorii i kul’ture Srednej Azii. Kitab al-ansab. An Important Source on the History and Culture of Central Asia. Saarbrücken: LAP Lambert Academic publ., 2018. 389. (In Russian).

As-Sam‘ani, 2017. In A. Bukhari and K. Rahimov (transl.). Nasabnoma (al-Ansab): On Scholars of Uzbekistan from the 8th–12th Centuries. Tashkent: Hilol-nashr Publ., 336. (In Uzbek).

Bichurin, N. Y. (Iakinf), 1950. In. Bernshtam, A. N., Kyuner, N. V. (eds). Sobranie svedeniy o narodakh, obitavshikh v Sredney Azii v drevnie vremena. Collection of Information on the Peoples Inhabiting Central Asia in Ancient Times. Vol. II. Moscow–Leningrad: Academy of Sciences of the USSR Press, 336. (In Russian).

Babur, Z. M. 2008. In. Rahmonov, V., Mullakhojaeva, K. (transl.). Boburnoma. Tashkent: O‘qituvchi Publ., 288. (In Uzbek).

Istakhri, 2019. Khudayberganov, R. T. (transl.). Kitab al-masalik wa-l-mamalik. Tashkent: Fan Publ. (In Uzbek).

Ibn Hawqal, 2011. In. Kamoliddin, Sh. S. (transl.). Kitab surat al-ard. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan Publ., 400. (In Uzbek).

Malyavkin, A. G., 1989. Tangskie khroniki o gosudarstvakh Tsentralnoy Azii: teksty i issledovaniya. Tang Chronicles on the States of Central Asia: Texts and Studies. Novosibirsk: Nauka, Siberian Branch. 432. (In Russian).

Xuanzang, 2012. In. Aleksandrova, N. V. (transl.) Zapiski o Zapadnykh stranakh (Da Tang Xi Yu Ji) (Records of the Western Regions during the Great Tang Era). Moscow: Vostochnaya literatura Publ. 463. (In Russian).

Hafiz Tanish al-Bukhari, 1999. In. Mirzaev, S., Ahmedov B. (transl.). Abdullanoma (Sharafnomayi shohi). Book I. Tashkent: Sharq Publ., 416. (In Uzbek).

Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi). Hudud al-‘Alam (Description of Mā Warāʾ an-Nahr), 2008. In. Boriev O. (transl.). Tashkent: O‘zbekiston Publ., 64. (In Uzbek).

Chekhovich, O. D., 1974. Samarkandskie dokumenty XV -XVI vv. O vladeniyakh Khodzhy Akhrara v Sredney Azii i Afganistane. Samarkand Documents of the 15th-16th Centuries.On the Ownership of Khoja Ahrar in Central Asia and Afghanistan. Moscow: Nauka Publ., 631 (In Russian).

Sharafuddin Ali Yazdi, 1997. In. Ahmedov A., Bobobekov Kh. Zafarnoma. (transl.). Tashkent: Sharq Publ., 384. (In Uzbek).

Idrisi, Abou Abdallah Mohammed, 1836. Géographie d’Edrisi. Vol. II. Translated from Arabic into French with notes and commentary by P.-Amédée Jaubert. Paris: Imprimerie Royale, 504 p. (In French).

Chavannes, E., 1903. “Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux.” Collection of Works of the Orkhon Expedition, Vol. 6. St. Petersburg: Imperial Academy of Sciences, p. 380. (In French and Russian).

REFERENCES:

Amirov U. 2020. In Eren, H., Muminov A. (eds). Chokardiza qabristonidagi qabrtoshlar xususida. (On the Tombstones from Chakar-Diza Cemetery). In O‘zbekistonda arxeologiya va tarixi meros: ilmiy maqolalar to‘plami. Istambul. 267–319. (In Uzbek)

Axunbabaev, X. G. 1990. Drevnij Kabudanjaket (k voprosu lokalizacii, genezisa i etapov razvitiya rannefeodal’nyx vladenij i srednevekovyx rustakov Samarkandskogo Sogda) (Ancient Kabudanjaket: On the Issue of Localization, Genesis, and Stages of Development of Early Feudal Possessions and Medieval Rustaks of Samarkand Sogd). In Arkheologiya Srednej Azii. Tezisy
dokladov. Tashkent. 26–28. (In Russian).

Bartold, V. V. 1963. Turkestan v epokhu mongol’skogo nashestviya (Turkestan Down to the Mongol Invasion). Vol. I. Moscow: Vostochnaya literatura. 761. (In Russian).

Begmatov, A. X., Boboyorov, G. B., G‘oyibov, B. S., Kulish, A. V., Lurje, P. B., Naimark, A. I. 2024. In Feyzulayev, A. (ed). Katalog sogdijskix monetnyx legend i nadchekanov Central’noj Azii (Catalogue of Sogdian Coin Legends and Countermarks of Central Asia). Samarkand: IICAS. 496. (In Russian).

Buriyev, O. 1997. Temurijlar davri yozma manbalarda Markaziy Osiyo (tarixiy geografik lavhalar) (Central Asia in the Timurid Era According to Written Sources: Historical-Geographical Sketches). Tashkent: O‘zbekiston. 186. (In Uzbek).

Buryakov, Y. F., Vafaev, G. A. 1990. Arkheologicheskie materialy k istorii drevnego i srednevekovogo Sagardzha (Archaeological Materials on the History of Ancient and Medieval Sagardzha). In. ONU (Social Sciences of Uzbekistan). No. 11. Tashkent: Fan. 43–48. (In Russian).

Valikhojaev, B. 1994. Xo‘ja Ahror tarixi (Samarkand va samarkandliklar) (History of Khoja Ahror: Samarkand and Its People). Tashkent: Yozuvchi. 96. (In Uzbek).

Vyatkin, V.L. 1902. Materialy k istoricheskoj geografii Samarkandskogo vilayeta (Materials on the Historical Geography of Samarkand Province). Spravochnaya knizhka Samarkandskoy oblasti. Vol. 7. Samarkand: Tovarishchestva. (In Russian).

Grigoriev, G. 1939. Zoroastrijskoe kostexranilishche v kishlake Frinkent pod gorodom Samarkandom (Zoroastrian Ossuary in the Village of Frinkent near Samarkand). In. Vestnik Drevnei Istorii (Journal of Ancient History). No. 2. 144–150. (In Russian).

Inevatskina, O. N., Suchilin, A. A. 2016. Transportnye puti Samarkandskix zemel’ (po kartograficheskim i arkheologicheskim istochnikam) (The Transport Ways of the Samarkand Lands (according to Cartographic and Archaeological Sources). Scripta antiqua. Voprosy drevnej istorii, filologii, iskusstva i material’noj kultury. Vol. V. Moscow. 76–108. (In Russian).

Kamoliddin, Sh. 2014. Novyj istochnik po istoricheskoj geografii Srednej Azii. Noveyshie issledovaniya sochineniya “al-Kand fi zikr ‘ulama’ Samarkand” Abu Hafsa ‘Umara ibn Mukhammada an-Nasafi (A New Source on the Historical Geography of Central Asia: Recent Studies of “al-Kand fi zikr ‘ulama’ Samarkand” by Abu Hafs ‘Umar ibn Muhammad an-Nasafi). Saarbrücken: LAP. 364. (In Russian).

Kattaev, K. 2017. Samarkandnoma (Shohizinda majmuasi tarixi, Samarkand madrasalari va ilm-fan rivoji, Samarkandning buyuk allomalari) (Samarkandnoma: History of the Shohizinda Complex, Development of Samarkand Madrasas and Science, and Samarkand’s Great Scholars). Tashkent: MASHHUR-PRESS. 308. (In Uzbek).

Kattaev, K. 2020. Yurtimizning o‘ta buyuk allomalari (Imomi Ali Sug‘diy va Kumushkentdagi tariqat pirlari tarixi) (Our Nation’s Most Great Scholars: Imam Ali Sug‘di and the History of Sufi Leaders in Kumushkent). Tashkent: Navruz. 72. (In Uzbek).

Kochnev, B. D. 2005. Numizmaticheskaya istoriya Karaxanidskogo kaganata (991–1209 gg.). Ch.1. Istochnikovedcheskoe issledovanie (Numismatic History of the Karakhanid Khaganate (991–1209): Source-Based Study). Moscow. 314. (In Russian).

Qoraev, S. 2005. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari (Toponyms of the Regions of Uzbekistan). Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya. 240. (In Uzbek).

Lurje, P. B. 2004. Istoriko-lingvisticheskiy analiz sogdijskoj toponimii (Historical-Linguistic Analysis of Sogdian Toponymy). PhD diss., St. Petersburg. 305. (In Russian).

Materialy vsesoyuznoj perepisi naseleniya 1926 g. v Uzbekskoy SSR (Materials of the 1926 All-Union Population Census in the Uzbek SSR). Vol. 1. Samarkand: TSSU, 1927. 109. (In Russian).

Otakhojaev, A. 2010. *Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari (Turk-Sogd Relations in the Civilization of Early Medieval Central Asia).* Tashkent: ART-FLEX. 220. (In Uzbek).

Pardaev, K., 2014. *XVI–XVII asrlarda Miyankol (Miyankol in the 16th–17th Centuries).* Tashkent: Turon Zamin Ziyo. 280. (In Uzbek).

Pugachenkova, G. A. 1989. *Drevnosti Miankalya (iz rabot Uzbekistanskoy iskusstvovedcheskoy ekspeditsii) (Antiquities of Miankalya from the Works of the Uzbekistan Art History Expedition).* Tashkent: Fan. 204. (In Russian).

Raimqulov, A.A. 2017. *Katta Sug‘d – Sug‘diyona (Greater Sogd – Sug‘diyona).* Tashkent: Iqtisod moliyachi. 208. (In Uzbek).

Raspopova, V.I., Shishkina, G.V. 1999. *“Sogd” (Sogd).* Srednyaya Aziya v ranem srednevekov’e. Moscow: Nauka. 50–77. (In Russian).

Sobolev, L.N. 1873. *Podobnoe opisanie aryikov Zerafshanskogo okruga (Similar Description of the Zerafshan Irrigation Channels).* Turkestanskiy sbornik. Vol. 90, Petersburg. 239. (In Russian).

Turgunov, B. A. 1963. *O mestopolozhenii srednevekovogo goroda Ishtikhan (On the Location of the Medieval Town of Ishtikhan).* In. *ONU (Social Sciences of Uzbekistan).* No. 11. Tashkent: Fan. 55–57. (In Russian).

O‘zbekiston tarixi (Xrestomatiya). V–XI asrlar (History of Uzbekistan (Chrestomathy). Vol. 2, Book 1. 5th–11th Centuries). Vol. 2, Book 1. 2014. Tashkent, 32–33. (In Uzbek).

Xo‘jaev, A. 2015. *Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma’lumotlar (Qadimiy hamda ilk o‘rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va tadqiqotlar) (Information on the History of Central Asian Peoples: Translations and Studies from Ancient and Early Medieval Chinese Sources).* Tashkent: Navruz. 332. (In Uzbek).

G‘oyibov, B. S. 2015. *Sug‘d konfederatsiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzuli (The Sogdian Confederation: Formation, Development, and Decline).* Tashkent: ABU MATBUOT-KONSALT. 276. (In Uzbek).

G‘oyibov, B. S., 2018. *Sug‘d konfederasiyasining Kabudon hukmdorligi tarixiga doir (On the History of the Kabudon Rule of the Sogdian Confederation).* In SamDU ilmiy axborotnomasi. No. 2. Samarqand. 26–29. (In Uzbek).

Lurje, P. 2014. “KOŠĀNIYA.” Encyclopædia Iranica, online edition. Available at: http://www.iranicaonline.org/articles/koshaniyeh (accessed 30 December 2014).

CARTOGRAPHIC SOURCES:

Vasiliev, E., Mikhailov, V., Murashko, R. 1892–1901. *Map of Samarkand Uyezd*. Tashkent: Central State Archive of the Uzbek SSR, F. 277. Op. 1. D. 3561. (In Russian).

Leontyev, F. M., 1902. *Map of Katta-Kurgan Uyezd*. Tashkent: Central State Archive of the Uzbek SSR. F. 277, D. 3805. (In Russian).

Delisle, G. 1724. *Map of Persia (Iran, Iraq, Afghanistan)*. Geographicus – Persia-delisle. [Online] Availableat:https://commons.wikimedia.org/wiki/File:1724_De_L%27Isle_Map_of_Persia_(Iran,_Iraq,_Afghanistan)_-_Geographicus_-_Persia-delisle-1724.jpg (Accessed: 25 October 2025).

Garnier, F. A. 1861. *Asie Occidentale: Turquie d’Asie, Arabie, Perse, Turkestan*. Paris. [Online] Available at: https://www.swaen.com/listing/asie-occidentale-turquiearabie-perse-turkestan/2704 (Accessed: 25 October 2025).

ISSUES OF HISTORICAL TOPOGRAPHY AND LOCALIZATION OF THE CITY OF ISHTIKHON IN THE EARLY AND DEVELOPED MIDDLE AGES

© 2025. Sandiboev Alisher
Samarkand Institute of Archaeology named after Y. Gulomov

Key words: Sogd, Samarkand, Kushaniya, Ishtikhon, Sogarj, Primkent, Muzan, localization, topography, cartography.

This article examines the historical topography of Ishtikhon, located in the western part of the Samarkand oasis, and provides an analytical overview of the cities and settlements that once formed part of its territorial and administrative structure. In Chinese sources, Ishtikhon appears under the name Cao, while in Arabic–Persian texts it is referred to as Ishtikhon. Based on written accounts and cartographic research, several sites within its boundaries have been localized, including Rastaghfar – Boyliota, Muzan – Muzan, Bardad – Kumushkent, Zar – Zhar, Farankat (or Afrankad) – Primkent, and Sogardj – Sogishtepa – Arktepa, all of which represent significant archaeological monuments of the region. A detailed analysis of the available sources indicates that the city of Ishtikhon bordered the territory of Kushaniya. The domain extended between the present-day rivers Akdarya and Karadarya – from the town of Dahbet to the village of Azamat within modern Ishtikhon. The associated rural district (rustaq) of Sogardj (Sogishtepa – Arktepa) was situated on the right bank of the Akdarya River. The Sogardj Mountains mentioned in the sources can be identified with the modern Karakchitag ridge and, in part, with the adjacent Oktog range. On the basis of this evidence, it can be concluded that through these mountain chains, Ishtikhon bordered the ancient Nuri settlements of the Bukhara region to the north and northwest, particularly the village of Chush (Jush).

V.V YATKINNING SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASIDAGI ARXEOLOGIK KOLLEKSIYALARI

© 2025 Maxmudxon Yunusov
“Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti

Kalit so‘zlar: Hayoti va faoliyati, merosi, qo‘lyozma, asarlar, Afrosiyob, Samarqand, sopol, metall, tadqiqot, konservatsiya.

Ushbu maqolada 1933-yilda Samarqand muzeyiga topshirilgan va hozirda Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi arxeologiya fondida saqlanayotgan V. Vyatkin kolleksiyasining tarkibi, xususiyatlari va ularning ilmiy o‘rganilishi birinchi marta tahlil qilinadi. V.Vyatkin XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olimdir. Maqolada V. Vyatkinning hozirgi O‘zbekiston hududi bo‘ylab, xususan, Afrosiyob shaharchasi va Ulug‘bek rasadxonasi kabi muhim arxeologik obidalarda to‘plagan kolleksiyalari ayon etilgan. Muallif Samarqand va uning atrofi tarixini o‘rganish uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan kulolchilik, metall buyumlar va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlarini o‘z ichiga olgan kolleksiyalarni tahlil qiladi.
Ushbu tadiqiqot ishi arxeologiya, tarix, muzeyshunoslik sohasidagi mutaxassislar uchun katta ahamiyatga egadir. U bir tadqiqotchining merosi keyingi ilmiy izlanishlar uchun qanday asos bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi va Turkiston tarixi hamda mintaqaning madaniy aloqalari bilan qiziqqan har bir kishi uchun ahamiyatlidir.

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ КОЛЛЕКЦИИ В. ВЯТКИНА В СОБРАНИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА

© 2025. Махмудхон Юнусов
Международный научно-исследовательский институт «Шёлковый путь»

Ключевые слова: Жизнь и творчество, наследие, рукопись, произведения, Афросиаб, Самарканд, керамика, металл, исследование, консервация.

В статье впервые анализируются состав, характеристика и научное изучение коллекции В. Вяткина, переданной в Самаркандский музей в 1933 году и в настоящее время хранящейся в археологическом фонде Самаркандского государственного музея-заповедника. В. Вяткин – учёный, внёсший большой вклад в изучение Туркестана в конце XIX – начале XX веков. В статье подробно описываются коллекции В. Вяткина, собранные на территории современного Узбекистана, в частности, на важных археологических памятниках городища Афросиёб и обсерватории Улугбека. Автор анализирует коллекции, включающие керамику, изделия из металла и другие предметы быта, имеющие особое значение для изучения истории Самарканда и его окрестностей.
Данная исследовательская работа имеет большое значение для специалистов в области археологии, истории и музееведения. Он показывает, как наследие одного исследователя может послужить основой для дальнейших научных изысканий и важен для всех, кто интересуется историей Туркестана и культурными связями региона.

Bugungi kunda V. L. Vyatkinning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan to‘liq tadqiqot mavjud emas, shu jumladan uning barcha ilmiy izlanishlarining to‘liq to‘plami ham nashr etilmagan. Faqatgina, garchi badiiy asar bo‘lsada K. Novoselovaning «Altair yulduzi» romanida olimning hayoti

to‘laroq aks ettirishga muvaffaq bo‘lingan. M. Masson o‘z xotiralarida V. Vyatkinni arxeologiyada o‘zining «cho‘qintirgan otasi» deb atab, olimga yuksak baho beradi (Массон 1976: 14). V. Vyatkin haqida A. Abbosovning 1969 yilda nashr etilgan «Vyatkin-tarixchi-manbashunos, O‘zbekiston tarixchisi-arxeologi» (Аббасов 1969) nomli bitta nomzodlik dissertatsiyasi mavjud bo‘lib, unda olimning hudud arxeologiyasiga qo‘shgan hissasi ko‘rib chiqiladi. Shunisi e’tiborga loyiqki, tadqiqotning asosiy yo‘nalishi V. Vyatkinning muhim manbalar bilan ishlashiga qaratilgan.

Afrosiyobga bag‘ishlangan ko‘p tomlik tadqiqotlarning birinchi nashri V. A. Shishkinning V. L. Vyatkinning xotirasiga bag‘ishlangan Samarqand va uning atrofini arxeologik o‘rganish tarixiga bag‘ishlangan fundamental maqolasi (Шишкин 1969: 3-122) bilan boshlanadi. Muallif V. Vyatkinning yiliga 600 rubl miqdorida kamtarona maosh bilan Samarqand yodgorliklari nazoratchisi etib tayinlanishi uning Samarqand qadimiy ashyolarini o‘rganish bo‘yicha mutaxassis sifatida tan olinishini anglatishi, u bu maqomni Samarqand tarixi va arxeologiyasini eng yaxshi bilimdoni sifatida umrining oxirigacha saqlab qolganini qayd etadi. Darhaqiqat V. L. Vyatkin Samarqandni arxeologik o‘rganish ishlariga tamal toshini qo‘ygan.

V. L. Vyatkinning faoliyati ko‘p qirralidir, shuning uchun Samarqand tarixi va madaniyati haqidagi kitoblarda uning ismi-sharifi albatta keltiriladi. T. S. Saidqulov o‘z tadqiqotida V. Vyatkinning to‘qqizta asarini ko‘rsatib, “hozirgacha V. Bartold, A. F. Fedchenko ...V. L. Vyatkinning tarix, geografiyaga bag‘ishlangan asarlari ilmiy qiziqishini yo‘qotmagan” ligini ta’kidlaydi (Саидкулов 1970: 168). Olimning barcha asarlari bibliografiyasi Ye. Betger tomonidan tuzib chiqilgan bo‘lib, muallif V. Vyatkinning 68 ta nashr etilgan asarlari ro‘yxatini keltiradi (Беттер 1960: 124-127). Shu bilan birga, nashr etilmagan 7 ta asar ro‘yxatini ham ilova qiladi. Y. Betger olimning chop etilmagan asarlari sifatida quyidagilarni keltiradi:

-“XVI asr o‘zbeklarni o‘rganish masalasiga doir”

-“O‘rta Osiyo tarixiga doir materiallar. Shayboniylar”

-“Buxorodagi X asrga oid Amir Ismoil maqbarasi”

-“O‘zbekistonning tanga xazinalari”

-“Islomning ilk asrlarida Samarqanddagi qabrtoshlar”

-“Oxirgi yillarda O‘zbekistonda topilgan tanga xazinalari. Maxov qishlog‘idan topilgan Somoniylar kumush tangalari xazinalari va 1929-yil Afrosiyob qazishmalarida aniqlangan Somoniylarning mis tangalari”

-“Samarqand me’moriy yodgorliklari”

Y. Betger V. Vyatkinning nashr etilmagan qo‘lyozmalari haqida qaysi manbadan ma’lumot olganini, ular qayerda saqlanishi haqida ma’lumot bermagan. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi hujjatlar fondida olimning ikkita qo‘lyozmasi saqlanadi. Bular “Samarqand me’moriy yodgorliklari” va “Buxorodagi X asrga oid Amir Ismoil maqbarasi” qo‘lyozmalaridir. Mazkur ikki qo‘lyozma hozirgi vaqtda mazkur maqola muallifi tomonidan nashrga tayyorlanmoqda.

So‘nggi yillardagi asarlarga murojaat qilsak, olimlar V.Vyatkinga ko‘proq murojaat qilayotganligini kuzatishimiz mumkin. X. G. Axunbabayev «Afrosiyobdagi ixshidlar saroyi» monografiyasida 1904-1930 yillardagi Afrosiyobdagi arxeologik tadqiqotlar arxeolog V. L. Vyatkin nomi bilan bog‘liq bo‘lganligini ta’kidlaydi (Axun-babayev 1999: 6). Afrosiyobni o‘zlashtirish va o‘rganish tarixi haqida hamma narsa V.Vyatkindan boshlanadi albatta.

T. I. Doroshenko «V. L. Vyatkinning Samarqand yodgorliklarini o‘rganish va saqlashga qo‘shgan hissasi» maqolasida (Дорошенко 2007: 411-413) Samarqand va uning atrofidagi qadimiy qishloqlarning yodgorliklari va qoldiqlarini rejasini tuzgan V. L. Vyatkin Afrosiyobdagi qazishmalarda V. V. Bartoldga yaqindan yordam berganligini qayd etadi. V. V. Bartold O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha haqiqiy ilm-fan manbalarini o‘rganish uchun V.Vyatkinning asalarini jiddiy asarlar sifatida qabul qilgan edi.

V. L. Vyatkin qadimiy qo‘lyozmalarning to‘plovchisi va tadqiqotchisi bo‘lgan, ularni talqin qilgan va tarjima qilgan, ijodiy tahlil qilish va kashfiyotlarga olib keladigan muhim belgilarni topishga muvaffaq bo‘lgan. V.L.Vyatkinning 190 tomdan iborat qo‘lyozmalari 1933 yilning boshida O‘zbekiston Davlat xalq kutubxonasiga topshiriladi. Shu yilning o‘zida ushbu kutubxonaning sharq qo‘lyozmalari bo‘limiga o‘tkaziladi. V.L.Vyatkin to‘plamining alifboli ro‘yxati 1935 yilda B.S.Sergeev tomonidan tuzib chiqiladi va nashr qilinadi. Unda juda noyob qolyozmalar jamlangan edi. XVI asr, jumladan, shayboniylar davri qo‘lyozmalari va Orta Osiyoda darveshlar qo‘zg‘oloniga doir adabiyotlar ancha tokis mujassamlashgan. Ularning ichida 700 ga yaqin sud va notarial harakterdagi hujjatlar, shuningdek, samarqandlik qozi Mulla Bek Muxammad Umarbiyga mansub bolgan (1588-1591yillar) hujjatlarni o‘z ichiga olgan XVI asr toplami ayniqsa, qimmatga ega. 1943 yilga kelib, ushbu to‘plam Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zFA Sharqshunoslik institutiga topshiriladi (Бартольд 1973: 21).

1933-yilda V.L. Vyatkin vafotidan keyin uning asosan Afrosiyob shaharchasi va Samarqand atroflaridan yig‘ilgan boy arxeologik to‘plami Samarqand muzeyi fondiga qabul qilinadi. Muzeylar ishi, qadimiy yodgorliklar, san’at va tabiatni muhofaza qilish Samarqand qo‘mitasi (Samkomstaris)ning 1933-yil 13-sentyabrdagi qaroriga asosan Samarqand muzeyi ilmiy xodimlari M.Yu.Saidjonov (rais), I.A.Suxarev, G.P.Snesarev ishtirokida komissiya tuzilib, V.L.Vyatkinning arxeologik to‘plamining ro‘yxati tuzib chiqiladi (Yunusov 2024: 53).

1933-yil 12-oktyabrda V.L.Vyatkinning turmush o‘rtog‘i Yelizaveta Afanasevna va Samarqand muzeyi xodimi M.Y. Saidjonov ishtirokida to‘plamni Samarqand muzeyiga topshirish dalolatnomasi tuziladi. Unga ko‘ra, to‘plam 11 dona simob ko‘zacha, 34 dona odamning sopol haykallari, 29 dona hayvonlar sopol haykalchalari, 25 dona idish qopqoqlari va qoliplar, 4 dona loy qoliplar, 71 dona sirlanmagan loy idishlar, 28 dona mis va bronza idishlar, 33 dona chiroqlar, 231 dona sirlangan idishlar, 2 dona metall eritadigan qozon, 3 dona ostadon bo‘laklari, 21 dona suyakdan ishlangan buyumlar, 66 dona shishadan ishlangan buyumlar, 1 dona tanga quyish qolipi (matritsa) jami 559 dona arxeologik ashyolardan iborat edi (Материалы приема .., 1-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 508-jild: 3-16).

Bundan tashqari, 137 dona mis tanga, 140 dona qoraxoniylar kumush tangalari bo‘laklari, 67 dona somoniylar mis tangalari, 1 dona misdan ishlangan nishon, 262 dona turli davrlarga oid mis tangalar, 2 dona kumush tanga, 52 dona qoraxoniylar kumush tangalari, 8 dona mis va 23 dona kumush somoniylar tangalari bo‘laklari, Afrosiyobdan topilgan 68 dona turli mis tangalar saqlangan ko‘zachalar, shuningdek, 128 dona sopol bo‘laklari, turli sopol idish bo‘laklari va gipsdan ishlangan buyum qismlari Samarkand muzeyiga topshiriladi (Материалы приема ..., 1-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 508-jild: 12-27). Ushbu jamlanma shu kungacha ham o‘rganilib, tarixiy tasnifi yaratilmagan. Mazkur taqdiqot ishi kolleksiyaning numizmatik materillarini qamram olmay, faqatgina Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi arxeologiya fondida saqlanayotgan kolleksiyaga murojaat qilingan.

V. Vyatkining 1933-yilda Samarqand muzeyiga qabul qilingan arxeologik kolleksiyasi jami 15 ta to‘plamga jamlangan. Quyida ularni birma-bir ko‘rib chiqamiz. V. Vyatkin kolleksiyasi A-34 kolleksiyadan boshlanadi (O‘zbekiston madaniyati ... №2: 27-28). Ushbu kolleksiyada jami 14 dona toshdan ishlangan buyumlar jamlangan bo‘lib, ular Afrosiyobdan topilgan. Ashyolar va KP-128/1 kirim raqami berilgan. Kolleksiya ilmiy jihatdan tadqiq etilmaganligi uchun davri abiqlanmagan.

A-35 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №2: 30) 12 dona simob ko‘zacha jamlangan bo‘lib, KP-128/2 kirim raqamiga egadir. Ushbu ashyolar ham V.Vyatkin kolleksiyasi tarkibida 1933 yilda muzeyga qabul qilingan. Ashyolarning bir donasi A-35/1 raqamli simob ko‘zacha V. Vyatkin tomonidan ilmiy tadqiq etilgan (Вяткин 1927: 57). Kolleksiyaning qolgan qismi ilmiy jihatdan

tadqiq etilmagan. Fanda simob ko‘zacha nomini olgan mazkur ashyolarning ishlab chiqarilishi va nima maqsadda foydalanilgani xususida ilmiy adabiyotlarda o‘nlab nazariyalar mavjud. Ko‘pgina mualliflar va shu jumladan V. Vyatkinning o‘zi ham «harbiy» nazariyaga moyil. Unga ko‘ra bu idishlar harbiy maqsadda foydalanilgan qo‘l granatalariga o‘xshash harbiy qurol bo‘lgan. Bir vaqtlar Vizantiya hukumati tomonidan ishlatilgan va yunon olovi nomini olgan harbiy moslama kabi xom neft yoki nitrat tarkibli yarim portlovchi aralashma (selitra) bilan to‘ldirilgan va otish qurollari yordamida otilgan. Mazkur ashyoning aniq kelib chiqish joyini aniqlash imkonsiz. Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi kolleksiyalaridagi simob ko‘zachalar Afrosiyob shaharchasining ko‘proq chekka qismlarida shahar mudofaa devorining old va orqa tomonlaridan topilganligi qayd etilgan. Balki shuning uchun bo‘lsa kerak ko‘pchilik olimlar qatori V.Vyatkin ham “harbiy” nazariyaga moyilroqdir.

A-36 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №2: 51-76) ham odamning sopol haykalchalari jamlangan bo‘lib, bu kolleksiya KP-128/3 kirim raqamiga ega. Kolleksiyadagi ashyolar soni 38 tani tashkil etadi. Uning katta qismi sopol haykalchalarning bosh qismidan iborat (1-rasm). Kolleksiya qisman tadqiq etilgan. A-36/12 raqamli otliq ko‘rinishidagi haykalcha L.Zabelina va N.Rempel tomonidan nashr etilgan (Забелина и др. 1948: 12). Musiqachi ko‘rinishidagi, nay chalayotgan, bosh kiyim bilan tasvirlangan A-36/17,24,26,28 raqamli haykalchalar A. Terenojkin, Kamilla Terever tomonidan tadqiq etilgan (Тереножкин 1950: 156; Camilla 1932: 52, XIV plates). Kolleksiyadagi boshqa ashyolar ilmiy tadqiq etilmagan.

A-37 kolleksiya (O‘zbekiston madaniyati ... №2: 77-104) ham V.Vyatkin arxeologik kolleksiyasi tarkibida 1933 yilda muzeyga qabul qilingan va KP-128/4 kirim raqami ostida saqlanadi. Kolleksiya 29 dona hayvonlarning sopol haykalchalaridan iborat bo‘lib, Samarqand atroflari, asosan Afrosiyobdan topilgan deb taxmin qilinadi. Haykalchalar fantastik mavjudotlar, maymun, sigir, kiyik, mushuk, qo‘y, qushlar ko‘rinishida ishlangan. O‘z vaqtida ushbu haykalchalardan tanga quti sifatida yoki bolalar o‘yinchoqlari sifatida foydalanishgan. Kolleksiyadagi A-37/1 raqamli odamsimon maymun tasvirli sopol haykalcha Kamilla Terever (Camilla 1932: 52), Aurel Stein (Stein 1907), S.M.Zuber (Зубер 1940: 33) tomonidan tadqiq etilgan. Kolleksiyaning qolgan qismi ilmiy muomalaga kiritilmagan. Kolleksiya ilmiy tavsifi muzey xodimi V.A. Mishkeris tomonidan 1953-yilda yozilgan.



1-rasm. Yigit boshi aks etgan sopol haykalcha. Samarqand. V–VII asrlar. A-36-8

Рис. 1. Голова глиняной статуэтки юноши. Самарканд. V–VII вв. А-36-8

Fig. 1. Head of a clay figurine of a young man. Samarkand. 5th–7th centuries. A-36-8

A-38 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №2: 121-132) sopoldan ishlangan va bosma naqshli (штампованный) dumaloq qopqoqlar va sirlanmagan idishlar uchun ilgaklardan iborat 30 dona ashyo jamlangan. Kolleksiya KP-128/5 kirim raqami ostida saqlanadi va V.Vyatkin kolleksiyalari tarkibida 1933-yilda muzeyga qabul qilingan. Ashyolar asosan Afrosiyob shaharchasi hududidan topilgan. Kolleksiya ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

A-39 kolleksiya (O‘zbekiston madaniyati ... №2: 133-137) (KP-128/6) “idishlarni yoki relyefli naqshlarga ega idish qopqoqlariga naqsh solish uchun foydalanilgan pishgan sopol qoliplar” deb nomlanadi va 4 ta ashyoni jamlagan. Mazkur ashyolar ham V.Vyatkin kolleksiya tarkibida 1933-yilda muzeyga qabul qilingan. Topilgan joyi noma’lum va ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan. V. Vyatkin o‘z arxeologik kolleksiyasini asosan Samrqand shahri, xususan,

Afrosiyobdan yig‘ganligini hisobga olsak mazkur ashyolar ham Afrosiyobdan yi’gilgan bo‘lishi mumkin.

A-40 kolleksiya (O‘zbekiston madaniyati ... №2: 139-156) (KP-128/7) 136 dona sirlanmagan turli sopol idishlarni o‘zida jamlagan. Ushbu kolleksiya ham V. Vyatkin kolleksiyasi tarkibida 1933-yilda muzeyga qabul qilingan. Topilgan joyi noma’lum va ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan. Samarqand shahri atrofi va asosan Afrosiyobdan yig‘ilgan bo‘lishi mumkin.

A-41 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №3: 1-7) (KP-128/8) da 28 dona mis, bronza idishlar va boshqa metallardan ishlangan buyumlar joy olgan (2-rasm). Ashyolarning 9 donasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-iyundagi 127-sonli qaroriga muvofiq Toshkentdagi temuriylar tarixi davlat muzeyiga berilgan. Ushbu kolleksiya ham 1933-yilda V. Vyatkin kolleksiyalari tarkibida Samarqand muzeyiga kelib tushgan. Kolleksiya ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan. Ashyolar XI-XIX asrlarga oid bo‘lib, ularning bir qismi aholidan to‘plangan bo‘lishi mumkin. Kolleksiyaning katta qismi to‘plangan joyi noma’lum. Qisman Afrosiyob shaharchasidan aniqlangan.



2-rasm. Markazda sfinks tasviri joylashgan bronza patnis. XII asr. A-41-1
Рис. 2. Бронзовый поднос с изображением сфинкса в центре. XII в. A-41-1
Fig. 2. Bronze tray with a central depiction of a sphinx. 12th century. A-41-1

A-42 kolleksiya (O‘zbekiston madaniyati ... №3: 29-35) (KP-128/9) 33 dona sopol va toshdan ishlangan chiroqlar o‘rin olgan. Ushbu kolleksiya ham 1933-yilda V.Vyatkin kolleksiyalari tarkibida Samarqand muzeyiga kelib tushgan. Ashyolarning asosiy qismi IX-X asrlarga oiddir. Kolleksiya ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

A-43 kolleksiya (O‘zbekiston madaniyati ... №3: 36-74) (KP-128/10) Afrosiyobdan to‘plangan 395 dona sirlangan sopol idishlardan iborat (3-rasm). Ashyolarning 7 donasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 27-iyuldagi 259-sonli qaroriga muvofiq Toshkentdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyiga berilgan. Ashyolarning asosiy qismi IX-XII asrlarga oid bo‘lgan oq fonga arabiy yozuvlar va islimiy bezaklar tushirilgan idishlardan iborat. Shu bilan birga keyingi davrlarga oid bo‘lgan, turli rangda sirlangan idishlar ham kolleksiyadan o‘rin olgan. Xususan, moviy rang ustunlik qiluvchi temuriylar davriga oid sirlangan idishlar ham mavjud bo‘lib, ularning bir qismi temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etilishi vaqtida mazkur muzey kolleksiyasiga o‘tkazilgan. Kolleksiya hozirgi vaqtda milliy hunarmandchilikda an’analardan foydalanishda juda qo‘l kelishi mumkin. Buning uchun eng avvalo jamlanmaning katalogini nashr etish talab etiladi. Ushbu kolleksiya ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.



3-rasm. Hoshiyali tovoq. Oq fonda qora va qizil rangdagi surat va epigrafik bezak. X asr. A-43-2
Рис. 3. Блюдо с бортиком. Орнамент и изображение в чёрном и красном цветах на белом фоне, эпиграфический декор. X в. A-43-2
Fig. 3. Rimmed bowl. Black and red painted decoration on a white background with epigraphic motifs. 10th century. A-43-2.

A-44 kolleksiya (O‘zbekiston madaniyati ... №3: 75-76) (KP-128/11) jami 10 dona metal quyish uchun sopol qoliplar jamlangan. Kolleksiyadagi 4 dona qoliplar V. Vyatkin kolleksiyasiga oid bo‘lsa, qolgan 6 donasi M.

Stolyarov kolleksiyasiga tegishli. Ashyolarning davri korsatilmagan va kolleksiya ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

A-45 kolleksiya (O‘zbekiston madaniyati ... №3: 78-79) (KP-128/12) jami 4 ostadon bo‘laklari jamlangan (4-rasm). Bo‘laklarning birinchisida 2 ta odam gavdasi ifodalangan bo‘lsa, qolganlarida geometrik va o‘zimliksimon naqshlar solingan. Ostadon bo‘laklari Afrosiyobdan topilgan va V. Vyatkin kolleksiyasiga oiddir. Davri aniqlanmagan va ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

A-46 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №3: 81-85) (KP-128/13) 21 dona suyakdan ishlangan buyumlar jamlangan. Ashyolar katta ehtimol bilan Afrosiyobdan topilgan bo‘lishi mumkin. Ashyolar qoshiq, qoshiq dastasining bir qismi, taroq, turli o‘yinchoqlar, tugmalardan iborat. Kolleksiya 1953-yilda B. Kastalskiy va I. Suxarev tomonidan asosan texnik hususiyatlarni o‘z ichiga olgan tavsif yozilgan. Biroq ilmiy jihatdan nashr etilmagan va davri aniqlanmagan.

A-47 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №3: 108-111) (KP-128/14) 67 dona shishadan ishlangan ashyolar yig‘ilgan va asosan idishlardan iborat. Kolleksiya ilmiy tadqiq etilmagan, davri aniqlanmagan va topilgan joyi ma’lum emas.

A-48 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №3: 108-112) (KP-128/14) 2 dona qolip saqlanadi. Ulardan birinchisi tanga quyish uchun qolip (matritsa) hisoblanadi. Ashyo 1915-yilda V. Vyatkin tomonidan Afrosiyobdan topilgan. Qolip to‘rtta old va uchta teskari tanga tomoniga ega. Aversda “Allohdan o‘zga iloh yo‘q va uning sherigi yo‘q” yozuvi va atrofida “Ushbu dirham Alloh nomi bilan 297 yilda Samarqandda zarb etilgan” yozuvlariga ega. Reversda “Muhammad Allohning elchisi, Al-Muktafiy billa Ahmad ibn Ismoil” yozuvi tushirilgan. Matritsa ham 1933-yilda marhum V. Vyatkin kolleksiyasi tarkibida muzeyga qabul qilingan. Somoniylar davriga oid mazkur topilma haqida V. Vyatkin (Вяткин 1926: 71-76) va M. Masson (Массон 1933: 15-16) nashr etishgan.

Yuqorida V.Vyatkin tomonidan olimning o‘limidan keyin Samarqand muzeyiga topshirilgan kolleksiyaga sharh berildi. Undan tashqari V. Vyatkin tirikligida muzeyga kirim qilingan arxeologik ashyolar ham mavjud bo‘lib, ularni quyida ko‘rib chiqamiz.

A-2 kolleksiya (KP-6369) jami 34 dona sirlangan va sirlanmagan sopol idishlar va shisha idishlardan iborat ashyolardan tarkib topgan bo‘lib, V.Vyatkin tomonidan 1925-yilda Afrosiyob olib borilgan qazishma natijasida to‘plangan (O‘zbekiston madaniyati ... №1: 31-46). Kolleksiya ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.



4-rasm. Ossuariy bo‘lagi. Taxtda o‘tirgan сюжет tasviri. A-45-1
Рис. 4. Фрагмент оссурия. Изображение фигуры, сидящей на троне. A-45-1
Fig. 4. Fragment of an ossuary. Depiction of a figure seated on a throne. A-45-1

A-13,14,15 kolleksiyalarda turli shaxslar tomonidan Samarqand (qisman Afrosiyob.)da yig‘ilgan sopol chiroqlar joy olgan bo‘lib, ularning soni 165 donani tashkil etadi (O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi. 1-20; 102-113 betlar). Chiroqlarning 1 donasi V.Vyatkin tomonidan Afrosiyobda o‘tkazilgan qazishmalarda aniqlangan. Bir qism ashyolar SamMI klinikasi hududidan, Amir Temur arki hududidan topilgan. Ashyolarning 28 donasi Samkomstaris tomonidan olib borilgan qazishmalarda aniqlangan bo‘lsa, 1 dona ashyo Termiz shahri hududidan topilgan. Kolleksiya ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan va kirim raqami berilmagan.

A-27 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №2: 19) 71 dona ip yigirish urchug‘i jamlangan. Ashyolarning katta qismi kelib chiqish noma’lum. 20 donasi M.Stolyarov tomonidan, 3 tasi V. Vyatkin tomonidan va 1 donasi

Samkomstaris tomonidan muzeyga topshirilgan. Ularning 2 donasi (KP-1558, 1091) birinchi darajali hisobdan o‘tkazilgan xolos. Qolganlari kirim raqamiga ega emas va ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

A-75 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №45: 154-162) 28 dona Samarqand me’moriy yodgorliklari atrofidan qazib olingan va turli shaxslar tomonidan muzeyga topshirilgan o‘yma sopol, shuningdek kamroq moviy rangda sirlangan me’moriy qoplamalar jamlangan. Ba’zi ashyolarni kim qachon va qayerdan olib kelganligi inventar kitoblarda aks etgan. Kolleksiyadagi ashyolarning bir qismi Samarqand shahri yaqinidagi Xaymar qishlog‘i eski qabristonidan V. Vyatkin rahbarligidagi ekspeditsiya davomida yig‘ilgan. Kolleksiya ilmiy tadqiq etilmaganligi uchun uning davri ko‘rsatilmagan.

A-76 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №45: 116-127) 46 dona relyefli mayolikalar jamlangan. Ashyolar sopol g‘ishtlar, plitkalar, va me’moriy parchalardan iborat bo‘lib, Samarqandning turli me’moriy yodgorliklaridan (Maxovxona qishlog‘i, Shoxizinda kompleksi, Registon, Yozdah Imom mozori, Afrosyob.)yig‘ilgan. Mazkur kolleksiyaning to‘planishida ham V. Vyatkin, M. Masson, I. Suxarevlar ishtirok etishgan. Kolleksiyaga kirim raqami berilmagan va ilmiy tadqiq etilmagan. Shuning uchun ham ashyolarning davri xususida inventar kitoblarda ma’lumotlar keltirilmagan.

A-77 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №4: 192) 2 dona ashyo saqlanadi. Ular V. Vyatkin tomonidan muzeyga topshrilgan bo‘lib, biri oq mato parchasi bo‘lsa, ikkinchisi qog‘oz parchasidir. Ashyolarning aniqlangan yeri Afrosiyob bo‘lib, shaharchaning qaysi qismidan aniqlanganligi va kolleksiyaga oid boshqa ma’lumotlar inventar kitoblarda keltirilmagan. Kolleksiyaga kirim raqami berilmagan va ilmiy tadqiq etilmagan.

A-78 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №44: 186-188) 6 dona me’moriy koshin bo‘laklari-mozaikalar jamlangan bo‘lib, Childuxtaron maqbarasiga tegishlidir. Bu yerda shayboniylarga tegishli bir qancha qabrlar aniqlangan. Ashyolar 1920-yilga qadar bo‘lgan davrda V.Vyatkin tomonidan muzeyga topshirilgan. Kolleksiyaga kirim raqami berilmagan va nashr etilmagan.

A-79 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №44. 132-136)11 dona gipsga ishlangan devoriy suratlar va sopol buyumlar jamlangan. Ashyolar 1927-yilda Samarqanddan 12 km janubi-g‘arbdagi Chungultepadan aeradrom qurilishi vaqtida V.Vyatkin tomonidan aniqlangan. Shundan so‘ng Samkomstaris tomonidan muzeyga topshirilgan. Mavjud inventar kitoblarda ashyolarning texnik tavsifi berilgan, lekin ular ilmiy tadqiq etilmagan, shu bilan birga kirim raqami berilmagan. Shuning uchun ularning davri va mansubligi haqida ma’lumotlar mavjud emas.

A-84 kolleksiya (O‘zbekiston madaniyati ... №44: 196-198) 3 dona ashyodan iborat bo‘lib, Sherdor madrasasiga oiddir. Ushbu ashyolarning bir donasi 1 donasi V. Vyatkin tomonidan madrasa tomidan topilgan va muzeyga topshirilgan. Qolgan ikki dona ashyo muzeyning eski jamlanmasiga oid bo‘lib, qachon kim tomonidan topshirilganligi noma’lum. Kolleksiyaga kirim raqami berilmagan va nashr etilmagan.

A-89 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №48: 141-189) 140 dona me’moriy qoplamalar jamlangan. Ushbu ashyolarning katta qismi XIV-XVII asrlar Samarqand yodgorliklariga oid bo‘lib, bir qismi qaysi yodgorlikka tegishli ekanligi noma’lum. Chunki ushbu kolleksiya ham o‘z vaqtida hisobga olinmagan. Me’moriy qoplamalar qisman Tillakori madrasasi, Sherdor madrasasidagi xovuz, Sherdor madrasasi, Oqsaroy maqbarasi, Afrosiyob, Amir Temur arki, Chinnixonaga oiddir. Shu bilan birga kolleksiyasining salmoqli qismi V. Vyatkin kolleksiyasiga (A-89/115-139) oiddir. Kolleksiyadagi ba’zi ashyolarga kirim raqami berilgan, ammo kolleksiya ilmiy tadqiq etilmagan va nashr etilmagan.

A-90 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №45: 1-3) 5 dona koshin qoplamalar bo‘laklari saqlanadi. Ushbu ashyolar Ko‘hna Urganchdagi Xorazmshox Takash maqbarasiga oid bo‘lib, V. Vyatkin tomonidan muzeyga keltirilgan. Ashyolar asosan o‘yma koshinlardan iborat bo‘lib, XII-XIII asr bilan davrlangan. Kolleksiyaga kirim raqami berilmagan va tadqiq etilmagan.

A-94 kolleksiyada (O‘zbekiston madaniyati ... №47: 65-73) 13 dona o‘yma sopol friz saqlanadi. Ushbu ashyolar 1912-yilda V. Vyatkin tomonidan Afrosiyobdagi somoniylar saroyidan topilgan. 1919-yilda M. Masson tomonidan qazib olingan muzeyga keltirilgan. Kolleksiya bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan (Бартольд 1922: 2; Умняков 1929: 40; Ахраров и др. 1971: 30). Ammo kolleksiyaga kirim raqami berilmagan. Tadqiqqotchilarning qayd etishicha ashyolar aniqlangan saroy bizgacha yetib kelgan saroylar ichida eng qadimgisi bo‘lib, uni o‘rta asrlarga oid mexmonxonalar uchun ananaviy prototip deyish mumkin (Ахраров, Рempель 1971: 30).

Samarqand muzeyidagi V.Vyatkinning arxeologik kolleksiyasini o‘rganish va ommalashtirish, ushbu maqolada ko‘rsatilganidek, o‘lka tarixi va madaniyatini tushunish uchun katta ahamiyatga ega. Bu to‘plam shunchaki osori-atiqalar to‘plami emas, balki Samarqand va uning atrofining ko‘p asrlik tarixini aks ettiruvchi qimmatli ilmiy manbadir. Maqolada biz uning o‘ziga xosligi, ilmiy qiymati va uni ommalashtirish bo‘yicha asosiy ish yo‘nalishlarini batafsil ko‘rib chiqdik.

V.Vyatkin to‘plami Samarqand moddiy madaniyatini o‘rganishning fundamental asosidir. XX asr boshlarida to‘plangan artefaktlar qadimgi sivilizatsiyalarning hayoti, hunarmandchiligi, savdosi va ma’naviy hayoti haqida noyob ma’lumotlar beradi. Ushbu ob’ektlarni o‘rganish ko‘plab arxeologik topilmalarning sanasi, tipologiyasi va kelib chiqishini aniqlash imkonini berishi mumkin.

Muhim ilmiy ahamiyatiga qaramay, to‘plam uzoq vaqtdan beri keng jamoatchilikka yetarli darajada ma’lum emas. To‘plamni ommalashtirish uchun bir qator chora-tadbirlar taklif qilinadi. Bular qatoriga kolleksiya haqida ilmiy-ommabop materiallarni nashr etish, tematik ma’ruzalar o‘tkazish, ko‘rgazmalar tashkil etish, to‘plamni kataloglashtirish kabi tadbirlarni kiritish mumkin. Ushbu tashabbuslar to‘plamni barcha yoshdagi tashrif buyuruvchilar uchun yanada qulayroq va qiziqarli qilishga yordam beradi.

To‘plam ustidagi keyingi tadqiqotlar arxeologlar, tarixchilar va restavratorlarning tizimli ishlashini talab qiladi. Kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash va yangi tadqiqotlar uchun imkoniyat yaratish maqsadida barcha obyektlarni to‘liq kataloglashtirish, raqamlashtirish va konservatsiyadan o‘tkazish zarur.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, V.Vyatkin kolleksiyasi milliy boylik bo‘lib, uni asrab-avaylash, o‘rganish va ommalashtirish Samarqand shahri muzey jamoatchiligi oldidagi ustuvor vazifaga aylanishi kerak. Ishonchimiz komilki, bu boradagi faol ishlar nafaqat hududning boy madaniy merosiga e’tiborni jalb qilish, balki yangi arxeologik kashfiyotlarni ham rag‘batlantirishga xizmat qiladi. To‘plamni ommalashtirish o‘tmish va bugun o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, kelajak avlodni tarixni o‘rganish va asrab-avaylashga undashga xizmat qiladi. Ushbu to‘plamni o‘rganish va ommalashtirish doimiy jarayon bo‘lib, ushbu maqola noyob merosimizni asrab-avaylash va dunyoga namoyish etishga qaratilgan keyingi tadqiqotlar va loyihalarga turtki bo‘lishiga umid qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘ YXATI:

O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi. №1. 1962. 133 b.
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi. №2. 1962. 127 b.
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi. №3. 1962. 186 b.
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi. №4. 1962. 210 b.
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi. №44. 1976. 205 b.
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi. №45. 1976. 200 b.
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi. №48. 1976. 211 b.

Trever C. Terracottas from Afrasiab. No. 93 of the Bulletin (Izvestiya) of the Marr State Academy for History of Material Culture. Leningrad, 1932. 52 p. XIV plates.
Stein A. Ancient Khotan. Oxford-1907. Vol. 2. Taf. XI, VI. 241 p.
Yunusov M. A. Samarqandda muzey ishi tarixi. Monografiya. Toshkent, 2024. 147 b.
Аббасов А. В. Вяткин – историк-источниковед, историк-археолог Узбекистана: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Ташкент, 1969. 47 с.
Ахраров И., Ремпель Л. Резной штукатурки Афрасияба. Ташкент, 1971. 158 с.
Ахун-бабаев Х. Г. Дворец ихшидов Согда на Афрасиябе. Самарканд, 1999. 179 с.
Бартольд В. В. Отчет о командировке в Туркестан. Август - декабрь 1920 г. Соч. в 9 томах. Т. VIII. М., 1973. 725 с.
Бетгер Е. К. Список трудов Василия Лаврентьевича Вяткина. Труды ТашГУ. Новая серия. Вып. 172. Исторические науки, книга 37. Археология Средней Азии V. Ташкент, 1960. 209 с.
Вяткин В. Л. Матрица и штамп из Самарканда. Известия Средазкомстариса. Вып.1. Ташкент, 1926. 153 с.
Дорошенко Т. И. Вклад В. Л. Вяткина в изучение и сохранение памятников Самарканда // Роль города Самарканда в истории мирового культурного развития. Материалы Международного научного симпозиума, посвященного 2750-летнему юбилею города Самарканда. Ташкент-Самарканд: «Фан» АН Республики Узбекистан, 2007. 470 с.
Забелина Н. Н., Ремпель Л. И. Согдийский всадник. Памятники искусства древнего Узбекистана. Ташкент, 1948. 24 с.
Зубер С. М. Музыкальные инструменты иконографии Хара-Хото // Труды отдела Востока Гос. Эрмитажа. Т. 3. Л., 1940. 340 с.
Массон М. Е. Из воспоминаний Среднеазиатского археолога. Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Г. Гуляма, 1976. 176 с.
Массон М. Е. Клад утвари мастерской фальшивомонетчики XIV века под Ташкентом. Материалы Узкомстариса. Вып. 4. Ташкент, 1933. 23 с.
Материалы приема археологических коллекций покойного В. Вяткина за 1933г. Samarqand davlat muzeyi-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi, 1-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 508-jild. 1947. 65 b.
Саидкулов Е. С. Самарканд во второй половине XIX –начале XX веков. Самарканд: Изд-во СамГУ, 1970. 255 с.
Сирианиди В.И. Новая матрица Самаркандского музея. Известия отделения общественных наук АН Таджикской ССР. Вып.14. Сталинабад-1957. 191 с.
Тереножкин А. Согд и Чач. Краткие сообщения Института истории материальной культуры. Вып. XXXIII. Москва-Ленинград, 1950. 177 с.
Умняков И. И. Архитектурные памятники Средней Азии. Исследование. Ремонт. Реставрация. 1920-1928 г. Правда Востока, 1929. 40 с.
Шишкин В. А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей // Афрасиаб. Вып 1. Ташкент: Изд-во «Фан» УзССР, 1969. 334 с.

REFERENCES:

O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi (Inventory book of archaeological collections of the State Museum of the History of Culture of Uzbekistan). №1. 1962. 133. (In Uzbek).
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi (Inventory book of archaeological collections of the State Museum of the History of Culture of Uzbekistan). №2. 1962. 127. (In Uzbek).
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi (Inventory book of archaeological collections of the State Museum of the History of Culture of Uzbekistan). №3. 1962. 186. (In Uzbek).
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi (Inventory book of archaeological collections of the State Museum of the History of Culture of Uzbekistan). №4. 1962. 210. (In Uzbek).
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi (Inventory book of archaeological collections of the State Museum of the History of Culture of Uzbekistan). №44. 1976. 205. (In Uzbek).
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi (Inventory book of archaeological collections of the State Museum of the History of Culture of Uzbekistan). №45. 1976. 200. (In Uzbek).
O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologiya kolleksiyalari inventar kitobi (Inventory book of archaeological collections of the State Museum of the History of Culture of Uzbekistan). №48. 1976. 211. (In Uzbek).
Abbasov, A. 1969. Vyatkin - istorik-istochnikoved, istorik-arkheolog Uzbekistana (Vyatkin – historian and archaeologist of Uzbekistan). Tashkent, 1969. 47. (In Russian).
Akhrarov, I., Rempel, L. 1971. Reznoj shtukaturki Afrasiaba (Carved plaster of Afrasiab). Tashkent, 158. (In Russian).
Axun-babayev. 1999. Dvorets ixshidov Sogda na Afrasiyabe (Palace of the Ikhshids of Sogd on Afrasiyab.) Samar-

kand, 1999. 179. (In Russian).

Bartol’d, V. V. 1922. Otchet o komandirovke v Turkestan. Avgust - dekabr 1920. (Report on a mission to Turkestan. August–December 1920.) Works in 9 volumes. Vol. VIII. Moscow, 1973. 725. (In Russian).

Betger, Ye. K. 1960. Spisok trudov Vasiliya Lavrent’evicha Vyatkina. (List of works by Vasily Lavrentyevich Vyatkin) In Trudy TashGU. New Series, Issue 172. Historical Sciences, Book 37. Arkheologiya Srednej Azii V. Tashkent. 209. (In Russian).

Doroshenko, T. I. 2007. Vklad V. L. Vyatkina v izuchenie i sokhranenie pamyatnikov Samarkanda (Vyatkin’s contribution to the study and preservation of Samarkand monuments). In Rol’ goroda Samarkanda v istorii mirovogo kulturnogo razvitiya. Materials of the International Scientific Symposium dedicated to the 2750th anniversary of Samarkand. Tashkent–Samarkand: FAN Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 470. (In Russian).

Masson, M. Ye. 1933. Klad utvari masterskoj fal’shivomonetchiki XIV veka pod Tashkentom (Treasure of the workshop of a 14th-century counterfeiter near Tashkent). Materialy Uzkomstarisa. Issue 4. Tashkent, 23. (In Russian).

Masson, M. Ye. 1976. Iz vospominanij Sredneaziatskogo arkheologa (From the memoirs of a Central Asian archaeologist). Tashkent: G. Gulyam Publ. House of Literature and Art, 176. (In Russian).

Saidkulov, E. S. 1970. Samarkand vo vtoroj polovine XIX – nachale XX vekov (Samarkand in the second half of the 19th – early 20th centuries). Samarkand: SamGU Publ., 255. (In Russian).

Materialy priema arkheologicheskikh kollektsij pokojnogo V. Vyatkina za 1933 g. (Materials for the reception of archaeological collections of the late V. Vyatkin for 1933). Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi ilmiy arxivi. Fond 1, List 1, File 508. 65. (In Russian).

Shishkin, V. A. 1969. K istorii arkheologicheskogo izucheniya Samarkanda i ego okrestnostej (On the history of archaeological study of Samarkand and its surroundings). In Afrasiab, Vol. 1. Tashkent: FAN Publ. of Uzbek SSR, 334. (In Russian).

Siriannida, V. I. 1957. Novaya matritsa Samarkandskogo muzeya (A new matrix from the Samarkand museum). In Izvestiya otdeleniya obshchestvennykh nauk AN TadzhSSR. Issue 14. Stalinabad, 1957. 191. (In Russian).

Stein, A. 1907. Ancient Khotan. Vol. 2. Oxford, Taf. XI, VI. (In English). 241.

Terenozhkin, A. 1950. Sogd i Chach (Sogd and Chach). In Kratkie soobsheniya Instituta istorii materialnoy kultury. Vol. XXXIII. Moscow–Leningrad, 177. (In Russian).

Trever, C. 1932. Terracottas from Afrasiab In Bulletin of the Marr State Academy for History of Material Culture. No. 93. Leningrad, 52. XIV plates. 52. (In English).

Umnyakov, I. I. 1929. Arkhitekturnye pamyatniki Srednej Azii. Issledovanie. Remont. Restavratsiya. 1920–1928 g. (Architectural Monuments of Central Asia. Research. Repair. Restoration. 1920-1928.) In Pravda Vostoka. 40. (In Russian).

Vyatkin, V. L. 1926. Matritsa i shtamp iz Samarkanda.(Matrix and stamp from Samarkand) In Izvestiya Sredazkomstarisa. Issue 1. Tashkent. 153. (In Russian).

Yunusov, M. A. 2024. Samarqandda muzey ishi tarixi (The history of museum work in Samarkand). Monograph. Tashkent, 147. (In Uzbek).

Zabelina, N. N., Rempel, L. I. 1948. Sogdijskij vsadnik (The Sogdian rider). Tashkent, 24. (In Russian).

Zuber, S. M. 1940. Muzykal’nye instrumenty ikonografii Khara-Khoto (Musical instruments of the iconography of Khara-Khoto) In Trudy otdela Vostoka Gosudarstvennogo Ermitazha. Vol. 3. Leningrad, 340. (In Russian).

ARCHAEOLOGICAL COLLECTIONS OF V. VYATKIN IN THE COLLECTION OF THE SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE.

© 2025. Makhmudkhon Yunusov
International Research Institute «Silk Road»

Key words: Life and work, heritage, manuscript, works, Afrosiab, Samarkand, ceramics, metal, research, conservation.

The article is the first to analyze the composition, characteristics and scientific study of the collection of V. Vyatkin, transferred to the Samarkand Museum in 1933 and currently stored in the archaeological fund of the Samarkand State Museum-Reserve. V. Vyatkin is a scholar who made a significant contribution to the study of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. The article provides a detailed description of V. Vyatkin’s collections, assembled in what is now Uzbekistan, particularly at the important archaeological sites of Afrosiyob and the Ulugh Beg Observatory. The author analyzes the collections, which include ceramics, metalwork, and other household items of particular significance for the study of the history of Samarkand and its environs.

This research is of great importance to specialists in the fields of archaeology, history, and museology. It demonstrates how the legacy of one researcher can serve as a foundation for further scholarly research and is important for anyone interested in the history of Turkestan and the region’s cultural ties.

ABDURAZZAQOV ABDUG‘ANI ABDURAZZAQOVICH



Markaziy Osiyoda qadimgi va o‘rta asrlar davri hunarmandchilik, xususan shishasozlik texnologiyalarini o‘rganishda Abdurazzaqov Abdug‘ani Abdurazzaqovichning ilmiy faoliyati alohida o‘rin egallaydi. Uning ko‘p yillik fundamental tadqiqotlari ushbu sohaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan asoslab berishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

A.A. Abdurazzaqov 1930 yilda Toshkent viloyati Qibray tumanida tavallud topgan bo‘lib, dastlabki ta’limni kimyo-texnologiya yo‘nalishida olgan. 1946–1950 yillarda Chirchiq kimyo-texnologiya texnikumida tahsil olib, keyinchalik Toshkent Texnologiya institutida oliy ma’lumotni egallaydi. Mazkur ilmiy-texnik tayyorgarlik uning keyingi arxeologik materiallar va qadimgi texnologiyalarni tahlil qilishdagi ilmiy yondashuvini belgilab berdi.

Olimning ilmiy faoliyati O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aynan shu yerda uning ilmiy izlanishlari tizimli tus oldi. U akademik M.A. Bezborodov rahbarligida 1964 yilda “O‘rta Osiyo o‘rta asr shishalarining kimyo-texnologik tadqiqi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyoda shishasozlik mahsulotlarini ilmiy-analitik usullar asosida o‘rganishga bag‘ishlangan ilk fundamental ishlardan biri hisoblanadi.

A.A. Abdurazzaqovning keyingi ilmiy faoliyati Markaziy Osiyoda shishasozlik ishlab chiqarishining tarixiy taraqqiyotini kompleks ravishda tadqiq etishga qaratildi. Uning tadqiqotlari arxeologik materiallar, yozma manbalar hamda shisha va sir namunalarining kimyoviy va spektral tahlillari asosida olib borildi. Mazkur izlanishlar natijalari “O‘rta Osiyoda shishasozlik tarixi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida umumlashtirilib, 1993 yilda muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Olimning 2012 yilda chop etilgan “Markaziy Osiyoda shishasozlik tarixi: qadimgi davr va o‘rta asrlar” nomli monografiyasi mazkur sohada eng muhim ilmiy manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Unda shishasozlik ishlab chiqarishining uch ming yildan ortiq tarixiy evolyutsiyasi tizimli ravishda yoritilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot nafaqat mintaqaviy, balki umumjahon ilm-fani rivojiga ham sezilarli hissa qo‘shgan. Bundan tashqari, A.A. Abdurazzaqov tomonidan Temur va temuriylar davri me’moriy qurilish materiallari, xususan sopol va sirlarning texnologik xususiyatlari ham chuqur o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish amaliyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning natijalari restavratsiya jarayonida ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Olim faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan yana biri arxeologik obyektlarni, ayniqsa xom g‘ishtli inshootlarni konservatsiya qilish usullarini ishlab chiqish bilan bog‘liqdir. Uning


rahbarligida ishlab chiqilgan kimyoviy konservatsiya metodlari dastlab Sopolllitepa va Jarqo‘ton yodgorliklarida sinovdan o‘tkazilib, keyinchalik Markaziy Osiyoning boshqa arxeologik obyektlarida ham keng qo‘llanilgan.

Shuningdek, A.A. Abdurazzaqov tomonidan arxeologik materiallarni konservatsiya qilish va restavratsiya qilish bo‘yicha ilmiy maktab shakllantirilgan bo‘lib, uning rahbarligida bir qator ilmiy tadqiqotchilar tayyorlangan. U respublikada kimyo-texnologik tadqiqot va konservatsiya laboratoriyasini tashkil etishda faol ishtirok etgan va ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy faoliyat olib borgan.

Olimning ilmiy faoliyati xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan bo‘lib, u “Shisha arxeometriyasi” qo‘mitasi hamda ICOMOS kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar a’zosi hisoblanadi. Uning ilmiy merosi ko‘plab monografiyalar va ilmiy maqolalarda o‘z aksini topgan bo‘lib, ular Markaziy Osiyo arxeologiyasi va qadimgi texnologiyalar tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, A.A. Abdurazzaqovning ilmiy faoliyati Markaziy Osiyoda hunarmandchilik ishlab chiqarishlari, xususan shishasozlik texnologiyalari va arxeologik materiallarni konservatsiya qilish sohalarining rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etadi. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan holda, zamonaviy tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini o‘tamoqda.

ILHOMOV SHARIF ILHOMOVICH



Markaziy Osiyoda arxeologik yodgorliklarni konservatsiya va restavratsiya qilish yo‘nalishining shakllanishi va rivojlanishida Sh. I. Ilhomovning ilmiy-amaliy faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. U mazkur sohada yetakchi mutaxassislardan biri sifatida ilmiy maktabning shakllanishiga bevosita hissa qo‘shgan.

Sharif Ilhomov 1935-yil 13-fevralda tavallud topgan bo‘lib, oliy ta’limni Toshkent to‘qimachilik institutida “Kimyoviy tolalar texnologiyasi” mutaxassisligi bo‘yicha tamomlab, muhandis-kimyogar malakasini egallagan. 1965–1968 yillarda Toshkent lak-bo‘yoq zavodida muhandislik lavozimlarida faoliyat yuritib, amaliy tajriba orttirgan.

1969-yildan boshlab u O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti qoshidagi arxeologik yodgorliklarni restavratsiya va konservatsiya qilish laboratoriyasida ilmiy faoliyat olib boradi. Aynan shu davrdan boshlab uning faoliyati arxeologik materiallarni ilmiy asosda tadqiq etish va ularni saqlash muammolarini hal etishga qaratiladi.

Sh.I. Ilhomov A.A. Abdurazakov bilan hamkorlikda O‘zbekistonda restavratsiya maktabiga asos solgan yetakchi mutaxassislardan biri hisoblanadi. U arxeologik artefaktlarni konservatsiya qilish va restavratsiya qilish usullarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etishda faol ishtirok etgan. Xususan, devoriy suratlar va loy asosidagi haykallarni dala va laboratoriya sharoitida saqlash, ko‘chirish va qayta tiklash texnologiyalari bo‘yicha muhim ilmiy-amaliy natijalarga erishgan.

Olim va uning hamkasblari tomonidan Afrosiyobdagi “Elchilar zali” devoriy suratlari, Fayoztepadagi buddaviy majmua hamda Bolaliktepa yodgorligining tasvirlarini saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha murakkab ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, Yerqo‘rg‘on ibodatxonasidagi yirik hajmli xom g‘isht ustunlarini konservatsiya qilish va ularni xavfsiz ko‘chirish jarayoni ilmiy jihatdan katta yutuq bo‘ldi.

Mazkur tajriba keyinchalik Kuyovqo‘rg‘on, Dalvarzin va Fayoztepa kabi yodgorliklarda loy va ganch haykallarni saqlash hamda restavratsiya qilish jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanildi. Bu esa Markaziy Osiyoda yirik hajmli arxeologik obyektlar bilan ishlash metodikasining shakllanishiga zamin yaratdi.

Sh.I. Ilhomov faoliyatidagi muhim yo‘nalishlardan biri organik materiallarni restavratsiya qilish bilan bog‘liqdir. Xususan, 1979-yilda Amir Temurning yog‘och tobutini restavratsiya qilish ishlari ilmiy-amaliy jihatdan muhim tajriba bo‘ldi. Ushbu jarayonda yog‘och materiallarini konservatsiya qilish, deformatsiyalangan qismlarni tiklash va obyektni qayta yig‘ish bo‘yicha kompleks yondashuv ishlab chiqildi.

Olim kimyogar sifatida qadimiy metall buyumlarni restavratsiya qilish yo‘nalishida ham salmoqli ishlar olib bordi. Registon maydonidagi qazishmalar natijasida topilgan bronza

buyumlar, qimmatbaho metall bilan bezatilgan idishlar hamda tangalar kolleksiyasini tozalash va konservatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida ushbu artefaktlar muzey ekspozitsiyasi darajasiga keltirildi.

Sh.I. Ilhomov ilmiy faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri xom g‘ishtdan qurilgan arxeologik obyektlarni konservatsiya qilishning yangi usullarini ishlab chiqish bilan bog‘liqdir. Bu masala Markaziy Osiyo uchun ayniqsa dolzarb bo‘lib, hududdagi ko‘plab yodgorliklar lyoss asosidagi materiallardan qurilganligi bilan izohlanadi.

A.A. Abdurazakov rahbarligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida diizotsianatlar asosida xom g‘isht materiallarini mustahkamlashning innovatsion usuli ishlab chiqildi. Ushbu usul xom g‘isht strukturasida polimerizatsiya reaksiyasini yuzaga keltirish orqali uning fizik mustahkamligini oshirishga xizmat qildi va arxeologik obyektlarni konservatsiya qilishda yangi ilmiy yo‘nalishni boshlab berdi.

Mazkur metodlar dastlab 1974-yilda Sopolllitepa va Jarqo‘ton yodgorliklarida sinovdan o‘tkazilib, keyinchalik Yunusobod Oqtepasi, Shoshtepa, Qanka va Afrosiyob kabi yodgorliklarda qo‘llanildi. Shuningdek, Turkmaniston va Qozog‘iston hududidagi Eski Niso va O‘tror yodgorliklarida ham ushbu usullar amaliyotga joriy etildi. Ushbu tadqiqotlar asosida Sh.I. Ilhomov 1982-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 25 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etilgan.

Sh.I. Ilhomov o‘z faoliyati davomida san’atshunoslik, materialshunoslik va kimyo sohalarini uyg‘unlashtirgan holda kompleks yondashuvni shakllantirdi. Natijada u yuzlab arxeologik obyektlarni saqlab qolish va restavratsiya qilishga erishdi hamda respublika muzey fondlarini boyitishga katta hissa qo‘shdi.

REUTOVA MARINA ARKADYEVNA



Markaziy Osiyoda arxeologik materiallarni konservatsiya va restavratsiya qilish yo‘nalishining rivojlanishida Reutova Marina Arkadyevnaning ilmiy-amaliy faoliyati muhim o‘rin egallaydi. U ushbu sohada yetuk mutaxassis sifatida ilmiy metodologiyaning takomillashuvi va amaliy restavratsiya ishlarining rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan.

M.A. Reutova 1955-yil 12-sentabrda Samarqand shahrida tug‘ilgan. 1977-yilda Samarqand davlat universitetining kimyo fakultetini tamomlab, kimyogar mutaxassis sifatida faoliyatini boshlagan. O‘qishni tugatgach, Samarqand arxeologiya institutining Kimyo-texnologik tadqiqotlar va tarixiy yodgorliklarni konservatsiya qilish bo‘limiga katta laborant lavozimiga ishga qabul qilinadi. Dastlabki faoliyat bosqichida u arxeologik materiallarni konservatsiya va restavratsiya qilish usullarini amaliy jihatdan o‘zlashtirib, yangi ilmiy yo‘nalishga kirib keladi.

1979-yildan boshlab kichik ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan olima Afrosiyob qazilmalarida olib borilgan ekspeditsiyalarda faol ishtirok etadi. Xususan, Varkhuman saroyi majmuasidagi mashhur “Elchilar zali” devoriy suratlarini ochish, konservatsiya qilish va ko‘chirish jarayonlarida muhim ilmiy-amaliy tajriba orttiradi.

M.A. Reutova tomonidan Afrosiyobdagi devoriy suratlarning janubiy, g‘arbiy va shimoliy devorlariga oid ko‘plab fragmentlar restavratsiya qilingan. 1982–1984-yillar davomida restavratsiya qilingan suratlar maxsus statsionar asoslarda mustahkamlanib, muzeylashtirishga tayyorlangan. 1985-yilga kelib, “Elchilar zali”ning barcha devoriy tasvirlari restavratsiya qilinib, Afrosiyob muzeyida namoyish etila boshlagan.

Olima ilmiy faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri qadimgi paxsali me’moriy yodgorliklarni konservatsiya qilish usullarini ishlab chiqish bilan bog‘liqdir. Ushbu usullar Afrosiyob, Qanka, Eski Niso, Yunusobod Oqtepa va Shoshtepa yodgorliklarida sinovdan o‘tkazilgan. Tadqiqot natijalari ochiq osmon ostidagi muzeylar sharoitida ham ushbu metodlarni qo‘llash mumkinligini ko‘rsatgan. Jumladan, Bibixonim majmuasidagi kichik masjid gumbazlaridan biri aynan shu usullar asosida konservatsiya qilingan.

Mazkur ilmiy izlanishlar natijasida M.A. Reutova 1989-yilda u nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, kimyo fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘ladi va katta ilmiy xodim lavozimida faoliyat yuritdi.

1999-yildan boshlab Samarqand arxeologiya institutining Kimyo-texnologik tadqiqotlar, restavratsiya va konservatsiya bo‘limiga rahbarlik qilib kelmoqda.

M.A. Reutova xalqaro miqyosda ham yuqori malakali restavrator sifatida tan olingan. U Fransiyadagi ilmiy-restavratsiya markazlarida, Yaponiya va YuNESKO tomonidan tashkil etilgan

treninglarda ishtirok etib, zamonaviy konservatsiya metodlarini o‘zlashtirgan. Shuningdek, CARAD loyihasi hamda Yaponiya olimlari bilan hamkorlikdagi Fayoztepa devoriy suratlarini o‘rganish va saqlashga qaratilgan loyihalarda faol qatnashgan.

2000–2005-yillarda Afrosiyob hududida olib borilgan o‘zbek-fransuz arxeologik ekspeditsiyasi doirasida XII–XIII asrlarga oid noyob devoriy surat bo‘laklarini qazib olish, restavratsiya qilish va muzeylashtirish ishlari amalga oshirilgan. Ushbu materiallar keyinchalik Afrosiyob muzeyida hamda Fransiyadagi Luvur muzeyida ko‘rgazmalarida namoyish etilgan.

2014–2017-yillarda “Elchilar zali” devoriy suratlari qayta restavratsiya qilinib, zamonaviy materiallar asosida yangilangan konstruksiyalarga o‘rnatildi. Mazkur murakkab loyiha “Restoration and conservation of the 7th century ‘Painting of the Ambassadors’” doirasida amalga oshirilib, o‘zbek tomondan M.A. Reutova rahbarligida bajarildi.

Olima Samarqand va uning atrofidagi ko‘plab yodgorliklarda olib borilgan qazishmalarda ham faol ishtirok etgan. Jumladan, Jartepa, Qo‘rg‘ontepa, Kindikli, Qanka, Eski Termiz, Erqo‘rg‘on, Axsikent, Jarqo‘ton va Selungur g‘ori materiallarini konservatsiya va restavratsiya qilish ishlarini amalga oshirgan.

Bundan tashqari, u xalqaro ekspeditsiyalar tarkibida ham faol ishlagan. Xususan, O‘zbek-Yapon qo‘shma ekspeditsiyasi doirasida Qoratepa buddaviy majmuasida devoriy suratlar va haykallarni konservatsiya qilgan. O‘zbek-Norvegiya ekspeditsiyasi tarkibida esa Sarmishsoy yodgorligidagi petrogliflarni saqlash ishlari olib borilgan.

Shuningdek, M.A. Reutova tomonidan Kofirqal’a yodgorligidan topilgan o‘ymakor yog‘och buyumlar, Munchoqtepa olingan metall va to‘qimachilik buyumlarini konservatsiya qilish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilgan. Ushbu eksponatlar keyinchalik nafaqat mahalliy muzeylarda, balki Luvir va Britaniya kabi xalqaro miqyosdagi muzeylarda namoyish etilgan.

M.A. Reutova 40 dan ortiq ilmiy maqollar muallifidir. Uning ilmiy-amaliy faoliyati davlat tomonidan ham yuqori baholanib, “Do‘stlik” ordeni (2011-yil) hamda O‘zbekiston mustaqilligining 25 yilligiga bag‘ishlangan medali (2016-yil) bilan taqdirlangan.

AHADOVA GULNORA RADJABOVNA



G.R. Axadova 1955-yil 3-yanvarda Samarqand shahrida tug‘ilgan. 1973-yilda mumta’lim maktabini tamomlagach, Samarqand o‘lkashunoslik muzeyida faoliyat boshlagan. 1975-yilda u O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Kimyo-texnologik tadqiqot va konservatsiya bo‘limiga ishga qabul qilindi va uning ilmiy-amaliy faoliyati tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlash va restavratsiya qilish bilan chambarchas bog‘lanadi. Mazkur ilmiy muhitda u restavratsiya fanining nazariy va amaliy asoslarini puxta o‘zlashtirib boradi. Uning dastlabki dala konservatsiyasi bo‘yicha tajribasi Afrosiyob yodgorligidagi Varkhuman saroyi devoriy suratlarini ko‘chirish jarayonida shakllangan. Bu jarayon restavratsiya amaliyotining murakkab bosqichlarini egallashda muhim tajriba maktabi bo‘lib xizmat qilgan.

1976-yilda u Toshkent San’at institutining tasviriy san’at yo‘nalishining sirtqi bo‘limiga o‘qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomlagan. 1977–1979-yillarda G.R. Axadova Afrosiyob, Erqo‘rg‘on, Kuyovqo‘rg‘on va Eski Termiz arxeologik ekspeditsiyalarida ishtirok etib, turli davrlarga oid devoriy suratlar hamda haykaltaroshlik namunalarini konservatsiya qilda va restavratsiya metodologiyasi bo‘yicha tajribasini sezilarli darajada boyitdi.

1982-yilda Davlat Ermitajining monumental rassomchilik ustaxonasining yetakchi restavratori T.S. Vasilenko ishtirokida Afrosiyobdagi qazilmalarda devoriy suratlarni tozalash va konservatsiya qilish ishlari olib boriladi. Ushbu hamkorlik doirasida 1983-yilda G.R. Axadova Ermitajda malaka oshirib, murakkab restavratsiya jarayonlari bo‘yicha chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

Bolaliktepa devoriy suratlarini restavratsiya qilish jarayonida u Davlat Ermitaji mutaxassislari bilan hamkorlikda maxsus ilmiy metodika ishlab chiqishda ishtirok etadi. Mazkur metodika ilk o‘rta asr devoriy tasvirlarini saqlash va tiklashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Keyinchalik ushbu yondashuv Zartepa, Fayoztepa, Afrosiyob va Kindikli yodgorliklarida olib borilgan restavratsiya ishlarida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi.

G.R. Axadova bir necha yil davomida Eski Termiz hududidagi Qoratepa buddaviylik majmuasida O‘zbek-Yapon arxeologik ekspeditsiyasi tarkibida faoliyat yuritgan. Bu yerda u rangli loy-ganch haykaltaroshlik namunalari hamda monumental devoriy surat fragmentlarini tozalash, mustahkamlash va konservatsiya qilish ishlarini amalga oshirgan. Restavratsiya qilingan materiallar keyinchalik Termiz arxeologiya muzeyi ekspozitsiyasida namoyish etilgan.

2005-yilda u Qazokli-Yatgan yodgorligida dala konservatsiya ishlarini olib borish uchun O‘zbek-Avstraliya ekspeditsiyasiga jalb etilgan. Mazkur yodgorlikda miloddan avvalgi II asrga oid noyob devoriy suratlarni konservatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilgan.

G.R. Axadovaning ilmiy faoliyati natijalari respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar materiallarida o‘z aksini topgan bo‘lib, u tomonidan 20 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etilgan. Uning ilmiy-amaliy faoliyati davomida to‘plangan tajriba Markaziy Osiyoda monumental san’at namunalari

restavratsiyasi metodologiyasining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi.

G.R. Axadovaning ilmiy-amaliy faoliyati arxeologik yodgorliklarni, ayniqsa monumental devoriy tasvirlar va haykaltaroshlik namunalarini saqlash va restavratsiya qilish yo‘nalishining rivojlanishida muhim bosqichlardan biri sifatida baholanadi. Uning faoliyati natijalari bugungi kunda ham madaniy merosni asrash sohasida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tahririyat manzili:

140151, Samarqand shahri, V. Abdullayev ko‘chasi, 3. Telefon: (988 66) 232–27 74
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2022-yil 21-noyabrda
0567 – son guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Terishga berildi ____2025-y. Bosishga ruxsat etildi 15.08.2025-y.
Bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog‘i 12. Adadi 100 nusxa. Buyurtma 505